

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2021 Vol. 1

**www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz**

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeveva (o'zbek) Qosimjon Ma'murov (ingliz)
MAS'UL KOTIB Ilyos Ismoilov
TAHRIR HAY'ATI Zaynobiddin Abdirashidov Karl Rayxl (Germaniya) Seyhan Tanju (Turkiya) Kamol Abdulla (Ozarbayjon) Vahit Turk (Turkiya) Isa Xabibeyli (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) Mark Toutant (AQSh) Boqijon To'xliyev Qosimjon Sodiqov Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Vali Savash (Turkiya) Kimura Satoru (Yaponiya) Hamidulla Dadaboyev Aftondil Erkinov Rashid Zohidov Baxtiyor Abdushukurov Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Dilnavoz Yusupova Qo'ldosh Pardayev Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon) Nodirbek Jo'raqo'ziyev

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Muhammadjon Imomnazarov Olti devon muqoyasasi	3
Sohiba Madirimova "Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy" to'plamida Mutrib she'rlari	22
Ilova. Matn	38
ADABIYOTSHUNOSLIK	
Shuhrat Sirojiddinov Ahliy Sheroziy qasidasida Alisher Navoiy madhi	53
Husniddin Eshonqulov Alisher Navoiy oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga xosliklar	69
Murtazo Saydumarov Haririy maqomalarida Qur'oniy iqtiboslar	87
Ilyos Ismoilov Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni debochasi badiiyati	101
TILSHUNOSLIK	
Samixon Ashirboyev Areal lingvistikada takson tushunchasi talqini	119

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)	
Kasimjon Mamurov (English)	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ilyos Ismailov	
EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Vahit Turk (Turkey)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Yusupova Dilnavoz	
Kuldosh Pardaev	
Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
TEXTOLOGY	
Muhammadjon Imomnazarov	
The comparison of the six diwans (poetry)	3
Sohiba Madirimova	
Mutrib's mukhammasses in the collection "Mazhmui mukhammasoti ash-shuaroi Feruzshakhiy"	22
Appendix. Text	38
LITERATURE	
Shuhrat Sirojiddinov	
The praise (madh) of Alisher Navoi in the qasida by Ahli Shirazi	53
Husniddin Eshonkulov	
Peculiarities of the artistic construction of Alisher Navoi's romantic ghazals	69
Murtazo Saydumarov	
Qur'anic quotes in Hariri maqamats	87
Ilyos Ismoilov	
The poetry of the preface (debacha) of Alisher Navoi's epic "Sadd-i-Iskandari"	101
LINGUSTICS	
Samikhon Ashirboev	
The interpretation of the concept of taxon in areal linguistics	119

MATNSHUNOSLIK**TEXTOLOGY**

Olti devon muqoyasasi (“Badoyi’ ul-bidoya”ning yangi topilgan Tehron nusxasi asosida)

Muhammadjon Imomnazarov*

Abstrakt

Alisher Navoiy hayoti va ijodini tadqiq etish, asarlari mazmunini yoritish hamisha mashaqqatli va dolzarb vazifa. Shubhasiz, bunday ulkan vazifani matnshunoslik va manbashunoslikka oid tadqiqotlarsiz bajarib bo’lmaydi. Alisher Navoiy – asarlarining qo’lyozmalari bugungi kunga qadar deyarli to’liq yetib kelgan kam sonli ijodkorlardan hisoblanadi. Lekin Navoiy asarlari matni hanuz mukammal bir holga keltirilgan emas. Xususan, bugungi kunda Alisher Navoiy lirik merosining matnshunoslik tadqiqini amalga oshirish dolzarbligini saqlab turibdi.

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning olti devoni: “Ilk devon”, “Oqquyunli muxlislar devoni”, “Badoyi’ ul-bidoya”ning ilk protodevoni bo’lgan Parij nusxasi, shoir hayotligida ko’chirilgan va bizga ma’lum oxirgi variant bo’lmish Toshkent nusxasi, “Navodir un-nihoya”ning Abdujamil kotib ko’chirgan (“Mukammal asarlar to’plami”ning 2-jildi sifatida nashr etilgan) nusxasi hamda yangi topilgan Tehron nusxasi qiyosiy tahlil etilgan. Mazkur devonlarning tarkibi va tuzilishi muqoyasa qilinib, zarur xulosalar chiqarilgan va Navoiy lirikasini davrlashtirishga oid qarashlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so’zlar: *Alisher Navoiy, qiyos, devon, tasnif, qo’lyozma, matn, g’azal.*

* Muhammadjon Imomnazarov – filologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Xorijiy Sharq xalqlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası.

e-pochta: imomnazarovm@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-6959-3970

Kirish

1961-yili zahmatkash matnshunos Hamid Sulaymon ulug' bir ishni nihoyasiga yetkazdi – Alisher Navoiy lirik merosining ilk matnshunoslik tadqiqini amalga oshirdi. Ishning samarasi sifatida “Xazoyin ul-maoniy” tarkibiga kirgan 4 devon 1959-1960-yillari kirill alifbosida to'liq nashr etildi. Keyinchalik 15 jildlik tarkibida “Devoni Foni” ham bosilib chiqdi. Hamid Sulaymon tadqiqotining eng katta yutug'i va yangiligi, bizning nazarimizda, Alisher Navoiy lirik merosining davrlashtirilishi edi.

Professor Hamid Sulaymon o'z tadqiqotida “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi devonlarga she'rlarning taqsimlanishi bu she'rlar yaratilish davrining haqiqiy xronologiyasi emasligini manbalar asosida aniqlab, Alisher Navoiyning o'z qo'li bilan tuzilgan ilk devonlari – “Badoyi' ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya”ning muallif hayotligida ko'chirilgan turli nusxalaridagi barcha she'rlarning janrlar bo'yicha aniq hisobini jadval tarzida keltirib, keyingi qiyosiy tadqiqotlarga keng yo'l ochdi. Matnshunos olim keyinroq Sankt-Peterburgda Saltikov-Shedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida saqlanuvchi “Ilk devon”ning faksimil nusxasini nashr ettirdi. Keyinchalik ustozning izidan taniqli adabiyotshunoslarimiz Y. Is'hoqov va Dilorom Salohiyar shu yo'nalishda o'z tadqiqotlarini yaratdilar.

Hamid Sulaymon o'z tadqiqotida “Badoyi' ul-bidoya” devonining shoir hayot paytida shakllantirilgan 4 nusxasi – 1) 1480-yilda ko'chirilgan qo'lyozma (Parij nusxasi, Milliy kutubxona, inv. № 746), 2) 1482-yilga oid qo'lyozma (London nusxasi, Britaniya muzeyi, inv. № 401, 887-hijriy, 231 varaq), 3) 1484-yilgi qo'lyozma (Boku nusxasi) va 4) 1486-yilda ko'chirilgan qo'lyozma (Toshkent nusxasi) haqida ma'lumot bergan.

So'nggi yillarda izlanuvchan olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov sa'y-harakatlari bilan ayni shu devonning yana ikki qo'lyozmasi aniqlandi. Bular shu devonning yangi aniqlangan **Tehron nusxasi** (Eron, Islom sho'ro majlisi kutubxonasi, 14197-raqamli qo'lyozma - hijriy 888-yil, safar oyi / melodiy 1483-yil, mart-aprelda ko'chirilgan) va yana shu devonning **Istanbul nusxasi** bo'lib, keyingi qo'lyozma 1485-yilda ko'chirilganligi aniqlangan [Эркинов 2018, 51-57; Турдалиев ва Эркинов 2018, 57-62].

Demak, bugun jahon ilmiy jamoatchiligi ixtiyorida shoirning o'z qo'li bilan tuzgan birinchi devonining turli yillarda ko'chirilgan 6ta qo'lyozmasi mavjud bo'lib, ulardan 3tasi 1480-1483-yillarda, ya'ni Alisher Navoiy ijodiy takomilining birinchi bosqichida –

“Xamsa” dostonlari yozila boshlanguncha oqqa ko‘chirilgan. Bizning qo‘limizda hozircha bu uch devondan biri – 1482-yilda ko‘chirilgan London nusxasi yo‘q. 1480-yilda ko‘chirilgan Parij nusxasi haqida alohida maqolamiz chop etilganligini hisobga olib, endi shoir o‘z dostonlarini yozishga kirishgan 1483-yilda tuzilgan **Tehron qo‘lyozmasi** atrofida so‘z yuritishni boshlaymiz. Bu qo‘lyozmaga oid umumiy ma‘lumotlar Aftondil Erkinov maqolasida bor [Эркинов 2018, 51-57].

“Badoyi’ ul-bidoya” devonining shoir hayot paytida shakllantirilgan 6 nusxasida keltirilgan g‘azallar soni barchasida bir-biridan farq qiladi. Eng ko‘pi birinchi ko‘chirilgan Parij nusxasida – 731 g‘azal (bizning keyingi hisobimizda g‘azal 735ta chiqdi. Yana aniqlash kerak). Keyingi London nusxasida – Hamid Sulaymon ma‘lumotlariga ko‘ra faqat 571 g‘azal keltirilgan, ya‘ni bir devonning o‘rtada 2 yillik tafovut bilan ko‘chirilgan nusxalari orasidagi tafovut 160 g‘azalni tashkil etadi. Ammo buning evaziga London nusxasiga 1480-yilgi qo‘lyozmada mavjud bo‘lmagan 3 tarje‘band, 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 41 qit‘a kiritilgan bo‘lib, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fardlar soni ham sezilarli darajada ko‘paytirilgan. “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasida mavjud bo‘lib, devonning keyingi nusxalaridan tushib qolgan g‘azallarning aksariyati ikkinchi devon “Navodir un-nihoya” tarkibiga kiritilgan. “Badoyi’ ul-bidoya”ning yangi aniqlangan **Tehron nusxasida**, aniqlashimiz bo‘yicha, 618 g‘azal mavjud. Demak, 1 yil o‘tib ko‘chirilgan bu nusxada London nusxasiga nisbatan g‘azallar soni 47 taga ko‘paygan, ammo Parij nusxasiga qaraganda 113 g‘azal kam. Devonning 1484-yilda ko‘chirilgan Boku nusxasida, yana Hamid Sulaymon ma‘lumotlariga tayansak, 603 g‘azal, ya‘ni Tehron nusxadan biroz (15taga) kamaygan, yangi topilgan Istanbul nusxasi (hijriy 889, milodiy 1484/85-yillar) nuqsonli bo‘lgani tufayli (orada varaqlar tushib qolgan) undagi g‘azallar miqdori haqida aniq xulosa chiqarish qiyin [Турдалиев ва Эркинов 2018, 57-62]. “Badoyi’ ul-bidoya”ning ko‘chirilgan yillariga ko‘ra shoir hayotligida kitobat qilingan oxirgi qo‘lyozmasi – Toshkent nusxasi – 1486-milodiy yilga (hijriy 891-yil) to‘g‘ri keladi. Undagi g‘azallar soni 657ta. Devonning turli nusxalaridagi boshqa she‘riy janrlar miqdorida ham farqlar mavjud. Bir devonning turli yillarda ko‘chirilgan nusxalari orasidagi bunday o‘zgarishlarni qanday izohlash mumkin?

Parij nusxasiga oid maqolamizda bu nusxada bor, Toshkent nusxasida yo‘q 79 g‘azalning birinchi misralari ro‘yxatini keltirgan edik [Имомназаров 2018, 16-24]. Shulardan 76tasi keyincha

“Navodir un-nihoya” tarkibiga kiritilgan. Yana o’sha maqolada tilga olingan har ikki nusxada ham uchramagan, ammo “Mukammal asarlar to’plami”ning 1-jildiga kiritilgan 27 g’azalning dastlabki misralarini keltirib, ulardan 14 g’azal “*Navodir un-nihoya*” devoni tarkibida ham uchrashini ta’kidlab o’tgan edik. Demak, ushbu ro’yxatdagi 13 g’azal devonning London va Boku nusxalarida uchrashi mumkin.

Asosiy qism

“Olti devon muqoyasasi” deganda biz ayni paytda qo’limizda mavjud bo’lgan “Ilk devon”, “Oqquyunli muxlislar devoni”, “Badoyi’ ul-bidoya”ning ilk protodevoni bo’lmish Parij nusxasi, shoir hayotligida ko’chirilgan bizga ma’lum oxirgi varianti bo’lmish Toshkent nusxasi, “Navodir un-nihoya”ning Abdujamil kotib ko’chirgan (“Mukammal asarlar to’plami”ning 2-jildi sifatida nashr etilgan) nusxasi hamda yangi topilgan Tehron nusxasining ilk qiyosiy tahlilini nazarda tutmoqdamiz.

Bu qiyosiy tahlildan qanday natijalarga erishish mumkin? Shu kungacha mavzuga oid nashr etilgan maqolalarimizda – “Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligining dolzarb masalalari”, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasi”, “Uch devon muqoyasasi (Alisher Navoiy she’riyatida lirik janrlar xronologiyasiga doir)”, “XXI asr navoiyshunosligi: metodologiya muammolari” – XXI asr boshlariga kelib shu yo’nalishda yig’ilib qolgan muammolar tahlil qilingan va ularning ba’zilariga yechimlar izlangan edi [Имомназаров 2017, 6-10; 2018, 12-17; 2019, 13-19]. Biz hanuzgacha Hamid Sulaymon birinchi bor qisqacha tavsif qilgan London nusxasi matnini qo’lga kiritishga muvaffaq bo’lmadik. Tehron nusxasi ayni shu nusxadan keyin ko’p o’tmay kitobat qilingan. Unda 1482-yili ko’chirilgan matnga nisbatan g’azallar miqdori birmuncha oshgan, ammo baribir 1480-yil nusxasidan sezilarli darajada kam. Yangi topilgan nusxadagi eng asosiy yangilik shundaki, “Badoyi’ ul-bidoya”ning bu nusxasi shoir lirik merosining boshqa janrlarini aks ettirishda Parij nusxasidan keskin farq qilib, London, Boku va Toshkent nusxalari bilan to’la uyg’un keladi. Bu holat bizning oldingi maxsus maqolamizda 1480-yil nusxasi shoir tomonidan keyincha rad qilingan protodevon ekanligi haqidagi xulosamizni yana bir marta tasdiqlashga xizmat qiladi. Bu – birinchi natija.

Albatta, 1482-yil va undan keyin ko’chirilgan nusxalar orasida ba’zi juz’iy farqlar ham bor. Bular, asosan, turli lirik janrlardagi she’rlarning miqdoriga oid. Masalan, Hamid Sulaymon jadvallaridagi ma’lumotlarga ko’ra London nusxasida 571 g’azal, 3 mustazod,

4 muxammas, 2 musaddas, 3 tarje'band, 41 qit'a, 78 ruboiy, 10ta lug'z, 52 muammo, 10 tuyuq, 42 fard mavjud. Boku nusxasida g'azal 603ta, muxammas 5ta, ruboiy 62ta, fard 48taga o'zgargan bo'lib, qolgan janrlar miqdori oldingi nusxadan farq qilmaydi. Toshkent nusxasida 657 g'azal, 83 ruboiy, 50 fard mavjud bo'lib, qolgan janrlar sanog'i London va Boku nusxalari bilan bir xil. Tehron nusxasida esa g'azallar soni 618ta, yana 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 3 tarje'band, 49 qit'a, 79 ruboiy, 10 lug'z, 53 muammo, 10 tuyuq, 51 fard mavjud. Demak, London nusxasiga nisbatan g'azallar 47taga, qit'a 8taga, ruboiy 1taga, muammo ham 1taga, fard 9taga ko'paygan, qolgan janrlar miqdori o'zgarmagan.

Oldinroq "Ilk devon" va "Oqquyunli muxlislar devoni" "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij nusxasi bilan solishtirilganda ma'lum bo'lishicha [Имомназаров 2018, 12-17], har uch devonda 45ta g'azal qaytarilgan, 1- va 3-devonlarda qaytarilgan g'azallar 117ta, 2- va 3-devonlar uchun umumiy bo'lgan g'azallar miqdori 205ta (demak, "Oqquyunli muxlislar devoni"dagi 19ta g'azal "Badoyi' ul-bidoya"ning ilk variantiga kirmagan¹). Biz MAT 1-jildiga tayangan holda 5 devondagi g'azallarning qiyosiy ro'yxatini tuzib chiqdik. Uning asosida quyidagi natijalar ma'lum bo'ldi.

Birinchidan, "Badoyi' ul-bidoya"ning biz tahlilga tortgan har uch nusxasida va MAT 1-jildida quyidagi 12 g'azal o'zgarishsiz kelmoqda:

- №1 – *Ashraquat min aksi shamsil-ka'si anvorul-xudo,*
- №2 – *Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,*
- №3 – *Ey, mus'hafi ruxsoring azal xattidin insho,*
- №4 – *Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga,*
- №5 – *Yo rab, ulus nihoni emastur nihon sanga,*
- №6 – *Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,*
- №7 – *Zihi javlongahing aflok uza maydoni "av adno",*
- №8 – *Zihi hiloling o'lub oy boshig'a tiyg'i balo,*
- №9 – *Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,*
- №10 – *Falak nilufaridin chashmayi mehr o'ldi gar paydo,*
- №11 – *Manga ne manzilu ma'vo ayon, ne xonumon paydo,*
- №12 – *Ham ramad tekkan ko'zungga jismi bemorim fido,*

¹ Maqolada "Oqquyunli muxlislar devoni"dagi g'azallar sonini 223ta deb ko'rsatgan edik, devonning kirill yozuvidagi nashri signal variantida 222ta g'azal berilgan bo'lib, asl nusxadagi ikki g'azal tushib qolgan ekan, bu xato tuzatilgach, 2- va 3-devonlar uchun umumiy bo'lgan g'azallar miqdori maqolada keltirilgandek 203ta emas, balki 205ta bo'lib chiqdi.

Parij va Toshkent nusxalari to № 19gacha o'zgarishsiz keladi, ammo Tehron nusxasidagi g'azallar tartibi № 13 dan o'zgara boshlaydi:

- №13 – №21 – *Nuqtayi mushkdur bu yo xoli aning jabin aro,*
№14 – №29 – *Ey, alifdek qomating mili buzulg'on jon aro,*
№15 – №32 – *Mehnat o'qidin qabaqdek qolmisham afg'on aro,*
№16 – №45 – *Kimki ko'rsa mushki nob ul sunbuli serob aro,*
№17 – №31 – *Vahki, rasvomen yana devonavu oqil aro,*
№18 – №13 – *Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro,*
№19 – №37 – *Ey, alifdek rost qadding hasrati jonlar aro,*

MAT 1-jildidagi №20 – *Savodi xoli aning la'li ruhparvar aro,* deb boshlangan Toshkent nusxasi bilan muvofiq keluvchi g'azal Parij nusxasida ham, Tehron nusxasida ham uchramaydi.

MAT 1-jildidagi keyingi № 21– 45 g'azallar tartibi ham Toshkent nusxasi bilan muvofiq keladi, № 21dan boshlab to № 29gacha Parij nusxasida bir tartib raqamiga kamaygan holda davom etadi:

№21 – №20 – №44 – *Ming zaxm urdi xanjari ishqing bu tan aro,*

№22 – №21 – №41 – *Necha ko'nglum yora bo'lsa, rahm qilmas yor anga,*

№23 – №22 – №22 – *Ul parivashkim, bo'lubmen zoru sargardon anga,*

№24 – №23 – №24 – *Sinsa ko'nglumda o'qung surtub isig' qondin anga,*

№25 – №24 – №14 – *Chin kiyigi desam ko'zin, vah nedurur itob anga,*

№26 – №25 – №30 – *Ko'rgali husnungni zoru muftalo bo'ldum sanga,*

№27 – №26 – №27 – *Qahring o'lsa barcha ishimdin malolattur sanga,*

№28 – №27 – №38 – *Iydi ruxsoring ko'rub, bo'ldi ulus hayron sanga,*

№29 – №28 – №28 – *Javru zulming garchi o'lmaklik nishonidur manga,*

MAT 1-jildi va Toshkent nusxasida – “Ul malohat ganji¹ hajrida buzug' maskan manga” (№30) deb boshlanuvchi g'azal yana Parij va Tehron nusxalariga kirmay qolgan. Keyingi g'azallar MAT

¹ MAT 1-jildida bu so'z “*kunji*” deb xato berilgan.

1-jildi va Toshkent nusxasida o'zaro muvofiq davom etadi, Parij nusxasida endi tartib raqami 2 nomerga oqsab keladi:

№31 – №29 – №36 – *Vahki, ishqing zohir etsam vahm erur o'lmak manga,*

№32 – №30 – №23 – *Agarchi yo'q talabingdin dame qaror manga,*

№33 – №31 – №25 – *Lablaringdin garchi qon yutmoq damodamdur manga.*

№34 – №32 – №26 – *To seningdek qotili xunxoraye bordur manga,*

№35 – №33 – №33 – *Labing sori tokim nazardur manga,*

№36 – №34 – №34 – *Shahr bir oy furqatidin baytul-ahzandur manga,*

№37 – №35 – №39 – *Menmudurmenkim sening vasling muyassardur manga.*

MAT 1-jildi va Toshkent nusxasida navbatdagi "Ko'zlarimda ishqdin suv erdi uyqu o'rnida" deb boshlanadigan 38 tartib raqamli g'azal yana Parij va Tehron nusxalarida yo'q.

Navbatdagi "mahdi ulyo" Xadichabegimga bag'ishlangan mashhur "Behi rangidek o'lmish dardi hajringdin manga siymo" deb boshlanuvchi g'azal har uch nusxada (№39 – №36 – №23) uchraydi, ammo undan keyingi quyidagi 3 g'azal:

№40 – *Yor aksi chunki aylar jilva may ko'zgusida,*

№41 – *Kimsa hargiz ko'rmadi chun ahli davrondin vafo,*

№42 – *Mir'oti husnung tiyradur bu ohi dardolud aro* – faqat Toshkent nusxasida mavjud bo'lib, Parij va Tehron nusxalarida uchramaydi.

Keyingi 3 g'azal esa barcha 5 nusxada ("Badoyi'ul-bidoya"ning Toshkent, Parij, Tehron nusxalari va "Ilk devon", "Oqquyunli muxlislar devoni") keltiriladi:

№43 – №37 – №20 – №39 – №5

Yer tutar ko'nglumda gardundin judo bo'lg'on balo,

№44 – №38 – №40 – №30 – №11

Orazu xolingni bir dam ko'rmasam, ey dilrabo,

№45 – №39 – №35 – №7 – №19

Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo.

Va, nihoyat, MAT 1-jildida 46-tartib raqami ostida kelgan "Zor jismimg'a xadanging zaxmidin ortar navo" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal endi Toshkent nusxasida uchramaydi va shundan boshlab MAT 1-jildi bilan Toshkent nusxasi o'rtasida tartib raqamidagi muvofiqlik buziladi. Endigi ro'yxatda Toshkent nusxasining tartib raqami MAT

1-jildidan bir raqamga kechika boshlaydi. Masalan, *“Yor dardim soʻrmayin koʻnglumni mahzun qildilo”* misrasidan boshlanuvchi gʻazal MAT 1-jildida №47, Toshkent nusxada №46, Parij nusxasida №41, Tehron nusxasida №16 tartib raqami ostida keladi. Keyingi gʻazallar xuddi shu tartibda (5-qator “Ilk devon”):

№48 – №47 – №42 – №17 – №31

Sorigʻ ogʻriq boʻldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,

№49 – №48 – №43 – №18

Koʻnglum oʻrtansun agar gʻayringga parvo aylasa,

№50 – №49 – №44 – №19

Qosidekim yordin bir soʻz rivoyat aylasa,

№51 – №50 – №45 – №43 – №34

Bagʻir xunobidin zaʻf oʻldi gʻolib xasta jonimgʻa,

№52 – №51 – №46 – №46 – №48

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo.

Qofiyasi “alif” harfi bilan tugallanuvchi gʻazallar MAT 1-jildida 52ta, Toshkent nusxasida 51ta, Parij nusxasida 46ta, Tehron nusxasida ham 46ta. “Ilk devon”da bu roʻyxat 49tani, “Oqquyunli muxlislar devoni”da esa 22tani tashkil qiladi.

“Badoyi’ ul-bidoya”ning har uch nusxasida *“Ey, mus’hafi ruxsoring azal xattidin insho”* deb boshlanuvchi 3-tartib raqamli gʻazal “Oqquyunli muxlislar devoni”da *“Ey, safhai ruxsoring azal xattidin insho”* shaklida birinchi boʻlib kelgan. №13 – №21 – Nuqtayi mushkdur bu yo xoli aning jabin aro deb boshlanuvchi gʻazal esa bu devonda №4 boʻlib keladi. №14 – №29 – raqamli gʻazal 7-tartib raqamida *“Ey, alifdek qomating mili duzulmush jon aro”* shaklida beriladi. *“Ey, alifdek rost qadding hasrati jonlar aro”* deb boshlanuvchi №19 – №37 – raqamli sheʼr esa Oqquyunlilar tuzgan devonda 20-tartib raqami ostida keladi.

“Ilk devon”dagi “Iloho, podishoho, kirdigoro” deb boshlanuvchi 1-gʻazal na “Badoyi’ ul-bidoya”ning har uch nusxasida, na “Navodir un-nihoya”da uchramaydi. Bu gʻazal shoir oʻzi tuzgan devonlardan faqat “Xazoin ul-maoniy” tarkibidagi birinchi devon boʻlmish “Gʻaroyib us-sigʻar”dagina 5-tartib raqami bilan keltirilgan. Buning sababi balki “Badoyi’ ul-bidoya”ning boshlanishiga “Ashraquat” gʻazalining qoʻyilishi bilan bogʻliqdir. Chunki bu gʻazal shoir tomonidan oʻzi tuzgan birinchi devon uchun maxsus yozilganligi aniq sezilib turadi. “Ilk devon”dagi *“Zihi javlongahing...”* deb boshlanuvchi 2-gʻazal *“Badoyi’ ul-bidoya”*ning har uch nusxasida №7 oʻrindan joy olgan. *“Har gadokim...”* deb boshlangan 3-gʻazal “Badoyi’ ul-bidoya” qoʻlyozmalarida 9-tartib raqami ostida keladi.

Ayni shu g'azal mazmuniga oid masalada bir jiddiy muammo bor. Ma'lumki, "Ilk devon" hijriy 870 (milodiy 1465-1466) yili mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan deb hisoblanadi. Ammo she'r mazmuni, ayniqsa, uning oxirgi 5 bayti har qanday e'tiborli insonda ishtiboh uyg'otadi:

*Shohg'a shahlig' musallamdur, agar bo'lg'ay mudom
Shohlig' tarkin qilib, darvesh o'lur niyat anga.
Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig', magar
Shohi G'oziykim, muyassar bo'ldi bu davlat anga.
Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, bor
Shohlig' surat anga, darveshlik siyrat anga.
To shahu darvesh bo'lg'ay, aylagil, yo rab, ayon
Shohdin xizmat anga, darveshdin himmat anga.
Gar Navoiy so'z uzatti, faqrdin ermas demang,
Bo'lmag'uncha hukm shahdin, qayda bu jur'at anga?*

She'rning birinchi qismi – 8 bayt davomida jamiyatdagi ikki bir-biriga zid toifa vakili shoh va darvesh qiyoslanadi va birinchisidan ikkinchisi yuqori qo'yiladi. Ammo 9-baytdan boshlab shoir o'z qarashlariga isloh kiritadi, ya'ni hukmdorlik va ma'naviy yuksaklik bir kishida birlashishi mumkin va buning yagona misoli *Shohi G'oziy*, ya'ni shoirning yoshlikdan qadrdon do'sti va hamfikri bo'lmish Husayn Boyqaro ekanligi ochiq e'tirof etiladi. Savol tug'iladi: axir devon ko'chirilgan hijriy 870, milodiy 1465-1466-yillari Hirot taxtida Abusaid mirzo o'tirgan edi-ku, Husayn Boyqaroning *Shohi G'oziy* unvonu u Hirotni egallab Xuroson taxtiga o'tirganidan so'ng joriy bo'lgan emasmidi? Bu savol meni anchadan buyon qiynab kelayotgan edi, ushbu maqolani yozish jarayonida yana "Ilk devon"ning 1968-yilda Hamid Sulaymon nashr ettirgan faksimilesini qo'lga oldim. Xayollar og'ushida kitobni varaqlar ekanman, birdan yarq etib 505-506-yillar ilgari ko'chirilgan kitobning bir sahifasi o'z rangiga ko'ra boshqa barcha sahifalaridan keskin farq qilib turganligi diqqatimni jalb etdi. Avvallari shunga e'tibor qilmagan ekanman. Bizgacha etib kelgan qo'lyozmaning barcha sahifalari odatiy sarg'ish tusda bo'lsa, ayni ko'pchilikda ishtiboh uyg'otadigan 3-tartib raqamli g'azal ko'chirilgan sahifa (3a) asosi ko'kimtir rangda ekan. Diqqat bilan yana qarab chiqdim, bunday keskin o'zgarish qo'lyozmaning boshqa biron sahifasida kuzatilmaydi. Demak, ushbu sahifadagi yozuv yuvilgan, so'ng matn qayta yozib chiqilgan, degan xulosaga keldim. Sababi tushunarli. Alisher Navoiy o'zining yaqin do'sti va hamfikri bo'lgan temuriy shahzodadan umidlari katta edi va uning Hirot taxtiga o'tirishi shoir uchun ayni muddao bo'lgan.

Sultonali Mashhadiy haqida Mirzo Boburning yozganlari ham shuni ko'rsatadiki, bu davrda iste'dodli xattot har ikki do'st uchun ham qadrli bo'lgan. Shunday sharoitda yaqin do'sti ijod namunalari aks etgan devonning boshlanish qismida shoh va darveshni bir-biriga zidlashtirish va darveshni shohdan ulug' bilish mazmunidagi g'azal joy olishi, albatta, yangi taxtga o'tirgan hukmdorga o'ta hurmatsizlik bo'lur edi. Ammo agar shu ruhdagi g'azal yuqorida keltirilgan misralar bilan yakunlansa, butkul boshqacha ruh kasb etar va yosh shoir orzulariga ham muvofiq tushishi tabiiy edi. Demak, matnshunoslikda har bir eng arziyas tuyulgan jihatga ham jiddiy e'tibor talab etilar ekan.

Qiyosiy tahlilni davom ettiramiz. "Ilk devon"dagi "*Ul parivashkim...*" deb boshlanuvchi 4-g'azal yuqorida keltirilgandek, MAT 1-jildi va Toshkent nusxasida №23, Parij va Tehron nusxalarida №22 tartib raqamlarida, "*Oqquyunli muxlislar devoni*"da esa №13 tartib raqami ostida keladi. 5-g'azal ("*Sinsa ko'nglumda o'qung*") Toshkent nusxasida №24, Parij nusxasida №23, Tehron nusxasida №24 tartib raqamlarida uchraydi. 6-g'azal ("Ey, etti manzar tarhig'a...") "Badoyi' ul-bidoya"ning biz qiyoslayotgan nusxalarining hech qaysisida uchramaydi.

"Ilk devon"dagi №7, 30, 31, 34, 39 g'azallar qiyosi yuqorida keltirilganini hisobga olib, "Ilk devon" va "Oqquyunli muxlislar devoni"da mavjud bo'lgan keyingi g'azallarni "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij, Tehron va Toshkent nusxalari bilan tartib raqamlariga ko'ra qiyoslashni endi ixchamlashtirib ro'yxat tarzida keltiramiz (1-tartib raqami "Ilk devon"ga, 2, 3, 4-lari tartib bilan Toshkent, Parij, Tehron nusxalariga va 5 – "Oqquyunli muxlislar devoni"ga tegishli¹):

№10 – (*Necha ko'nglum...*) – №23 – №22 – №22.

№14 – (*Agarchi yo'q...*) – №32 – №30 – №23 – №9.

№19 – (*Mir'oti husnang...*) – №42 (faqat BBning Toshkent nusxasida).

№21 – (*Savodi xoli aning...*) – №20 (faqat Toshkent nusxasida).

№28 – (*Manga ne manzilu...*) – №11 (BBning har uch nusxasida).

№32 – (*Kimsa hargiz...*) – №41 (faqat Toshkent nusxasida).

№41– (*Ham ramad tekkan...*) – №12 (BBning har uch nusxasida).

№47– (*Zor jismimg'a...*) – BBning Toshkent nusxasida yo'q. №40, №42.

¹ Bundan buyon matnni soddalashtirish uchun "Ilk devon"ni ID, "Oqquyunli muxlislar devoni"ni OMD, "Badoyi' ul-bidoya"ni BB deb belgilab olamiz.

№48 – (*Ne navo soz aylagay...*) – №52, №46, №46.

Demak, “Ilk devon”dagi qofiyasi “alif” harfiga tugaydigan gʻazallar 49ta boʻlib, ulardan 19tasi (№2, 3, 4, 5, 7, 10, 11, 14, 19, 21, 28, 30, 31, 32, 34, 39, 41, 47, 48) “Badoyi’ ul-bidoya”ning turli nusxalarida qaytariladi, qolgan 1, 8, 9, 11, 12, 13, 15, 16, 17, 18, 20, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 29, 33, 35, 36, 37, 38, 40, 42, 43, 44, 45, 46, 49 - tartib raqamli gʻazallar esa (30ta gʻazal) “Badoyi’ ul-bidoya”ning har uch nusxasida ham uchramaydi.

Ana endi rejamizdagi **6-devon** “Navodir un-nihoya”ning Abdujamil kotib koʻchirgan nusxasiga eʼtibor qaratamiz. “Ilk devon”ning “Badoyi’ ul-bidoya” nusxalarida uchramaydigan 30 gʻazalidan nechitasi va qaysilari keyingi devon tarkibida uchraydi?

№15 – №34 – *Chogʻirgʻa tushkali yoʻqtur qaroru xob manga,*

№18 – №19 – *Telba koʻnglum yorasi hadsiz tani uryon aro,*

№19 – №25 – №42 - *Mirʻoti husnung tiyradur bu ohi dardolud aro,*

№21 – №27 – №20 - *Savodi xoli aning laʼli ruhparvar aro*

№29 – №40 – *Ul oy bu telba bila yormu ekin, oyo,*

№32 – №43 – №41 - *Kimsa hargiz koʻrmadi chun ahli davrondin vafo,*

№35 – №44 – *Oʻtgʻa solgʻil sarvni, ul qaddi mavzun boʻlmasa,*

№40 – №16 – *Xilʼatin aylabmudur ul shoʻxi siymnibar qaro,*

№42 – №37 – *Davr el sogʻarini qildi mayi nob toʻla,*

№44 – №12 – *Gul uzra xatti mushkin birla to qilding raqam paydo,*

№49 – №8 – *Mahvasho, sarvqado, lolaruxo, siymtano.*

Shunday qilib maʼlum boʻlmoqdaki, “Ilk devon”dagi qofiyasi “alif” harfiga tugaydigan 49ta gʻazaldan 11tasi “Navodir un-nihoya”ga oʻtgan ekan. Eng qizigʻi, 11 gʻazaldan 3tasi “Badoyi’ ul-bidoya”ning Toshkent nusxasida ham uchraydi. 19 gʻazal yoniga yana 8ta qoʻshilsa, 27ta boʻladi va “Ilk devon”dagi keyingi ikki devonga kirmay qolgan gʻazallar soni 22taga tushadi.

“Oqquyunli muxlislar devoni”da “alif” harfiga tugaydigan gʻazallar 21ta boʻlib, ulardan 6tasi (№5, 9, 11, 12, 13, 19) “Ilk devon”ning 39, 14, 30, 10, 4, 7 - tartib raqamli gʻazallarini takrorlaydi. “Be” harfiga tugaydigan gʻazallar “Ilk devon”da 37ta, “Oqquyunli muxlislar devoni”da 12ta, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasida 23ta, Tehron nusxasida ham 23ta, Toshkent nusxasida 25ta.

“Ilk devon”dagi “Be” harfiga tugaydigan 37 gʻazaldan 18tasi BBning Toshkent nusxasida, 17tasi Parij va Tehron nusxasida uchraydi, yana 10ta gʻazal “Navodir un-nihoya”ga oʻtgan. “Oqquyunli

muxlislar devoni”dagi 12 g’azalning 10tasi ham “Ilk devon”dagilar. “Badoyi’ ul-bidoya”ning har uch nusxasida esa 12ta g’azalning barchasi uchraydi.

“Te” harfiga tugaydigan g’azallar “Ilk devon”da 7ta, “Oqquyunli muxlislar devoni”da 3ta, “Badoyi’ ul-bidoya”ning har uch nusxasida 12ta.

“Se”dan “Xe”gacha “Ilk devon”da 10ta, “Oqquyunli muxlislar devoni”da 6ta, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasida 18ta, Tehron nusxasida ham 18ta, Toshkent nusxasida 20ta.

“Dol”dan “Zol”gacha “Ilk devon”da 10ta, “Oqquyunli muxlislar devoni”da 6ta, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasida 9ta, Tehron nusxasida ham 9ta, Toshkent nusxasida 11ta.

“Re” harfiga tugaydigan g’azallar “Ilk devon”da 29ta, “Oqquyunli muxlislar devoni”da 38ta, “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasida 111ta, Tehron nusxasida 99ta, Toshkent nusxasida 110ta.

“Te”dan “Re”gacha “Ilk devon”dagi 56ta g’azaldan 14tasi (№87, 88, 89, 90, 91, 118, 124, 125, 131, 134, 138, 139, 140, 143) “Badoyi’ ul-bidoya”ning Toshkent (№80, 82, 83, 84, 85, 207, 189, 209, 228, 201, 184, 205, 122, 202) va Parij nusxalarida (№73, 75, 76, 77, 78, 197, 178, 199, 216, 190, 173, 194, 111, 192) 14tadan, Tehron nusxasida esa 12ta (№77, 73, 78, 79, 80, 183, 191, 170, 151, 188, 149, 196), 11tasi “Navodir un-nihoya”da (№92-100, 103-130, 108-142, 114-143, 116-190, 117-171, 120-164, 123-209, 133-167, №131 - 183 va 143-176 har ikki devonda qaytariladi). Bu orada “Oqquyunli muxlislar devoni” bilan “Ilk devon”dagi g’azallarning kesishgan joyi faqat 2ta (№87 – 35, №89 – 36).

“Badoyi’ ul-bidoya”ning har uch qadim qo’lyozmalarini qiyoslaganda “Re” harfiga tugaydigan g’azallar oxirigacha Toshkent nusxasida faqat quyidagi 3 g’azal uchramaydi:

№45 – *Zor jismimg’a xadanging zahmidin ortar navo,*

№164 – *Ul quyoshkim saltanat avji uza tobon erur,*

№188 – *Vaslidin gar bargi guldur hajrdin gar no’gi xor.*

Toshkent nusxasida mavjud, ammo Parij va Tehron nusxalarining har ikkida hanuz uchramaydigan g’azallar birmuncha ko’proq (raqamlash 1-jild bo’yicha berildi):

№20 – *Savodi xoli aning la’li ruhparvar aro,*

№30 – *Ul malohat kunji hajrida buzug’ maskan manga,*

№38 – *Ko’zlarimda ishqdin suv erdi uyqu o’rnida,*

№40 – *Yor aksi chunki aylar jilva may ko’zgusida,*

№41 – *Kimsa hargiz ko’rmadi chun ahli davrondin vafo*

№42 – *Mir’oti husnung tiyradur bu ohi dardolud aro,*

- №58 – *Eyki ruxsoring erur xo'bu xating ham marg'ub,*
№59 – *Tiyg' ila xoki tanimni har tarafyording kelib,*
№97 – *Girih-girih chu tugarsen — etar ayog'ingga soch,*
№98 – *Ko'rub dardim, tarahhum qilmading hech,*
№112 – *Dudi oh ermas ko'ngul uyin qaro qilg'onda dard,*
№116 – *Buki har yondin ko'kartibdur yuzumni koji dard.*

Jami 12ta g'azal.

Endi Parij va Tehron nusxalarini o'zaro qiyoslaydigan bo'lsak, quyidagicha manzara hosil bo'ladi. Avvalo MAT 1-jildidagi dastlabki 140 g'azalning 128tasida har ikki qo'lyozmada tartib raqamlari o'zgarsa-da, g'azallar o'zgarishsiz qaytariladi. Ammo 141-g'azaldan boshlab Tehron nusxasidagi g'azallar soni Parij nusxasidan ortda qola boshlaydi, ya'ni quyidagi g'azallar Tehron qo'lyozmasida umuman uchramaydi:

- №141 – *Ul malohat sham'idin mundoqki jismim yonadur,*
№153 – *Ikki ko'zumki dardu balo jo'yboridur,*
№156 – *Qatlima tiyg' o'lgalikim charx ishi ozordur*
№162 – *Chiqti ov azmig'a javlon aylab ul chobuksuvor,*
№165 – *Telba ko'nglum, vahki, har soat birov sori borur,*
№189 – *Bag'rimni tiyg'i hajar ila yuz pora qildilar,*
№190 – *Ulki, yuz mendek jahonda volavu shaydosi bor,*
№193 – *Kecha har kavkab ko'rungach, yodima oyim kelur,*
№196 – *Ikki zulfung xasta ko'nglumga qarong'u kechalar,*
№199 – *Kunduz ul xurshidi raxshondin ko'zumda yosh erur,*
№202 – *Ul o'tlug' chehrag'a zarbaft xil'at ne yaroshibdur,*
№205 – *Bukim, ko'ngulning ul oysiz ne sa'b holati bor,*
№207 – *Tovushkim uy toshidin kelsa, dermen bag'ri toshimdur*
№210 – *Chun meni majnun boshin atfol toshi sindurur,*
№212 – *Sham' ul oy hajrida har tun kuymagim ogohidur,*
№216 – *Birov g'ami yana ko'nglumga qo'zg'olon soladur,*
№218 – *Bargi nay to'n ichida nol kibi beli nihondur,*
№219 – *Har kishikim, bir so'z ul badmehrdirin taqriri bor.*
№222 – *Beli-yu og'zi ko'rur-ko'rmasda chun pinhon erur,*
№223 – *Yuza gulchehra soqiyning tarab hukmig'a tug'rodur,*
№224 – *Dud yanglig' dema ko'nglum ohi dardoludidur,*
№227 – *Orazing husnun fuzun qilg'on hiloliy qosh erur,*
№228 – *Netib tuz etay qadkim — jismimda shikanlardur,*
№230 – *Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar,*
№231 – *Boshtin-ayog' yalang tanim uzrakim toza dog' erur.*

Jami 25ta g'azal.

Quyidagi g'azal Tehron qo'lyozmasidagina mavjud va nafaqat

Toshkent nusxasida, balki Parij nusxasida ham uchramaydi:

№164 – *Ul quyoshkim saltanat avji uza tobon erur.*

Xulosa

Ushbu dastlabki qiyosiy tahlillardan qanday xulosalarga kelish mumkin? Avvalo, Tehron nusxasining Parij va Toshkent nusxalaridan farqlanishi borasida. Ko'rdikki, 13-g'azaldan boshlab 1483-yilda ko'chirilgan qo'lyozmadagi she'rlarning tartib raqamlari 1480 va 1486-yillardagilardan keskin farq qila boshlaydi. Shundan taxmin qilish mumkinki, Tehron qo'lyozmasi shoirning tahriri ostida ko'chirilgan emas. Bu farazga aniqlik kiritish uchun, albatta, London nusxasini ko'rish kerak bo'ladi. Ammo Parij va Toshkent nusxalaridagi tartibning umumiyligidan kelib chiqqanda 1482-yilda ko'chirilgan London qo'lyozmasi ham asosan shu tartibga muvofiq bo'lsa kerak, degan tasavvur haqiqatga yaqin tuyuladi.

Ikkinchidan, 1983-yilgi qo'lyozma 1486-yilgi nusxadan ko'ra mundarijasiga ko'ra (g'azallar tartibiga emas) 1980-yilga nusxaga yaqin turadi (dastlabki 140 g'azalda to'liq mos keladi).

Uchinchidan, 141 g'azaldan boshlab, to 232 g'azalgacha Tehron nusxasida Parij nusxasidan 25 g'azal kam uchrashi 1983-yilgi qo'lyozmaning Parij nusxasidan emas, balki hozir bizning qo'limizda mavjud bo'lmagan 1980-yilgi London nusxasidan ko'chirilganlik ehtimolini kuchaytiradi.

To'rtinchidan, Parij nusxasidagi 129-(MAT 1-jildida 141) g'azaldan to 218- (MAT 1-jildida 232-) g'azalgacha Tehron nusxasiga kiritilmagan 25ta she'rdan quyidagi 16tasi keyinchalik "Navodir un-nihoya" tarkibiga kiritilgani ma'lum bo'ldi (1-raqam MAT 1-jildi bo'yicha, 2-raqam 746-qo'lyozmada, 3-raqam "Navodir un-nihoya"da):

№153 – №141 – №201 – *Ikki ko'zumki dardu balo jo'yboridur,*

№156 – №144 – №188 – *Qatlima tiyg' o'lgalikim charx ishi ozordur*

№193 – №179 – №236 – *Kecha har kavkab ko'rungach, yodima oyim kelur,*

№196 – №182 – №182 – *Ikki zulfung xasta ko'nglumga qarong'u kechalar,*

№199 – №185 – №237 – *Kunduz ul xurshidi raxshondin ko'zumda yosh erur,*

№202 – №188 – №208 – *Ul o'tlug' chehrag'a zarbaft xil'at ne yaroshibdur,*

№205 – №192 – №176 – *Bukim, ko'ngulning ul oysiz ne sa'b*

holati bor,

№207 – №193 – №189 – *Tovushkim uy toshidin kelsa, dermen bag'ri toshimdur,*

№210 – №196 – №241 – *Chun meni majnun boshin atfol toshi sindurur,*

№212 – №198 – №207 – *Sham'ul oy hajrida har tun kuymagim ogohidur,*

№216 – №202 – №205 – *Birov g'ami yana ko'nglumga qo'zg'olon soladur,*

№219 – №205 – №173 – *Har kishikim, bir so'z ul badmehrdin taqriri bor.*

№222 – №208 – №242 – *Beliyu og'zi ko'rar-ko'rmasda chun pinhon erur,*

№224 – №210 – №210 – *Dud yanglig' dema ko'nglum ohi dardoludidur,*

№228 – №214 – №216 – *Netib tuz etay qadkim — jismimda shikanlardur,*

№230 – №216 – №183 – *Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar.*

Jami: 16 g'azal.

Bunga qo'shimcha MAT 1-jildidagi №230 bilan №277 orasida yana Parij nusxasida mavjud, ammo Tehron nusxasiga kiritilmagan quyidagi g'azallarni ham qo'shsak (1-raqam MAT 1-jildi, 2-raqam Parij nusxasi, 3-raqam "Navodir un-nihoya"):

№244 - №229 - №244 - *Bo'ldi shomu jong'a ul oy hajridin qayg'u hanuz,* №248 - №233 - №244 - *Sarvqadlar agar biru gar yuz,*

№250 - №235 - №272 - *Ul pari ko'yida men devonani band aylangiz,*

№253 - №238 - №259 - *Onsiz o'lmoq erur o'lmoq jonsiz,*

№266 - №251 - №286 - *Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,*

№269 - №254 - №285 - *Gar meningdur yor lo'li bo'lsa shoh etmon havas,*

№273 - №257 - №319 - *Yozuqsiz, jurmsiz bedod etar fosh,*

№275 - №260 - №329 - *Manga emdi sarz ila gul muddaosi qolmamish.*

Jami: 8 g'azal.

Ushbu ro'yxatga «*Badoyi' ul-bidoya*»ning Parij nusxasi» maqolasida keltirilgan 76 g'azalni ham qo'shsak, ma'lum bo'ladiki, 746 inventarraqamli 1980-yildako'chirilgan shoirningo'ztashabbusi

bilan ilk bor shakllantirilgan protodevondan 16+8+76=100ta g'azal 1487-yili Abdujamil kotib tomonidan ko'chirilgan "Navodir un-nihoya" devoniga ko'chib o'tgan ekan.

Beshinchidan, 20 jildlikning oxiriga ilova qilingan «Rasmiy devonlarga kirmagan she'rlar» rukni ostida keltirilgan g'azallarning aksariyati yangi topilgan devon qo'lyozmalari tarkibida mavjud ekanligi ma'lum bo'lib bormoqda. Masalan, yangi topilgan Tehron qo'lyozmasida "Badoyi' ul-bidoya"ning Parij va Toshkent nusxalari hamda MAT 1-jildida uchramagan bir qator she'rlar ko'zga tashlandiki, quyida ular haqida ma'lumot keltiramiz (1-raqam Tehron nusxasi, 2-raqam OMD).

№158 – №58 – *Sensizin, ey umr, jismim ruhdin begonadir,*

№224 – №92 – *Ulki shakkardek labina to'tiyi jondir magas,*

№309 – №106 – *Garchi elga jon bag'ishlar husni ruhafzoling'ing,*

№489 – №179 – *Bu yomon tole' ayirdi yorni men zordin,*

№532 – №182 – *Sipehr-u mehr yuzingdin nishonadur barcha,*

№608 – №220 – *Munchakim har dam etar ko'nglumga hajringdin g'ame,*

№610 – №221 – *Falak jafosidin ul oyg'a bo'lmasun darde.*

Tehron nusxasidagi 224, 309, 489, 532, 610 tartib raqamli g'azallar MAT 20-tom ilovasida uchraydi. Ammo №158 va №608 u yerda ham uchramaydi.

Yana bir g'azal faqat Tehron nusxasi va 20-tomda uchraydi:

№504 - *Bog' aro chiqmas xiromon sarvi ozodim yana,*

490-tartib raqamli g'azal esa faqat Tehron nusxasidagina uchraydi:

Necha kim ko'zdin yiroqtur qadding ey, siyminbadan,

Gar yaqin boqsam aliftek rost jonim ichrasan.

Dersan ul guldand xabar de, pirahan chok aylama,

Chun otin tutting qolurmu chok bo'lmay pirahan.

Ul mo'g'ulchin ko'zlaring bodomidin mushki Xito

Ko'hu sahroni kezib istarman og'uyi Xo'tan.

Garchi sen yoqting nazarni, jonni kim oldi desam,

Noz ilan boqib tabassum aylabon aytur: «Qachon?»

Chizsa suratgar o'shal oy suratini devor uza,

Chun musavvirdin namudor o'lg'usi bir pirahan.

Oltinchi va eng asosiy xulosa shundan iboratki, 6 devon muqoyasasiga biz asos qilib olgan "Badoyi' ul-bidoya"ning 1483-yili ko'chirilgan Tehron qo'lyozmasi oldingi maqolalarimizda olg'a surilgan g'oyani, ya'ni "Badoyi' ul-bidoya"ning 1480-yili ko'chirilgan

Parij nusxasi devon tuzish bo'yicha shoirning ilk tajribasi bo'lib, keyincha ushbu variant ijodkor tomonidan tubdan isloh qilingan va biz bugun tasavvur qilgan "Badoyi' ul-bidoya" devonining haqiqiy mundarijasi 1482-yili ko'chirilgan, bugungi kunda Buyuk Britaniyada saqlanuvchi qo'lyozmadan boshlanadi, deb bildirilgan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. Tehron qo'lyozmasi shoir topshirig'i va kuzatuv ostida ko'chirilmagan, bunday xulosaga kelishimiz sababi Parij va Toshkent nusxalari uchun umumiy bo'lgan tartib Tehron nusxasida saqlanmaganligidir. Ammo Toshkent nusxasidan oldin va Parij nusxasidan keyin London nusxasiga tayangan holda tuzilgani aniq.

Alisher Navoiyning lirik merosi matnshunosligi yo'nalishida oxirgi yillarda olib borgan izlanishlarimiz natijasida muhim bir xulosaga kelindi. Ma'lumki, Hamid Sulaymon o'z davrida shoir hayot paytida ko'chirilgan qator mo'tabar qo'lyozmalar matniga tayangan holda shoir lirik merosini yaratilish davriga ko'ra 4 bosqichga ajratgan edi: 1) Yoshlik lirikasi – 1465-yilda, shoir 24 yoshga to'lgan paytda davrning mashhur xushnavisi Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan "Ilk devon"dagi she'rlar asosida; 2) Yigitlik davri lirikasi – Husayn Boyqaro tavsiyasi bilan shoir o'zi tuzgan "Badoyi' ul-bidoya" devoni asosida; 3) O'rta yosh lirikasi – shoir o'zi tuzgan ikkinchi devon – "Navodir un-nihoya" asosida; 4) Qarilik davri lirikasi – "Xazoyin ul-maoniy" devonlari tarkibidagi oldingi devonlarga kirmagan she'rlar asosida.

O'tgan asrda zabardast navoiyshunos ustoz erishgan yutuqlarni bugungi qo'lga kiritilgan yangiliklarga tayangan holda jiddiy isloh qilishga to'g'ri keladi. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "Navodir un-nihoya" devoni mundarijasi aslo "Badoyi' ul-bidoya" devoni yaratilgandan keyingi shoir ijodidan darak bermas ekan. Aslida, devon tuzish harakatini boshlagandayoq Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlari yozilguncha bo'lgan davrda o'zi yaratgan asarlar bir devonga joy bo'lmasligini bilgan hamda "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" nomlari bilan 2 devon tuzishni rejalashtirgan. Shoir, dastlab, birinchi devonga ko'proq kichik hajmli she'rlarni kiritib, kattaroq hajmdagilarini (tarje'band, muxammas, musaddas kabilarni) ikkinchisiga qoldirmoqchi bo'lgan. 1480-yilgi Parij qo'lyozmasi shundan darak beradi. Ammo keyincha fikri o'zgargan va 1482-yilgi London qo'lyozmasi vujudga kelgan. Bizning nazarimizda, bunga asosiy sabab "Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast..." tarjibandining yozilishi bo'lgan. Bu asar "Ashraquat" g'azali bilan ajib bir uyg'unlik hosil qilib, Alisher Navoiy o'z qo'li bilan

tuzgan birinchi devoniga g'oyaviy-mazmuniiy mukammallik baxsh etgan. Nihoyat, shoir ilk lirik majmuasidan to'liq qoniqlash hosil qilib, ko'nglida shakllanayotgan epik ko'lamni amalga oshirishga astoydil kirishgan.

Alohida g'oyaviy-mazmuniiy mukammallik kasb etgan ushbu devon o'z davrida keng doirada mashhurlik kasb etib, undan u yoki bu darajada juz'iy o'zgarishlar bilan, turli janrlardagi yangi yozilgan she'rlarni qo'shish bilan ko'plab nusxalarda ko'chirilgan va ular dunyoning turli mintaqalariga tarqab ketgan. Ammo buyuk alloma san'atkor xayolida shakllanayotgan yangi-yangi g'oyalarni ro'yobga chiqarish bilan band bo'lib, boshlanishda rejalashtirgan ikkinchi devonni ham mukammal tuzishga ko'p rag'bat qilmagan. Balki "Xamsa" yakunlangach, Abdujamil kotib yoki boshqa bir yaqin inson ikkinchi devon rejasini eslatgan bo'lsa, shoir bu yumushni ishonchli kotibiga topshirib qo'yaqolgan bo'lishi ham mumkin. Natijada ikkinchi devon birinchidek e'tibor bilan tuzilmagan va birinchidek shuhrat ham qozonmagan. Qolaversa, bu davrga kelib yangi yozilgan she'rlar hisobidan hajman ham o'ta kengayib ketgan. Amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugun qo'limizda mavjud Abdujamil kotib tuzgan "Navodir un-nihoya" devoni o'tgan asrda ustoz Hamid Sulaymon olg'a surgan g'oyani – shoir lirik merosini 4 davrga bo'lib o'rganish va shoir o'zi tuzgan ikkinchi devon – "Navodir un-nihoya" asosida uchinchi davr – **O'rta yosh lirikasini** alohida ajratish fikrini XXI asr dastlabki manbashunoslik tadqiqotlari mutlaqo tasdiqlamadi. Qiyosiy tahlillar "Navodir un-nihoya"ning shoir hayot paytida ko'chirilgan bugungi mavjud qo'lyozmasi ijodkorning turli yillarda, jumladan, shoir o'z qo'li bilan tuzgan birinchi devonga kiritilgan she'rlar bilan bir davrda yaratilgan she'rlar bilan qorishib ketganligi aniq ma'lum bo'ldi. Alisher Navoiy o'zining lirik merosini tartibga solish masalasiga keyinroq yana qaytdi – endi 4 devondan iborat "Xazoyin ul-maoniy"ni yaratdi. Mana shu ulkan majmuaning yaratilishini shoir lirik merosini davrlashtirishdagi uchinchi bosqich deb qabul qilish mumkin. Albatta, bu borada uzil-kesil xulosaga kelish uchun "Badoyi' ul-bidoya"ning bizga ma'lum bo'lgan shoir hayot paytida ko'chirilgan barcha nusxalarini qiyoslash kerak bo'ladi.

Adabiyotlar

- Имомназаров, М. 2018. "Бадойиъ ул-бидоя"нинг Париж нусхаси."
Ўзбек тили ва адабиёти 1: 16 – 24.
- Имомназаров, М. 2017. "Алишер Навоий лирик мероси

- матншунослигининг долзарб масалалари.” *Алишер Навоий ва XXI аср*, Шухрат Сирожиддинов муҳаррирлигида, 6 – 10. Тошкент: Тамаддун.
- Имомназаров, М. 2019. “XXI аср навоийшунослиги: методология муаммолари.” *Алишер Навоий ва XXI аср*, Шухрат Сирожиддинов муҳаррирлигида, 13 – 19. Тошкент: Тамаддун.
- Имомназаров, М. 2018. “Уч девон муқоясаси.” *Алишер Навоий ва XXI аср*, Шухрат Сирожиддинов муҳаррирлигида, 12 – 17. Тошкент: Турон-иқбол.
- Турдиалиев, А., Эркинов, А. 2018. “Бадойиъ ул-бидоя”нинг Навоий даврида қўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси.” *Алишер Навоий ва XXI аср*, Шухрат Сирожиддинов муҳаррирлигида, 57 – 62. Тошкент: Турон-иқбол.

The Comparison of the six Diwans (poetry)

(Based on the newly discovered the copy of Tehran
of “Bada'i al-bidaya”)

Muhammadjon Imomnazarov*

Abstract

Researching the life and works of Alisher Navoi, as well as revealing the content of his works are always a difficult and crucial task. It is obvious that such a hard task cannot be accomplished without the researches related to the study of manuscript and textual studies. Alisher Navoi is one of the unique poets that the manuscripts of his works have come down to us completely. In the event, the text of Navoi' works has not been collected perfectly. In particular, it is still the most important to carry out a textual study of the lyrical heritage of Alisher Navoi.

* *Muhammadjon Imomnazarov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Oriental Studies, Department of Foreign Oriental Literature and Comparative Literature.

e-pochta: imomnazarovm@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-6959-3970

In this article, the six diwans (poetry) of Alisher Navoi are analysed comparatively, including “Ilk devon”, Oqquyunli muxlislar devoni”, the first pro-diwan of “Bada’i al-Bidaya” (the copy of Paris), the copy of Tashkent that was copied in the poet’s life and considered the last version known to us, the copy written by Abdujamil Katib that was published as the second volume of “The complete works of Alisher Navoi”, and a newly discovered the copy of Tehran. The composition and structure of these diwans (poetry) are compared, providing the necessary conclusions, as well as the most important views are expressed on the periodization of Navoi’s poetry.

Key words: *Alisher Navoi, comparison, diwan (poetry), interpretation, manuscript, text, ghazal.*

References

- Imomnazarov, M. 2018. “Badoyi’ ul-bidoya”ning Parij nusxasi.” *O‘zbek tili va adabiyoti* 1: 16 – 24.
- Imomnazarov, M. 2017. “Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligining dolzarb masalalari.” *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 6 – 10. Toshkent: Tamaddun.
- Imomnazarov, M. 2019. “XXI asr navoiyshunosligi: metodologiya muammolari.” *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 13 – 19. Toshkent: Tamaddun.
- Imomnazarov, M. 2018. “Uch devon muqoyasasi.” *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 12 – 17. Toshkent: Turon-iqbol.
- Turdialiev, A., Erkinov, A. 2018. “Badoyi’ ul-bidoya”ning Navoiy davrida ko‘chirilgan va yangi aniqlangan sanali oltinchi qo‘lyozmasi.” *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 57 – 62. Toshkent: Turon-iqbol.

“Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” to‘plamida Mutrib she‘rlari

Sohiba Madirimova*

Abstrakt

“Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” to‘plami Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari lirik asarlarini o‘zida jamlagan yirik manba hisoblanadi. Majmua shoh farmoniga binoan XIX asrning ikkinchi yarmida Tabibiy tomonidan tuzilgan. Unda Tabibiyga zamondosh bo‘lgan ijodkorlar she‘rlaridan ham namunalar kiritilgan. O‘z davri adabiy muhiti haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi mazkur manba hozirda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 1134-raqami bilan saqlanadi. Majmuaning boshqa majmualardan farqi muxammas janridagi she‘rlardan tarkib topgani bilan ajralib turadi. Ijodiy merosidan eng ko‘p namunalar kiritilgan shoirlardan biri Muhammad Hasan devon Hoji Tabib o‘g‘li Mutrib Xonaxarobdir.

Maqolada Mutrib Xonaxarobning ustoz shoirlar Ogahiy hamda Feruz g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari tahlil etilgan. Mutribning qo‘lyozma devon nusxalarida uchramaydigan muxammaslarining badiiy xususiyatlari o‘rganilgan. Unda shoir g‘azalining vazn, mazmun kabi qirralarni saqlashi va kiritgan yangiliklari, mazmundagi tadrijiylik rivojiga e‘tibor qaratilgani birlamchi manbalar asosida dalillangan. Shoirning majmuaga kiritilgan muxammas hamda musaddaslari qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan she‘rlari bilan qiyoslanib, matnshunoslik hamda manbashunoslik aspektida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma, majmua, masnaviy, g‘azal, she‘r, muxammas, manba.*

* *Madirimova Sohiba Maxmudovna* - tayanch doktorant (Ph.D), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrası.

e-pochta: madirimova@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

Kirish

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 1134-raqamli qo'lyozma mumtoz adabiyotimiz tarixi uchun qimmatli manbalardandir. XIX asrning ikkinchi yarmida kitobat qilingan ushbu majmuada XIX asr Xorazm adabiy muhiti shoirlarining lirik asarlar jamlangan. Yana bir muhim jihati, majmuadan o'sha davr shoirlari tomonidan Feruz g'azallariga bog'langan muxammaslar joy olgan.

Rus olimi A.N.Samoylovich 1909-yili Xivaga qilgan ilmiy ekspeditsiyasi to'g'risida yozgan tadqiqotlaridan birida [Samoylovich 1909, 2-29], filologiya fanlari doktorlari M.Yunusov "Komil Xorazmiy" nomli asarida [Yunusov 1960, 37-38], G'.K.Karimov "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida [Karimov 1966, 67], B.Valixo'jayev "XV-XIX asrlar o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan" [Valixo'jayev 1964, 146] hamda F.G'anixo'jayev "Tabibiy tuzgan ikki majmua haqida" [G'anixo'jayev 221-218-betlar]gi maqolalarida bu majmua yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni berganlar. Ushbu majmuaga ko'chirilgan Muhammad Xasan Mutrib she'rlari adabiy manbashunoslik hamda matnshunoslik aspektida o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

"Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy" deb nomlangan ushbu qo'lyozma avvalida qizil siyohda: "Debochayi masnaviyoti muxammasotu majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy doma mulkahu va davlatahu va zayyada umrahu va shavkatahu..." sarlavhasi qo'yilgan. *Bismillohir Rahmonir Rahim*dan keyin hamd, na't va to'rt xalifa vasf etilgan she'rlar berilgan. Ogahiy ta'rifiga bag'ishlangan *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznidagi o'n bir baytdan iborat masnaviy ustoz shoirga ehtirom namunasidir. Muallif ushbu masnaviyda Ogahiyning vasf etar ekan, *zamiri koni suxan* ekanidan so'z ochadi. So'zi dil oynasiga sayqal beruvchi durga tashbeh etiladi. "O'zi balog'atga, so'zi fasohatga ma'dan" bu zot qachon *suxan oshkor aylasa, fazl eli jon nisor qilishini* ta'kidlaydi.

Qo'lyozmada masnaviydan keyin Feruzning Ogahiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari ko'chirilgan. Majmuada, bundan tashqari, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Nozir, Shinosiy, G'ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Niyoziy, Xokiy, Habib, Yusuf, Tabibiy, Rog'ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Umidiy, Totor kabi 33 nafar shoirning avval Ogahiy g'azallariga, keyin Feruz

g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari tartib bilan joylashtirilgan. Ogahiy g‘azallariga bog‘langan ushbu taxmislar, o‘z navbatida, uning o‘zidan keyingi Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari uchun birday ustoz maqomida bo‘lganidan darak beradi. Majmua Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy farmoniga binoan hijriy 1327/1909-yilda Tabibiy tomonidan tuzilgan.

Majmuada Muhammad Hasan devon Hoji Tabibo‘g‘li Mutribning Ogahiy hamda Feruz g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari ham mavjud. Har bir muxammasdan oldin Tabibiy ularga atab yozilgan ikki va to‘rt satrdan iborat masnaviy matnini keltiradi. Barcha 33 nafar shoir she’rlaridan oldin ularning fazilatlarini ochib beruvchi masnaviylar bitilgani ushbu majmuaning tazkira xarakteriga ega ekanini ko‘rsatadi. Masnaviylar matni quyidagicha:

*Biri Mutrib ul zoru Xonaxarob –
Ki, nag‘amotg‘a qilg‘usi irtikob*

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 22^b].

Yoki:

*Qilib Mutrib zoru Xonaxarob,
Bu olam aro mayli changu rubob.*

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 53^b].

*Biri nazm elin Mutribi zor erur –
Ki, sozandayi changu setor erur.*

*Ongo gar xarob o‘lmasa xonasi,
Bu ash‘or bo‘lg‘usi afsonasi.*

[Majmuayi muxammasoti ... 1909, 79^{a/b}].

Mutribning “Xonaxarob” taxallusi bilan ijod qilgani hamda sozandalik qilib, kuy bastalagani haqida so‘z yuritgan Tabibiy yana bir o‘rinda nazmiy asarlar yozish unga shior bo‘lganidan so‘z ochadi. Zehni o‘tkir, o‘ziga ishongan inson ekanini aytadi. Quyidagi baytlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Vale gohi fikri musaddas qilib,
Muni qildi zohir muxammas qilib.
Kelib Mutrib ul zoru Xonaxarob –
Ki, hushu xiraddin erur bahrayob.*

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 101^{a/b}]

*Muni aylamish zohir ul bo xirad –
Ki, fazl ahli ichra erur mu‘tamad.*

Dedi, Mutrib zoru Xonaxarob,

Bu shiorni jahd etib behisob

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 129^{a/b}].

Bobojon Tarroh Xodim ham “Xorazm shoir va navozandalari” tazkirasida shoirning tanbur sozini maromida chala oladigan iste’dod sohibi bo’lgani, olti yarim notani yoddan bilgani, yetti turli ilmni, ya’ni she’riyat, musiqa, kitobat, tabobat, fors-tojik tillarini puxta egallagani, shu bilan birga, so’z bahsida hech bir kishidan yengilmasligi haqida ma’lumot beradi [Bobojon Tarroh 2011, 136-140].

Majmuada Mutribning Ogahiy hamda Feruz g’azallariga bog’lagan 5 ta muxammasi berilgan. Bular O’zFASHIda saqlanayotgan shoir devoni qo’lyozmalarida uchramaydi. Jumladan, shoir Ogahiyning *rajazi musammani solim* (- - V - / - - V - / - - V - / - - V -) vaznida yaratgan “*Jonbaxsh la’ling uzra to xat qildi paydo orazing*” misralari bilan boshlanuvchi g’azaliga taxmis bog’lagan. Muxammasning birinchi bandi quyidagicha:

*Qildi xirad begonasi ko’rgach, nigoro, orazing,
Aylab manga har lahzada mehr oshkoro orazing,
Bazming’a yetkurdi bu tun ming zebu oro orazing,
Jonbaxsh la’ling uzra to xat qildi paydo orazing,
Xurshid uza jam’ ayladi Xizru Masiho orazing*

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 22^b, 23^a].

Shoir Ogahiyning 9 baytli g’azalidan uchinchi hamda oltinchi baytlarini tushirib qoldirib, 7 baytiga taxmis bog’lagan. Ijodkor Ogahiyning *rajazi musammani solim* (- - V - / - - V - / - - V - / - - V -) vaznidagi “Qosh-u ko’zung” radifli g’azaliga ham taxmis bog’lagan. Asarning birinchi bandi quyidagicha:

*Bir g’amzada soldi mango sonsiz yaro qoshu ko’zung,
Jonu dilimg’a yetkurur ming mojaru qoshu ko’zung,
Man xastadin yo topdimu jurmu xato qoshu ko’zung.
Vah, ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qoshu ko’zung –
Kim, bir nazarda soldi o’t jonim aro qoshu ko’zung.*

Mazkur g’azal o’n uch baytdan iborat. Shoir tomonidan yaratilgan taxmis esa yetti banddan tarkib topgan. Ko’rinib turibdiki, g’azalning olti bayti, ya’ni uchinchi, beshinchi, sakkizinchi, o’ninchi, o’n birinchi hamda o’n ikkinchi baytlari shoir tomonidan tushirib qoldirilgan. Mana o’sha baytlar:

*Jonimg’a qo’ydi dog’lar rashk o’tidin xoli labing,
Ko’nglumga yetkurdi tumon dardu balo qoshu ko’zung.*

*Qoshu ko‘zung bedodidin dod aylasam ermas ajab –
Kim, ne jafolar qilmadi oxir mango qoshu ko‘zung.*

*Yo‘qtur mango ishqing aro yurmak tirik imkonikim,
Jonimni yo qaddu yuzung olg‘usi yo qoshu ko‘zung.*

*El qatlini qasd aylabon mastona qilg‘och bir nazar,
Soldi jahong‘a nolayi vo hasrato qoshu ko‘zung.*

*Aylay hayotim naqdini har dam nisoru sadqasi,
Yoshurmog‘il man zordin aylab hayo qoshu ko‘zung.*

*Majlis fazosida usul etgan chog‘i raqqos o‘lub,
Har g‘amzada yuz jon olur, ey mahliqo, qoshu ko‘zung
[Ta‘viz ul-oshiqin 1876, 112^{a/b}, 116^b, 117^a].*

Mutrib Ogahiyning “Orazing” hamda “Qoshu ko‘zung” radifli g‘azallariga taxmis bog‘lar ekan, ustozi g‘azallarining biror so‘zini o‘zgartirmagan. Ammo g‘azalning aksar baytlari tushirib qoldirilgan. Bizningcha, buning sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, shoir Ogahiy tomonidan yaratilgan ushbu g‘azallarning ba‘zi baytlariga har jihatdan muvofiq keluvchi taxmis bog‘lashga jur‘at eta olmagan;

ikkinchidan, shoir tayangan manbada, ya‘ni bayoz, majmua yoki devonlarga ko‘chirilgan variantlardagi qo‘lyozmalarda yuqoridagi baytlar qisqargan holda berilgan bo‘lishi ehtimoli bor;

uchinchidan, shoir g‘azalning o‘zi tanlagan baytlarigagina taxmis bog‘lagan bo‘lishi mumkin.

Feruzning o‘n bir baytli “Ohista, ohista” radifli g‘azaliga bog‘langan taxmisning birinchi bandi:

*Muruvvat ko‘rguzub huro nishon ohista, ohista,
Mayi la‘ling qilib rohat rason ohista, ohista,
Boqib yuz jilva birla har zamon ohista, ohista,
Mango rahm aylab ul shirinzabon ohista, ohista,
Yetushti boshim uzra nogahon ohista, ohista*

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 54^{a/b}].

Ushbu muxammas 1127-raqamli qo‘lyozma majmua tarkibida ham uchraydi. Mazkur manbadagi va 1134-raqamli qo‘lyozmadagi matn o‘zaro qiyoslandi. Shu bilan birga, muxammasga asos

bo'lgan g'azal Feruzning Xiva ichon qal'a muzeyida saqlanayotgan 5884/11(105^a-bet)inventar raqamli qo'lyozma devon hamda Tabibiy tomonidan tuzilgan 1152-raqamli qo'lyozma majmua matni asosida qiyosan tekshirildi. Mutrib muxammasida Feruz g'azalining ba'zi o'rinlari o'zgartirilgani kuzatildi.

G'azalning ikkinchi baytidagi "qilg'ali" so'zi 1127 (57^b-bet), 1134 (54^{a/b}-bet)-raqamli qo'lyozma majmualarga "ayladi" tarzida tahrir etilib ko'chirilgan. Muxammasning ushbu bandi quyidagicha:

*Uzoring gulgul aylab jannatosa o'lgali gulshan,
Tarahhumlar qilib, bilkull bo'lurg'a bu kecha bir tan,
Ko'rub holi xarobim hajr aro ul dilbari purfan,
Firoqida qarorg'on ko'zlarimni **ayladi** ravshan,
Ochib **ruxsorayi** xurshedson ohista, ohista*

[Majmuayi muxammasoti... 1908, 57^b; 1909, 54^{a/b}].

1127-raqamli majmuada "Ochib ruxsorayi" birikmasidagi "ruxsorayi" so'zi "ruxsorani" shaklida ko'chirilgan.

Ushbu g'azalning sakkizinchi baytidagi "Qucharsan, quch" birikmasi 1127 hamda 1134-raqamli "Majmuayi muxammasoti..."ga ko'chirilgan muxammasda "Vagar quchsang" tarzida tahrir etilgan:

*Agar istarsen o'pmaklikni eng jonfizo la'lim,
Qucharsan quch belim engu miyon ohista, ohista
(G'azaliyoti Furuz 1894, 105^a).*

Mutrib muxammasida:

*Agar istarsen o'pmaklikni eng jonfizo la'lim,
Vagar quchsang belim engu miyon ohista, ohista
[Majmuayi muxammasoti... 1908, 57^b; 1909, 54^{a/b}].*

Bu kabi tahrirlar Mutrib tomonidan amalga oshirilganiga shubha yo'q, chunki aksar hollarda shoir yaratgan muxammas misralarining ayrim o'rinlarida matnga o'zgartirish kiritilgan.

Mutrib Feruzning savol-javob shaklidagi *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan "Dedim, ko'zumni ravshan et, mehri jamoling ko'rsotib", deb boshlanuvchi yetti baytli g'azaliga ham taxmis bog'lagan. Taxmisning birinchi bandi quyidagicha:

*Bu ne itob, ul maning dardi nihonim qo'zg'otib,
Yetdim o'larga furqating domida g'am birla yotib,
O'zni nihon etmak nedur, yuz uzra zulfing torqotib,
Dedim, ko'zumni ravshan et, mehri jamoling ko'rsotib,*

Dedi, uzorim o‘tig‘a joning netarsan o‘rtotib.

[Majmuayi muxammasoti... 1908, 23^b-24^a; 1909, 79^{a/b}].

Feruz g‘azalining to‘rtinchi misrasida farq kuzatildi. Ushbu misradagi **sango bergum oni** birikmasi 1134 (79^b-bet)-raqamli qo‘lyozma majmuaga so‘zlar o‘rni o‘zgartirilgan holda ko‘chirilgan.

Dedim, visol ichra labing shahdi maning komim erur

*Dedi, **sango bergum oni** zahri firoq ichra qotib.*

[Majmuayi ash-shuaroyi payravi... 1908, 78^b].

Bag‘rimni qoni hajr aro sahboyi gulfomim erur,

Ishq ichra chekkan nolishim zotingg‘a payg‘omim erur,

Tokim tirikman, halqai zulfing mani domim erur,

Dedim, visol ichra labing shahdi maning komim erur,

*Dedi, **oni bergum sango** zahri firoq ichra qotib.*

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 79^{a/b}].

Xuddi shu muxammas 1127-raqamli qo‘lyozma majmuaga asliyatga muvofiq ko‘chirilgan. Muxammasning to‘rtinchi bandi 1134-raqamli qo‘lyozma majmuaga “Bazm ichra topti shodlig‘ bu lahza **ko‘nglum uyi**” tarzida “ko‘nglumning” so‘zidagi “**ning**” qaratqich kelishigi tushirib ko‘chirilgan. Ushbu muxammas matni 1127-raqamli qo‘lyozma matni orqali tiklandi. Tahrir qilingan band quyidagicha:

*Bazm ichra topti shodlig‘ bu lahza **ko‘nglumning uyi**,*

Sunbulmu atrafshon erur boshingni, jono, gesuyi,

Ketdi ko‘zumdin tiyralig‘ tushgach jamoling partavi,

Dedim, labingni sharbati, shirinmu yo kavsar suyi,

*Dedi, bo‘lurmu har **suyi** obi baqog‘a o‘xshotib.*

[Majmuayi muxammasoti... 1908, 23^b-24^a].

Oxirgi misradagi “suyi” so‘zi 1134-raqamli qo‘lyozma majmuaga “suvni” tarzida ko‘chirilgan.

“Oni bergum sango” birikmasining o‘rni o‘zgarishi asar mazmuniga ta‘sir etmagan. Ammo kotibning e‘tiborsizligi bois “ning” qo‘shimchasi tushirib ko‘chirilishi vaznda saktalikni yuzaga keltirgan.

Nurboy Jabborov tahrirni hajm va ko‘lamiga ko‘ra ikki turga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi: “1) butun matn tarkibiga oid tahrir; 2) matnning alohida qismiga aloqador tahrir” [Jabborov 2014, 28]. Misollardan ham ko‘rinib turibdiki, o‘rganilayotgan manbadagi

tahrirlar asosan matnning alohida qismiga oid. Yuqoridagi g'azalning maqta'siga ham Mutrib tomonidan juz'iy tahrir kiritilgan. Masalan, "Dedim, ko'zungdin o'rgulay Feruzg'a bir bo'sa ber..."ni muxammas misralaridagi "dilso'zg'a", "qunduzg'a", "navro'zg'a" so'zlari mos ravishda "Feruzg'a" tarzida o'zgartirilgan. She'r matni quyidagicha:

*Fosh aylabon mehru vafo man tashnayi dilso'zg'a,
Keldi qoshimg'a cho'lg'anib, sanjob ila qunduzg'a,
Ey Mutribo, emdi do'nub, har bir kuning navro'zg'a,
Dedim, ko'zungdin o'rgulay, bir bo'sa ber Feruzg'a.
Dedi, yuzumni og'ritur har yon xating nishi botib.*

[Majmuayi muxammasoti... 1908, 23^b-24^a; 1909, 79^{a/b}].

Feruzning to'qqiz baytli *rajazi musammani solim* vaznidagi "Labing" radifli g'azaliga Mutrib taxmisining birinchi bandi:

*Tushgach ko'zum qildi mani sargashtayi hayron labing,
Har nuktasida bergusi o'lgan tanimga jon labing,
Aylab oyo ilking tutub qilg'ung mango pinhon labing,
Yoqutdurmu bilmadim yo la'l, ey jonon, labing.
Yo orazing gulzorida bormu guli xandon labing*

[Majmuayi muxammasoti... 1908, 111^b-112^{a/b}; 1909, 101^{a/b}].

Shoir Feruz g'azalining ikkinchi baytidagi "jovidon", "jonon" so'zlarini "tozakim", "hayvon" so'zlari bilan almashtiradi. Masalan,

*La'lingni bir o'pmak bila topdim hayoti **jovidon**,
I'jozi Isomu ekan yo sharbati **jonon** labing.*

[Majmuayi ash-shuaroyi payravi... 1908, 395^a].

*To urg'ali ziynat uchun gulgun yuzingga g'ozakim,
Shavq ichra ko'nglum bulbuli har dam kirib parvozakim,
Ajzu niyoz etgach chog'i san yori sarvinozakim,
La'lingni bir o'pmak bila topdim hayoti **tozakim**,
I'jozi Isomu ekan yo sharbati **hayvon** labing.*

[Majmuayi muxammasoti... 1908, 111^b-112^{a/b}; 1909, 101^{a/b}].

Feruz g'azalining yettinchi bayti ham juz'iy tahrir qilingan. Mutrib "Doim ko'ngulda saqlabon pinhon labingning shavqini" misrasidagi "ning" qaratqich kelishigini tushirib, she'r misralarining birinchi, ikkinchi, uchinchi misralariga mos ravishda "ni" tushim kelishigini qo'llaydi. Masalan:

*Jon ichra tun-kun osradim jonon labingni shavqini,
Aylab dili mahzunima mehmon labingni shavqini,*

*Xavf aylab ag‘yor ahlidin olon labingni shavqini,
Doim ko‘ngulda saqlabon pinhon **labingni** shavqini,
Emdi yetibman o‘lgali o‘ptur mango pinhon labing.*

Nafas Shodmonovning yozishicha: “... matn muallifi harakatdagi voqelikni aks ettirar ekan, muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechiradi. Shu jarayonda u obyektiv va subyektiv sabablar ta’sirida matnning ayrim o‘rinlariga munosabatini o‘zgartirishi va ularga turli hajmlardagi tuzatishlar kiritishi mumkin. Bunday tuzatish va o‘zgartirishlar matnning materiali, yaratilishi, shakllanishi, qurilishi va hokazo tarixiy, badiiy, g‘oyaviy hamda uslubiy jihatlarini o‘rganishga asos bo‘ladi” [Shodmonov 2009, 22]. Garchi majmuadagi Mutrib she’rlarida harakatdagi voqelik aks etmagan bo‘lsa-da, muallif muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechirgani aniq. Matndagi tahrirlar ayni shu ijod jarayoni mahsuli sifatida baholanmog‘i kerak. Shu bois tahrirlar, asosan, matnni mukammallashtirishga xizmat qilgan.

Yuqorida tahlil etilgan muxammaslar O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon hamda asosiy fondlarda saqlanayotgan 2679/II, 903/V, 906/VII raqamdagi Muhammad Hasan devon Xoji Tabib o‘g‘li Mutrib qo‘lyozma devonlariga ko‘chirilmagan. 1134 - raqamli qo‘lyozma muxammasot shoir devonlari tuzilgandan bir yil keyin ko‘chirilgan. Vaholanki, ushbu muhammasotlardan biri 1127-raqamli qo‘lyozma hijriy 1326, milodiy 1908-yilda ko‘chirilgan bo‘lsa-da, (2679/II raqamli qo‘lyozma bilan bir yilda ko‘chirilgan, 903/V inventar raqamli qo‘lyozma 1907, 1908, 906/VII raqamli qo‘lyozmaning ko‘chirilgan yili ma’lum emas) yuqoridagi uchta devonga ham kiritilmagan. Ushbu muxammaslar hajmi turlicha bo‘lib, eng kichik hajmdagisi 7 band, eng katta hajmdagisi esa 11 banddan iborat.

1134-raqamli qo‘lyozma muxammasotga ko‘chirilgan ba’zi muxammaslar (Feruzning 7 bandli “Dedim, ko‘zumni ravshan et, mehri jamoling ko‘rsatib...” misrasi bilan boshlanuvchi, 11 bandli “Ohista, ohista”, 7 baytli “Labing”, Ogahiyning “Qoshu ko‘zung” radifli muxammaslari) 1908-yilda ko‘chirilgan 1127-raqamli qo‘lyozma muxammasotda ham bor. Faqat Ogahiyning 7 bandli “Orazing” radifli muxammasigina ushbu qo‘lyozma muxammasotda uchramadi.

Mutribning 2679/II raqamli devoniga kirgan bitta muxammasi va ikkita musaddasi 1134-raqamli majmua tarkibida ham uchraydi. Biroq mazkur she’rlarning ushbu ikki manbadagi matnlari qiyoslanganda, farqlar kuzatildi. Masalan, *Ko‘rgach yuzingni ketdi ilkimdin ixtiyorim...* misralari bilan boshlanuvchi 9 bandli

muxammasning to'rtinchi misrasi devonga: *Bu dam kelib boshimg'a daf' aylagil xumorim...* kabi ko'chirilgan. 1134 inventar raqamli qo'lyozma majmuada esa *Bir tun kelib yonimg'a raf' aylagil xumorim* tarzida tahrir qilingan.

Lug'atda [Navoiy asarlari lug'ati 1972, 523] "Raf' aylamak" birikmasi ikki xil ma'noni anglatadi. 1. Ko'tarish, yuksaltirish; 2. Yo'q qilish. "Daf' aylamak" esa qaytarmoq, rad qilmoq, ketkazmoq, haydamoq ma'nolariga ega [Navoiy asarlari lug'ati 1972, 184]. Muxammas misralarini tahlil qilganda, mazmunan *daf'* so'zi to'g'ri keladi.

Bundan ko'rinadiki, majmuani asl nusxadan ko'chirish jarayonida bu kabi ayrim nozik jihatlar e'tibordan chetda qolgan. Muallif bunday xatoga yo'l qo'ymaydi. Ammo qo'lyozma devonga ko'chirilgan ushbu muxammas matnida ham bir qancha o'rinlarda vazn saktaligi kuzatiladi.

Ikki manbadagi tafovutlar quyidagi jadvalda ko'rsatildi:

1-jadval

No	2679-raqamli qo'lyozma devon	1134 -raqamli majmua
Birinchi banddagi farqlar:		
1/1	<i>Ko'rgach yuzingni ketdi ilkimdin ixtiyorim,</i>	<i>Ko'rgach yuzingni ketdi ilkimdin ixtiyorim,</i>
	<i>Chiqdi falakka, ey sho'x, ishqingda ohu zorim,</i>	<i>Chiqdi falakka, ey sho'x, ishqingda ohu zorim,</i>
	<i>Mag'ruri husning o'lg'och hech qolmadi qarorim,</i>	<i>Mag'ruri husning o'lg'och hech qolmadi qarorim,</i>
	<i>Bu dam kelib boshimg'a daf' aylagil xumorim</i>	<i>Bir tun kelib yonimg'a raf' aylagil xumorim</i>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
Ikkinchi banddagi farqlar:		
2/2	<i><u>Vaslingg'a bermasang yo'l, ey sarvari diloro,</u></i>	<i><u>Soldi xayoli husning boshimg'a turfa g'avg'o,</u></i>
	<i>La'ling zilolin istab ko'nglumda <u>muncha savdo,</u></i>	<i>La'ling zilolin istab, ko'nglumda <u>yuz tamanno,</u></i>
	<i><u>Husning xayoli birla boshimda muncha g'avg'o,</u></i>	<i><u>Hajr ofatidin aylab qaddimni xam mudomo,</u></i>
	<i>Tokay jafo qilursan, tark aylamassan aslo,</i>	<i>Tokay jafo qilursan, kam aylamassan aslo,</i>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		

Uchinchi banddagi farqlar:		
3/3	<i>Fahm aylamassan, ey sho‘x, ishqingda muhtaloman,</i>	<i>Fahm aylamassan, ey sho‘x, ishqingda muhtaloman,</i>
	<i>Kelmasmu emdi rahming, bezori benavoman,</i>	<i>Kelmasmu zarra rahming, bir zori benavoman,</i>
	<i>Tokay tilab visoling shomi sahar gadoman,</i>	<i>Har dam tilab visoling sargashtayi gadoman,</i>
	<i>Vaslingdin, ey sumanbar, bilmon ne deb judoman,</i>	<i>Vaslingdin, ey sumanbar, bilmon ne deb judoman,</i>
Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.		
To‘rtinchi banddagi farqlar:		
4/6	<i>Shavq o‘ti(g‘a) jong‘a yetgach beixtiyor o‘lubman,</i>	<i>Ishq o‘ti jong‘a etgach beixtiyor o‘lubman,</i>
	<i>Gul orazingni bir dam ko‘rmakka zor o‘lubman,</i>	<i>Mehri ruxingni har dam ko‘rmakka zor o‘lubman,</i>
	<i>La‘ling mayini(g‘a) jonon, behad xumor o‘lubman.</i>	<i>Shirin kaloming istab devonavor o‘lubman,</i>
	<i>Shirin kaloming istab ko‘b intizor o‘lubman.</i>	<i>La‘ling mayig‘a jono(n) behad xumor o‘lubman.</i>
Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.		
Beshinchi banddagi farqlar:		
5/8	<i>Sansiz manga tiriklik dahr ichra bir jafodur,</i>	<i>Sansiz manga tiriklik dahr ichra bir jafodur,</i>
	<i>Zebo qading xayoli ko‘nglumga muttakodur,</i>	<i>Sarvi qading xayoli ko‘nglumga muttakodur,</i>
	<i>Baxtim kamolig‘a ham la‘li labing davodur.</i>	<i>Har g‘amza(nga), nigoro, jonu jahon fidodur</i>
	<i>Har g‘amzanga, nigoro, jonu jahon fidodur;</i>	<i>Chun murg‘i ko‘nglum iki zulfunga muhtalodur</i>
Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.		
Oltinchi banddagi farqlar:		
6/7	<i>Chekmak ishim fig‘ondur la‘li ziloling istab,</i>	<i>Tinmay ko‘zumni ashki la‘ling zilolin istab,</i>
	<i>Har lahza iztirobim ikki hiloling istab,</i>	<i>Har lahza iztirobim ikki hiloling istab</i>
	<i>Sorg‘ordi orazim, chun nozik niholim(ng) istab,</i>	<i>Sorg‘ordi rangi ro‘yim, nozik niholing istab,</i>

	<u>Jodu ko'zing tilarda parvona xoling</u> istab,	<u>Qadim duto yuzungni bir dona xolin</u> istab,
Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.		
Etтинchi banddagi farqlar:		
7/5	<u>O'rtar xayoli hajring, ey podshohi xo'bon,</u>	<u>O'rtar xayoli hajring, aylab ko'zumni giryon,</u>
	<u>Kulbam sori qadam qo'y chekdurma ohu afg'on.</u>	<u>Etdi chiqarg'a jonim, ey kokili parishon.</u>
	<u>Vomuq g'amida qoldim, ey kokili parishon.</u>	<u>Muncha jafu qilursan ne muddao sanga jon</u>
	<u>Muncha jafu qilursan, ne muddao sanga jon.</u>	<u>Chekmak ishim tunu kun shavu ichra ohu afg'on</u>
Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.		
Devonga ko'chirilgan muxammasning sakkizinchi bandi majmuaga ko'chirilgan muxammas baytlaridan tubdan farq qiladi.		
8/4	<i>Ko'rma ravo jafoni boshingdin oylonaman,</i>	<i>Yig'larman hasratingdin begona bo'lmag'uncha,</i>
	<i>Tuz ahdinga vafoni qoshingdin oylonaman,</i>	<i>Tiyg'i firoqing ichra vayrona bo'lmag'uncha,</i>
	<i>Etganda, o'n sakizda boshingdin oylonaman,</i>	<i>Ishqingda dahr eliga afsona bo'lmag'uncha</i>
	<i>Ming jilva birla otg'on toshingdin oylonaman,</i>	<i>Rahm aylagil g'amingda g'amxona bo'lmag'uncha,</i>
Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.		
To'qqizinchi banddagi farqlar:		
9/9	<u>Bemori hajring o'ldim, ey xo'b la'li xandon.</u>	<u>Bemori hajring o'ldim, ey lablari durafshon.</u>
	<u>Ko'ksing jahon boshimg'a go'yoki bo'ldi zindon,</u>	<u>Bo'ling(di) jahon boshimg'a go'yoki, bo'ldi zindon,</u>
	<u>Furqat yarosi ichra bu Mutribi xush alhon.</u>	<u>Nolangni qilmag'ilkim, ey Mutribi xush alhon.</u>
	<u>Bu dam kelib, nigoro. dardimga ayla darmon.</u>	<u>Shoyad kelib nigoring. dardingg'a qilsa darmon.</u>
Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.		

Jadvalda muxammasning matn tarixi masalasi to'liq aks etganini ta'kidlash kerak. D.S.Lixachev fikricha: "Matn tarixi tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini qamrab oladi. Asarga aloqador hamma masalalarni faqat to'liq (yoki imkon

darajasida to‘liq) o‘rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma’noda kashf etish imkonini beradi” [Lixachev 2001, 33]. Nurboy Jabborov matn tarixining badiiy asar yaratilishi, kitobat qilinishi va nashr etilishigacha bo‘lgan jarayonlarni nechog‘liq qamrab olishini detallashtirib talqin etadi: “...matn tarixi qo‘lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko‘chirgan kotibning dunyoqarashi va g‘oyasini o‘rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro‘yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo‘lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari tadqiqigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi” [Jabborov 2019, 12]. Bu o‘rindagi tahrirlarni *“asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro‘yobga chiqishi”* omili bilan bog‘lash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Ko‘rinadiki, bir lirik asar doirasida butun boshli bandlar nomuvofiqligi kuzatiladi. Bu hol, avvalo, muxammasning mazmuniga ta’sir etgan bo‘lsa, ikkinchidan, vazn saktaligini keltirib chiqargan. Masalan, devonga ko‘chirilgan muxammas matnida *“Bir zori”* so‘zi *“Bezori”* shaklida, *“...g‘a”* qo‘shimchasining ortiqcha qo‘yilishi, *“Ziloling istab”*, *“Niholing istab”*ga qofiyadosh bo‘lgan birikma muxammasning uchinchi misrasida *“Niholim istab”* kabi berilishi jiddiy xatolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Majmuadagi xatolar: *“Har g‘amza(nga) nigoro jonu jahon fidodur...”* misrasidagi *“g‘amzanga”* so‘zi *“g‘amza”*, *“Bo‘ling(di) jahon boshimg‘a go‘yoki, bo‘ldi zindon...”* misrasidagi *“Bo‘ldi”* so‘zi *“Bo‘ling”* tarzidagi matniy kamchiliklar bilan ko‘chirilgan.

Mutribning *“Mash‘ali bazmima husnini balosini ko‘rung...”*, *“Gulshan ichra jilva-u yuz nozi izhor ayladi...”* misralari bilan boshlanuvchi musaddaslari matni 2679/II raqamli qo‘lyozma devon hamda 1134-raqamli qo‘lyozma majmua asosida qiyosiy o‘rganildi.

Ushbu she’rlar matni qiyoslanganda, ular orasida ayrim o‘zgachaliklar kuzatiladi. Jumladan, etti bandli *“Mash‘ali bazmima husnini balosini ko‘rung...”* (Devoni Mutrib 1908, 231^{a/b}-betlar) misrasidagi *“Balosini ko‘ring”* birikmasi majmuaga *“Jilosini ko‘ring”* tarzida ko‘chirilgan. Shu o‘rinda *“Mash‘ali bazmima husnini jilosini ko‘rung...”* varianti mazmunan to‘g‘ri ekanini ta’kidlash kerak. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, kelgusida shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda ushbu musaddas matni 1134 inventar raqamli qo‘lyozma majmuadagi variant asosida tiklanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda *“Gulshan ichra jilva-u yuz noz izhor ayladi...”* misrasi bilan boshlanuvchi musaddas matnidagi tafovutlar keltirildi:

She'r bandi va misrasi	2679 - raqamli qo'lyozma devon	1134-raqamli qo'lyozma majmua
1/1	<i>Qilmadim komim ravo ul yorlig' hangomida (232^b-bet)</i>	<i>Qilmadim komim ravo chun yorlig' hangomida (209^a-bet).</i>
3/1	<i>Doimo ko'rgach o'zin majnunshior aylar ongo...</i>	<i>Dahr eli ko'rgach o'zin majnunshior aylar ongo...</i>
6/3	<i>Ohkim, ehsoni lutf ila dame shod etmayin,</i> <i>Xasta ko'nglumni g'amu hijrondin ozod etmayin,</i> <i>Lablarini kavsaridin qatra xayrod etmayin,</i> <i>Mutribi sargashtani bir jom ila yod etmayin,</i> <i>Do'stlar, ul dilrabo ishq i mani zor ayladi,</i> <i>Rashk tiyg'i jon ila ko'nglumni afgor ayladi.</i>	<i>Ohkim, ehsoni lutf ila dame shod etmayin,</i> <i>Xasta ko'nglumni g'amu hijrondin ozod etmayin,</i> <i>Lablaridin kavsarini qatra xaridor etmayin,</i> <i>Mutribi sargashtani bir jom ila yod etmayin,</i> <i>Do'stlar, ul dilrabo ishq i mani zor ayladi,</i> <i>Rashk tiyg'i jon ila ko'nglumni afgor ayladi.</i>

Ko'rinadiki, "ul" so'zi "chun", "doimo" so'zi esa "dahr eli" tarzida tahrir etilgan. She'rning keyingi "**Lablarini kavsaridin** qatra **xayrod** etmayin" misrasi "majmua"ga "**Lablaridin kavsarini** qatra **xaridor** etmayin" tarzida ko'chirilishi asar mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi. Ayniqsa, "Xaridor" so'zi musaddasning keyingi misralaridagi *shod*, *ozod*, *yod* so'zlariga qofiyadosh sifatida ko'chirilishi mantiqan noto'g'ri.

Umuman, manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, ushbu she'r matni faqatgina 2679/II raqamli manbadagina mukammalroq tarzda uchraydi. 1134-raqamli manbada muxammas va musaddaslar matnida ko'plab vazn, qofiya buzilishi bilan bog'liq nuqsonlar bor.

Ushbu manba qattiq qora karton bilan muqovalangan. Muqova ustiga tushirilgan uchta naqshinkor bezakning yuqori va past qismiga "Amali Muhammad Rahim sahhof 1326" degan unvon tushirilgan. Matn fabrika qog'oziga qora va qizil siyohlarda, nasta'liq xatida, ikki ustun shaklida ko'chirilgan. Har bir sahifaga 17 satr matn joylashtirilgan. O'lchovi 27x17. Majmua 432 betdan iborat,

manbaning boshida va oxirida 4 sahifa bo‘sh qoldirilgan. Qo‘lyozma juda yaxshi saqlangan.

Xulosa

Mutrib Xonaxarobning “Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” to‘plamiga ko‘chirilgan she‘rlari quyidagicha o‘rganildi.

- shoir devon qo‘lyozmalarida uchramaydigan she‘rlar (Ogahiy hamda Feruz g‘azallariga bog‘lagan 5 ta muxammasi) matni;
- shoir devon qo‘lyozmalarida uchraydigan she‘rlar (bitta muxammas va ikkita musaddas) matni.

Mutribning devon qo‘lyozmalarida uchramaydigan she‘rlari 1127 hamda 1134 raqamli qo‘lyozma muxammasotlar matni asosida qiyosiy o‘rganilganda, she‘r matnlarida so‘zlarning o‘zgarishi hamda qo‘shimchalarning tushib qolishi kabi xatolar ko‘zga tashlandi. Shoir devon qo‘lyozmalarida uchraydigan she‘rlar matnida ham bu hol takrorlangan.

“Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy” nafaqat Ogahiy va Feruz ijodini, balki Xorazm adabiy muhitini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan manba hisoblanadi. Jumladan, Mutrib lirik merosini matnshunoslik aspektida o‘rganishda manbaning ahamiyati katta. Ushbu qo‘lyozmadagi Mutrib she‘rlarini O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan boshqa manbalar bilan qiyosiy o‘rganish shoir asarlarining matn tarixi, matn tahriri masalalarini o‘rganishda ham muhim o‘rin tutadi. Majmuadagi matn tahriri bilan bog‘liq faktlar Mutribning ijod laboratoriyasiga chuqurroq kirish, shoirning so‘z ustida ishlash sirlarini o‘rganish, ijodiy ruhiy olamini nisbatan to‘liq kashf etish imkonini berishi jihatidan ham qimmatlidir.

MUTRIBNING OGAHIY VA FERUZ G'AZALLARIGA MUXAMMASLARI

Feruzning “Qoshu ko‘zung” radifli g‘azaliga bog‘langan
muxammas:

قيلدى خرد بيگانه سى كورگاچ نگارا عارضينگ
ايلا ب منگا هر لحظه دا مهر اشكارا عارضينگ
بزميم غه بتكوردى بوتون مينگ زيب آرا عارضينگ
جانبخش لعلينگ اوزرا تاخط قيلدى پيدا عارضينگ
خورشيد اوزه جمع ايلادى خضر مسيحا عارضينگ

*Qildi xirad begonasi ko‘rgach nigoro orazing,
Aylab manga har lahzada mehr oshkoro orazing,
Bazmimg‘a etkurdi bu tun ming zeboro orazing,
Jonbaxsh la‘ling uzra to xat qildi paydo orazing,
Xurshid uza jam‘ ayladi Xizru Masiho orazing.*

باغ ايچرا گلشن گلآرى پژمرده حال شرم دين
قدينگ نى كورگاچ سرونينگ قدى نى دال شرم دين
چرخ اوزره كيم روشن ايماس آى نينگ جمال شرم دين
خورشيد يرگا كيرگوسى هر تون كمال شرم دين
حسن اوجى اوزره جلوه تا قيلدى مصفا عارضينگ

*Bog‘ ichra gulshan gullari pajmurda hol sharmdin,
Qadingni ko‘rgach sarvning qaddi ne dol sharmdin,
Charx uzrakim, ravshan emas oyning jamol sharmdin,
Xurshid erga kirgusi har tun kamol sharmdin,
Husn avji uzra jilva to qildi musaffo orazing.*

تارتيب عتابينگ كاجى دين نيچه ستم صبح مسا
بولماى وصالينگ شهيددين بير لحظه مقصوديم روا
يغلارمن اوز حاليم بيله يوق مژدا هيچكيم دين منگا
جانينگ اوچون رحم ايلابان كورگوز يوزينگ كيم مھرا را
جانيم غه يتديم ايلابان كورماك تمنا عارضينگ

*Tortib itobing kojidin necha sitam subhu maso,
Bo‘lmay visoling shahdidin bir lahza maqsudim ravo,
Yig‘larman o‘z holim bila yo‘q mujda hech kimdin mango,*

*Jonimg uchun rahm aylabon ko‘rguz yuzingkim, mehr aro,
Jonimg‘a etdim aylabon ko‘rmak tamanno orazing.*

قیلمای قبول عشقینگ ارا بولحظه زاهدنینگ سورین
هرکیز تماشا قیلمادیم حسن اهلی نینگ فتان کوزین
کیلسه قاشیمغه گر پری مندین نهان ایتمای اوزین
کوز سالماغوم جنت ارا غلمان حور آچسه یوزین
کیم مقصدیم کوینگ ارا قیلماق تماشا عارضینگ

*Qilmay qabul ishqing aro bu lahza zohidning so‘zin,
Hargiz tamosho qilmadim husn ahlining fatton ko‘zin,
Kelsa qoshimg‘a gar, pari mandin nihon letmay o‘zin,
Ko‘z solmag‘um jannat aro g‘ilmonu hur ochsa yuzin –
Kim, maqsadim kuying aro qilmoq tamosho orazing.*

سار غاردی رنگیم شوق ارا وه کیم خزان گل کبی
اوتلیغ نوا چیکماک ایرور تونکون ایشیم بلبل کبی
سودای هجرینگ ده بولوب هرکون منگا یوز ییل کبی
رشکیداجان بیتاب ایرور اوت اوزره توشگان قل کبی
جانا پریشان زلفینگا تا بولدی مأوا عارضینگ

*Sorg‘ordi rangim shavq aro vahkim, xazoni gul kibi,
O‘tlig‘ navo chekmak erur tun-kun ishim bulbul kibi,
Savdoyi hajringda bo‘lub har kun manga yuz yil kibi,
Rashkida jon betob erur o‘t uzra tushgan qil kibi,
Jono, parishon zulfinga to bo‘ldi ma‘vo orazing.*

یوقمو مروّت بیر نفس هجران غمیدین اولمیشام
وه کیم خزان غم بیلّه بیردم آچیلمای سولمیشام
قانمای لبینگ نی شهیدین اندوه غمغه تولمیشام
راضی اولومگا عارضینگ هجری غمیدین یولمیشام
اوتورمنی یا تیغ ایلا کورگوز منگا یا عارضینگ

*Yo‘qmu muruvvat bir navas hijron g‘amidin o‘lmisham,
Vahkim, xazoni g‘am bila bir dam ochilmay so‘lmisham,
Qonmay labingni shahdidin anduhi g‘amg‘a to‘lmisham,
Rozi o‘lumga orazing hajri g‘amidin bo‘lmisham,
O‘ltur mani yo, tiyg‘ ila ko‘rguz mango yo, orazing.*

خاکی درینگ ده عجز ایلا عشق اهلی باشین قویغوسی
احسان لطفینگ بولماسا بوتیلّه جاندین تویغوسی

عشق ایچرا مطرب دیک باری عقل خردنی یویغوسی
قیل آگهیغه رچم کیم عشقینگ اوتیغه کویگوسی
تاکیم کوروب دوربیرنظر اول زارشیدا عارضینگ

*Xoki daringda ajz ila ishq ahli boshin qo'yg'usi,
Ehsoni lutfing bo'lmasa bu telba jondin to'yg'usi,
Ishq ichra Mutribdek, bori aqli xiradni yo'yg'usi,
Qil Ogahiyg'a rahmkim, ishqing o'tig'a ko'yg'usi¹,
To kim ko'rubdur, bir nazar ul zori shaydo orazing*
[Majmuayi muxammasoti... 1909, 22^b, 23^a].

Ogahiyning **“Qoshu ko'zung”** radifli g'azaliga bog'langan
muxammas:

بیرغمزده سالدی منگا سانسیزیرا قاش کوزونگ
جان دلیم غه یتکورورمینگ ماجرا قاش کوزونگ
من خسته دین یا تاپدیمو جرم خطا قاش کوزونگ
وه نی بلادور بیلما دیم ای دلربا قاش کوزونگ
کیم بیرنظرده سالدی اوت جانیم ارا قاش کوزونگ

*Bir g'amzada soldi mango sonsiz yaro qoshu ko'zung,
Jonu dilimg'a etkurur ming mojaro qoshu ko'zung,
Man xastadin yo, topdimu jurmu xato qoshu ko'zung.
Vah, ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qoshu ko'zung –
Kim, bir nazarda soldi o't jonim aro qoshu ko'zung.*

بولماق تیلارمن گش جسینینگ گا جانا بلبلینگ
چون هر دم عطر افشان ایروربزمیم دوزلف سنینگ
جانلار غه راحت یتکوروب هر نطق ده شیرین تیلینگ
آلدی قرارو طاققیم آق سیننه نازک بیلینگ
سالدی قرا کون باشیمه ایکی قرا قاش کوزونگ

*Bo'lmoq tilarman gulshani husningga jono bulbuling,
Chun har dam atrafshon erur bazmim du² zulfi saning,
Jonlarga rohat etkurub, har nutqida shirin tiling,
Oldi qaroru toqatim oq siynayi nozik beling,
Soldi qaro kun boshima ikki qaro qoshu ko'zung.*

اول منی پروانه وارایلاب قویاش آسا یوزونگ
چرمیم نیدورناوک اورار هر دم منگا جادو کوزونگ

1 Kuygusi.

2 Ikki.

آیین دلیرلیک بیلہ حسن اوجیدا یکتا اوزونگ
هم یوز اولوک نی تیرگوزور لعلینگ ارا شیرین سوزونگ
هم مینگ تریک نی اولتورور ایلاب جفا قاش کوزونگ

*Avval mani parvonavor aylab, quyoshoso yuzung,
Jurmim nedur, novak urar, har dam mango jodu ko'zung,
Oyini dalbarlik bila husn avjida yakto o'zung,
Ham yuz o'lukni tirguzur la'ling aro shirin so'zung,
Ham ming tirikni o'lturur aylab jaf qoshu ko'zung.*

یوق لِحظه آرامیم منینگ آیدیک جمالینگ کورگالی
تا پدیم حیات تازه لیغ شیرین لبینکدین سورغالی
ایمدی نی دیب قصدا یلاگونگ شوق اوتیغه کویدورگالی
حسن اهلی شاهی سین باری عاشقلا رینگ اولتورگالی
گویاکه جَلاد قیلچ بولمیش سнга قاش کوزونگ

*Yo'q lahza oromim maning oydek jamoling ko'rgali,
Topdim hayoti tozalig' shirin labingdin so'rg'ali,
Emdi ne, deb qasd aylagung shavq o'tig'a kuydurgali,
Husn ahli shohisen bori oshiqqlaring o'lturgali,
Go'yoki jallod qilichi bo'lmish sango qoshu ko'zung.*

تا یوز آچیب عزم ایلادینگ مینگ ناز ایلا گلشن ساری
آلدینگ کونگول آرامین ای فَرخ لقالار سروری
اشک اورنیغه تینمای توکارقان کوزلاریم آبدین بری
من زار حیرانینگ نیچوک دیوانه بولمای ای پری
کیم عقل هوشیم ایلادی مندین جدا قاش کوزونگ

*To yuz ochib arz aylading ming noz ila gulshan sari,
Olding ko'ngul oromin, ey farrux liqolar sarvari,
Ashk o'rnig'a tinmay to'kar qon ko'zlarim obdin bari,
Man zori hayroning nechuk, devona bo'lmay, ey pari –
Kim, aqli hushim ayladi mandin judo qoshu ko'zung.*

شمشیر هجرینگ دین چَرین کونگوم بولوب هر دم فگار
میگون لبینگ نی شوقیدا اولتورگوسی رنج خمار
رچم ایلا گیل عشق اهلیگا ای سروقد نسرین عزار
قاش کوزونگ ایماسی دین بولدی قیامت آشکار
گویاکه عالم آفتی قیلمیش خدا قاش کوزونگ

*Shamshiri hajringdin hazin ko'nglum bo'lub har dam figor,
Maygun labingni shavqida o'lturgusi ranji xumori,
Rahm aylagil, ishq ahliga, ey sarvi qad, nasrin uzor,*

*Qoshu ko'zung, iymosidin bo'ldi qiyomat oshkor,
Go'yoki olam ofati qilmish Xudo qoshu ko'zung.*

عجزنیاز ایلارده ای فیض چلاوات معد نی
مطرب کیبی غم دامیدین بیر لحظه آز ادایت منی
یتدیم اولار گاجان چیکیب کورماک اوچون هر دم سنی
شیرین لبینگ دین آگهی جسمی غه جان بیرگیم آنی
ولتوردی بیرایما قیلیب باقغاچ قیا قاش کوزونگ

*Ajzu niyoz aylarda, ey fayzi halovat ma'dani,
Mutrib kibi g'am domidin bir lahza ozod et mani,
Etdim o'larga jon chekib, ko'rmak uchun har dam sani,
Shirin labingdin Ogahiy jismig'a jon bergim ani,
O'lturdi bir iymo qilib, boqg'och qiyo qoshu ko'zung*
[Majmuayi muxammasoti... 1909, 129^{a/b}].

Feruzning 11 baytli **“Ohista, ohista”** radifli g'azaliga bog'langan muxammas:

مرّوت کور کوزوب حورانسان آهیسته آهیسته
می لعلین قیلیب راحت رسان آهیسته آهیسته
باقیب یوز جلوه بیرله هر زمان آهیسته آهیسته
منگا رحم ایلاب اول شیرین زبان آهیسته آهیسته

*Muruvvat ko'rguzub, huro, nishon ohista, ohista,
Mayi la'ling qilib rohat rason ohista, ohista,
Boqib yuz jilva birla har zamon ohista, ohista,
Manga rahm aylab ul shirin zabon ohista, ohista,
Etushti boshim uzra nogahon ohista, ohista.*

عزارین گل گل ایلاب جنت آسا اولگالی گلشن
ترحم لار قیلیب بالگل بولور غه بوکیچه بیرتن
کوروب حال خرابیم هجر ارا اولدلیری پرفن
فراقیدا قرارغان کوزلاریم نی ایلادی روشن
آچیب رخساره خورشید سان آهیسته آهیسته

*Uzarin gulgul aylab jannatosa o'lgali gulshan,
Tarahhumlar qilib, bikkull bo'lurg'a bu kecha bir tan,
Ko'rub holi harobim hajr aro ul dilbari purfan,
Firoqida qarorg'on ko'zlarimni ayladi ravshan,
Ochib ruxsorayi xurshidson ohista, ohista.*

يوروب غم دشتيدا وه كيم منى سر كشته تونكون خوار
هميشه تيغى غم بيرله حزين كونگوم بولوب افگار
فراق ايچرا كوزوم نى هرتون ايلالاب اويقودين بيدار
ايديم هجرانى دردى شدتيديت اولگوديك بيمار
يتوردى وصلى دين صحت روان آهيسته آهيسته

*Yurub g'am dashtida vahkim, mani sarkashta tun-kun xor,
Hamisha tiyg'i g'am birla hazin ko'nglum bo'lub afgor,
Firoq ichra ko'zumni har tun aylab uyqudin bedor,
Edim hijroni dardi shiddatidin o'lgudek bemor,
Eturdi vaslidin sihhat1 ravon ohista, ohista.*

پرى يانگليغ قاشيم غه ناز ايللا بيرتون كيليب ظاهر
يوزى دين لحظه لحظه لاله رنگ گل آجيب ظاهر
لبيدين جانفزا دلرلار دمدام ساجيليب ظاهر
مسيحا معجزين جانبخش لعلى دين قليب ظاهر
اولوك جسميم غه بيردى تازه جان آهيسته آهيسته

*Pari yonglig' qoshimg'a noz ila bir tun kelib zohir,
Yuzidin lahza-lahza lola rangi gul ochib zohir,
Labidin jonfizo durlar damodam sochilib zohir,
Masiho mu'jizin jonbaxshi la'lidin qilib zohir,
O'luk jismimg'a berdi toza jon ohista, ohista.*

چقار ايردى فلک کا عشق ارا فریاد افغانيم
فراق ايچرا چيکيب رنج مشقت لار حزين جانيم
بحمدالله ترخم قيلغالى يارى قدر دانيم
سوروب دلدارليغ رسمى بيلا حال پریشانيم
قيليب آيينى دلبرليک عيان آهيسته آهيسته

*Chiqar erdi falakka ishq aro faryodi afg'onim,
Firoq ichra chekib ranji mashaqqatlar hazin jonim,
Bihamdillah, tarahhum qilg'ali yori qadrdonim,
So'rub dildorlig' rasmi bila holi parishonim,
Qilib oyini dilbarlik ayon ohista, ohista.*

عتاب بى ده كوزوم نى تولدوروب اشك اورنيغه قاندين
ساليب هر غمزه دا سانسيز يرالار تير مژگاندين

جفاترکین قیلور غه بو نفس من زار حیرانددین
دیدى کای عاشق زاریم ملال درد هجرانددین
بولوب سن اسرو زار، ناتوان آهسته آهسته

*Itobida ko'zumni to'ldurub ashk o'rnig'a qondin,
Solib har g'amzada sonsiz yarolar tiyri mujgondin,
Jafu tarkin qilurg'a bu nafas man zoru hayrondin,
Dedi: "-Koy oshiqi zorim, maloli dardi hijrondin,
Bo'lubsan asru zoru notavon ohista, ohista".*

دیدى ناز ایلاب اوزنى آشنا ایلارگا کیلمیش من
کیچه تا تانگه چه کوسونگ دا جا ایلارگا کیلمیش من
بولبیم شهدى نى داردینگ گا دوا ایلارگا کیلمیش من
بو دام وصلیم بيله کامینگ روا ایلارگا کیلمیش من
مقامینگ غه بارى ایلدین نهان آهسته آهسته

*Dedi: noz aylab, o'zni oshno aylarga kelmishman,
Kecha to tongg'acha ko'ksungda jo aylarga kelmishman,
Labim shahdini dardingga davo aylarga kelmishman¹,
Bu dam vaslim bila koming ravo aylarga kelmishman,
Maqomingg'a bori eldin nihon ohista, ohista.*

سنگا ای ناتوان عشق ایچرا بولمیش مدعا لعیم
ایرور هجر ایچرا بولغان خسته کونگلونگه دوا لعیم
دیدى ایلاب تبسم قیلغوسی کامینگ روا لعیم
اگرایستارسن اوپماکیک نى اینگ جانفزا لعیم
وگر قوچسانگ بیلیم اینگو میان آهسته آهسته

*Sango, ey notavon, ishq ichra o'lmisham mudao la'lim,
Erur hajr ichra bo'lg'on xasta ko'nglungg'a davo la'lim,
Dedi: aylab tabassum qilg'usi koming ravo la'lim,
Agar istarsan o'pmaklikni eng-u jonfizo la'lim,
Vagar quchsang belim engu miyon ohista, ohista.*

خماری آبحو انیم ارا صبر ایلادینگ پیشه
خدنگی چشم فتانیم ارا صبر ایلادینگ پیشه
دمادم داغ بینهانیم ارا صبر ایلادینگ پیشه
نییه کون درد هجرانیم ارا صبر ایلادینگ پیشه
بول ایمدى وصلیم ایچرا شادمان آهسته آهسته

*Xumori obi hayvonim aro sabr aylading pesha,
Xadangi chashm fattonim aro sabr aylading pesha,
Damodam dog'i pinhonim aro sabr aylading pesha,*

¹ Qo'lyozmada misrasidagi "bu" so'zi kotib tomonidan ortiqcha ko'chirilgan. Bu hol vaznga ta'sir etgan. Shuni hisobga olib tabdilda "bu" so'zini qayd qilmadik.

*Necha kun dardi hijronim aro sabr aylading pesha,
Bo’l emdi, vaslim ichra shodmon ohista, ohista.*

قېلىب هر نطق شیرینی دا لعلینگا منی وابست
شعار ایلاب میی لطفینی ایلارگا منگا همدست
بولوب بزم وصالی غه حزین کونگلوم قوشی هوست
من اولدم یار لعلی باده سی بیرله بولوب سرمست
فراقی رنجیدین تاپدیم آمان آهیسته آهیسته

*Qilib har nutqi shirinida la’linga mani vobast,
Shior aylab mayi lutfini aylarga mango hamdast,
Bo’lub bazmi visolig’a hazin ko’ngum qushi havast,
Man o’ldum, yor la’li bodasi birla bo’lub sarmast,
Firoqi ranjidan topdim omon ohista, ohista.*

تا پاردرد اهلی دردیگا دوا وصل ایچرا بو یانگلغ
بولور عشرت تونی گامی روا وصل ایچرا بو یانگلغ
کورار مطرب کببی فیض صفا وصل ایچرا بو یانگلغ
کیشی کرصادق ایرسه عشق ارا وصل ایچرا بو یانگلغ
بولور فیروز بخت و کامران آهیسته آهیسته

*Topar dard ahli dardiga davo vasl ichra bu yonglig’
Bo’lur ishrat tuni komi ravo vasl ichra bu yonglig’
Ko’rar Mutrib kibi fayzu safo vasl ichra bu yonglig’
Kishi gar sodiq ersa ishq aro vasl ichra bu yonglig’
Bo’lur Feruzbaxtu komron ohista, ohista*

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 54^{a/b}].

Feruzning “**Dedim: - Ko’zumni ravshan..**” misrasi bilan boshlanuvchi g’azaliga bog’langan muxammas:

بو نی عتاب اول منینگ دارد نهانیم قوز غاتیب
یتدیم اولارگا فرقتینگ دامیدا غم بیرله یاتیب
اوزنی نهان ایتماک نیدور یوز اوزرا زلفینگ تارقاتیب
دیدیم کوزوم نی روشن ایت مهر جمالینگ کورساتیب
دیدى عزاریم اوتیغه جانینگ نیترسن اورتاتیب

*Bu ne itob ul maning dardi nihonim qo’zg’otib,
Etdim o’larga furqating domida g’am birla yotib,
O’zni nihon etmak nedur, yuz uzra zulfing torqotib,
Dedim: -Ko’zumni ravshan et, mehri jamoling ko’rsotib,
Dedi: -Uzorim o’tig’a joning netarsan o’rtotib.*

تون کون کوزوم گرین ایرور دردیغه تاپمای چاره
عشق ایچرا هجران دشتیدا هر دم بولوب آواره
یوق دورجهان دا من کیبی غم تیغیدین صد پاره
دیدیم ترخم ایلابان حالیم غه قیل نظاره
دیدى کوزوم جانینگ فگار ایتگوسی نازاوقین آتیب

*Tun-kun ko'zum giryon erur dardimg'a topmay chora,
Ishq ichra hijron dashtida har dam bo'lub ovvora,
Yo'qdur jahonda man kibi g'am tiyg'idin sadpora,
Dedim: -Tarahhum aylabon holimg'a qil nazzora,
Dedi: -Ko'zum joning figor etgusi noz o'qin otib.*

باغریم نی قانی هجرارا صهبای گلغامیم ایرور
عشق ایچرا چککان نالیشیم ذاتینگه پیغامیم ایرور
تا کیم تریک من حلقه زلفینگ منی دامیم ایرور
دیدیم وصال ایچرا لبینگ شهدی منینگ کامیم ایرور
دیدى آنی بیرگوم سنگا زهر فراق ایچرا قاتیب

*Bag'rimni qoni hajr aro sahboyi gulfomim erur,
Ishq ichra chekkan nolishim zotingg'a payg'omim erur,
To kim, tirikman halqayi zulfing mani domim erur,
Dedim: -Visol ichra labing shahdi maning komim erur,
Dedi: -Oni bergum sango zahri firoq ichra qotib.*

بزم ایچرا تاپتی شادلیغ بولحظه کونگوم نینگ اوی
سنبل مو عطرافشان ایرورباشینگنی جانا گیسوی
کیتدی کوزوم دین تیره لیغ توشگاچ جمالینگ پرتوی
دیدیم لبینگ نی شربتی شیرین مو یا کوثرسوی
دیدى بولور موهر سونی آب بقاغه اوخشاتیب

*Bazm ichra topti shodlig' bu lahza ko'nglumning uyi,
Sunbulmu, atrafshon erur, boshingni jono gesuyi,
Ketdi ko'zumdin tiyralig' tushgach jamoling partavi,
Dedim: -Labingni sharbati, shirinmu yo, kavsar suyi,
Dedi: -Bo'lurmu har suyi obi baqog'a o'xshotib.*

حق لطفی دورمویا بوتون وصلینگ میسر بولماغی
جان مرغی غمزنګ دین مویا لبی بال بی پر بولماغی
حسنینگ شعاعی دین مودور کونگوم منور بولماغی
دیدیم نیدین ایرکان بوکون عالم معطر بولماغی
دیدى ساچیم نی تانګ سیلی یوز اوزره سالمیش بو تراتیب

*Haq lutfidurmu yo, bu tun vasling muyassar bo'lmog'i,
Jon murg'i g'amzangdinmu yo, bebolu bepar bo'lmog'i,
Husning shuoiydinmudur ko'nglum munavvar bo'lmog'i,*

Dedim: -Nedin erkan bugun olam muattar bo’lmog’i,

Dedi: - Sochimni tong seli yuz uzra solmish bo’trotib.

تا شیر اوچون قويدینگ قدم یوزناز ایلا گلشن ساری
شوق ایچرا تونکون اورتانیب قاندور کوزیم مردملاری
شمعی رخینگه بولغوسی پروانه ماء مشتری
دیدیم کوزونگ بیدارقیل ناز اویقوسی دین ای پری
دیدى بو لحظه فتنه نابیم نی نیتگونگ اویغاتیب

To sayr uchun qo’yding qadam yuz noz ila gulshan sari,

Shavq ichra tun-kun o’rtanib qondur ko’zim mardumlari,

Sham’i ruxingg’a bo’lg’usi parvona mohu mushtari,

Dedim: - Ko’zung bedor qil, noz uyqusidin, ey pari,

Dedi: - Bu lahza fitnayı nobimni netgung uyg’otib.

فاش ایلابان مهر وفا من تشنه دلسوز غه
کیلدی قاشیم غه چولغانیب سنجاب ایلا قوندوز غه
ای مطرب با ایمدی دونوب هر بیر کونینگ نوروز غه
دیدیم کوزونگ دین اورکولای بیربوسه بیر فیروز غه
دیدى یوزوم نی آغریتور هریان خطینگ نیشی باتیب

Fosh aylabon mehru vafo man tashnayı dilso’zg’a,

Keldi qoshimg’a cho’lg’anib, sanjob ila qunduzg’a,

Ey Mutribo, emdi do’nub, har bir kuning navro’zg’a,

Dedim: - Ko’zungdin o’rgulay, bir bo’sa ber Feruzg’a,

Dedi: - Yuzumni og’ritur haryon xating nishi botib

[Majmuayi muxammasoti... 1909, 79^{a/b}].

Feruzning “Labing” radifli g’azaliga bog’langan muxammas:

توشگاچ کوزوم قیلدی منی سرکشته حیران لبینگ
هر نکته سی دا بیرگوسی اولگان تنیمگا جان لبینگ
ایلاب آیا ایلکینگ توتوب قیلگونگ منگا پنهان لبینگ
یا قوت دورمو بیلما دیم یا لعل ای جانان لبینگ
یا عارضینگ گلزاری دا بارمولگی خندان لبینگ

Tushgach ko’zum qildi mani sargashtayı hayron labing,

Har nuktasida bergusi o’lgan tanimga jon labing,

Aylab oyo ilking tutub qilg’ung mango pinhon labing,

Yoqutdurmu bilmadim yo, la’l, ey jonon labing.

Yo orazing gulzorida bormu guli xandon labing.

تا اور غالی زینت اوچون گلگون یوزونگا غازه کیم
شوق ایچرا کونگولم بلبلی هر دم کیریپ پروازه کیم
عجز نیاز اینگان چاغی سن یار سرونازه کیم

لعلینگ نی بیر اوپماک بیلہ تاپدیم حیات تازه کیم
اعجاز عیسی موایکان یا شربت حیوان لبینگ

*To urg'ali ziynat uchun gulgun yuzingga g'ozakim,
Shavq ichra ko'nglum bulbuli har dam kirib parvozakim,
Ajzu niyoz etgach chog'i, san yori sarvinozakim,
La'lingni bir o'pmak bila topdim hayoti tozakim,
I'jozi1 Isomu ekan yo sharbati hayvon labing.*

سوز لارگا لب آچغاچ آلور یوزجان نگارا تیشلارینگ
سالغوسی عشاق اهلی نینگ باشیغه سودا تیشلارینگ
ایلار خرد بیگانه سی اول در یکتا تیشلارینگ
کولگو چاغی ظاهر بولور بوکیم مصفا تیشلارینگ
کویا الار دوربی بها در جقه مرجان لبینگ

*So'zlarga lab ochg'ach olur yuz jon nigoro tishlaring,
Solg'usi ushshoq ahlining boshig'a savdo tishlaring,
Aylar xirad begonasi ul durri yakto tishlaring,
Kulgu chog'i zohir bo'lur bukim musaffo tishlaring,
Go'yo alardur bebaho dur, huqqayi marjon labing.*

کامیم غه یتکورمای دمی وه نیلا بین بو دهر دون
قیلمیش منی مجنون کیبی سرکشته دشت خون
جانا غمی عشقینگ ایتهب رنجیم نی کونگوندین فزون
کوزدین توکوب هجران ارا دایم سرشک لاله گون
اوپماکلیک ایلاب آرزو تونکون یوتارمن قان لبینگ

*Komimga etkurmay dame vah, naylayin bu dahri dun,
Qilmish mani Majnun kibi sargashtayi dashti xun,
Jono g'ami ishqing etib, ranjimni kun-kundin fuzun,
Ko'zdin to'kub hijron aro doim sirishki lolagun,
O'pmaklik aylab orzu tun-kun yutarman qon labing.*

شمع رخینگ بزم ایچرا قدر ایامیدین آرتوق دورور
لعلینگ شرابی اوزگلارمینگ جامیدین آرتوق دورور
نرگسلارینگ خوبلار کوزی بادامیدین آرتوق دورور
مینگ بی بها یاقوت لعل انعامیدین آرتوق دورور
بیرسور غالی بوزارینگا قیلسانگ اگر احسان لبینگ

*Sham'i ruxing bazm ichra qadr ayyomidin ortuqdurur,
La'ling sharobi o'zgalar ming jomidin ortuqdurur,
Nargizlaring xo'blar ko'zi bodomidin ortuqdurur,
Ming bebaho yoquti la'l in'omidin ortuqdurur,
Bir so'rg'ali bu zoringa qilsang agar ehson labing.*

هجر آفتی دین ر هم ای تب قوتقار منی ای دلربا
کامیم می وصلینگ ایروریتماکلیک اولغایموروا
کیم غصه هجرانینگا ایکی کوزوم اشکی گوا
بوسه لعلینگغه جان نقدین قیلور ایرسنگ بها گر
الغوم نیدین کیم بیر اوپوب اولگانگانی ارمان لبینگ

*Hajr ofatidin rahm etib qutqar mani, ey dilrabo,
Komim mayi vasling erur etmaklik o'lg'aymu ravo,
Kim g'ussayi hijroninga ikki ko'zum ashki guvo,
Gar bo'sayi la'lingg'a jon naqdin qilur ersang baho,
Olg'um, nedinkim, bir o'pib o'lganga ne armon labing.*

جان ایچرا تونکون آسرا دیم جانان لبینگ نی شوقینی
ایلاب دل محزونیمه مهمان لبینگ نی شوقینی
خوف ایلاب اغیار اهلی دین آلان لبینگ نی شوقینی
دایم کونگول دا ساقلابان پینهان لبینگ نی شوقینی
ایمدی بیتب من اولگالی اوپتور منگا پینهان لبینگ

*Jon ichra tun-kun osradim jonon labingni shavqini,
Aylab dili mahzunima mehmon labingni shavqini,
Xavf aylab ag'yor ahlidin olon labingni shavqini,
Doim ko'ngulda saqlabon pinhon labingni shavqini,
Emdi yetibman o'lgali o'ptur mango pinhon labing.*

عزم گلستان ایلاگاچ تاپتی نزاکت باغلار
یوز مرحبا دیب باغ ارا گلبرگی دا یوفراقلا
وه نیلا بین کامین تاپیب هجر آفتی دین ساغلار
اوتلیغ ضمیریمغه منی داغ اوزره قویدی داغلار
جان نقطه سیدیک خالار ظاهر قیلیب هریان لبینگ

*Azmi guliston aylagach topti nazokat bog'lar,
Yuz marhabo, deb bog' aro gulbargida yufrog'lar,
Vah, naylayin komin topib hajr ofatidin sog'lar,
O'tlig' zamirimg'a mani dog' uzra qo'ydi dog'lar,
Jon nuqtasidek, xollar zohir qilib haryon labing.*

آزار هجرانینگ بیله مغرور ایرور من روز شب
جان بخش لعلینگ شوقیدا هر دم چیکیب رنج تعب
مطرب کیبی قیلمامنی لطفینگ می دین تشنه لب
فیروز جنت روضه سین گر ایستاماس ایرماس عجب
کیم عارضینگ جنت گلی کوثر سویی ای جان لبینگ

*Ozori hijroning bila mag'rur erurman ro'zi shab,
Jonbaxsh la'ling shavqida har dam chekib ranju taab,
Mutrib kibi qilma mani lutfing mayidin tashnalab,*

*Feruz jannat ravzasin gar istamas, ermas ajab-
Kim, orazing jannat guli kavsar suyi, ey jon, labing*
[Majmuayi muxammasoti... 1909, 101^{a/b}].

Adabiyotlar

- Алишер Навоий асарлари луғати. 1972. Тузувчилар: Порсо Шамсиев ва бошқалар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Феруз. XIX асрнинг II ярми. *Ғазалиёти Феруз*. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 5884/11.
- Жабборов, Нурбой. 2014. “Бадий матн тахрирининг хосхусусиятлари”. *Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари* мавзuidaги илмий-назарий анжуман материаллари, 28. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Жабборов, Нурбой. 2019. “Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни”. *Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари*. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 12. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Каримов, Ғ.К. 1966. *Ўзбек адабиёти тарихидан*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Лихачев, Дмитрий. 2001. *Текстология на материале русской литературы X – XVII веков*. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва, 33. Санкт-Петербург, Изд-во “Алетейя”.
- Мутриб. XIX асрнинг II ярми. *Мажмуайи аш-шуаройи пайрави Ферузоҳий*. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 1152.
- Мутриб. XIX асрнинг II ярми. *Мажмуайи мухаммасоти аш-шуаройи Фурузоҳий*. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 1127.
- Мутриб. XIX асрнинг II ярми. *Мажмуайи мухаммасоти аш-шуаройи Ферузоҳий*. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 1134.
- Огаҳий. XIX аср. *Таъвиз ул-ошиқин*. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 1529.
- Валихўжаев, Ботир. 1964. “XV-XIX асрларда ўзбек адабий-танқидий қарашлари тарихидан”. *Ўзбек шеърияти ва адабиётшунослиги тарихидан*, 146. Самарқанд.
- Ходим, Бобожон Тарроҳ. 2011. *Хоразм шоир ва навозандлари*. 136-140. Тошкент: Тафаккур қаноти.
- Юнусов, М. 1960. *Комил Хоразмий*. Тошкент: Давлат адабиёт.
- Шодмонов, Н. 2009. *Шоҳиду-л-иқбол – адабий манба*. Тошкент: Мухаррир.

Mutrib's mukhammasses in the collection “Mazhmui mukhammasoti ash-shuaroi Feruzshakhiy”

Sohiba Madirimova*

Abstract

The collection “Mazhmui muhammasoti ash-shuaroi Feruzshakhiy” is the largest source of lyric works by the authors of the Khorezm literary environment. According to the king’s decree, the complex was formed in the second half of the XIX century by Tabibi. It includes examples of poetry by contemporaries of the author. This resource, which provides valuable information about the literary environment of its time, is now stored in the main fund of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under number 1134. The collection differs from other collections in the composition of the genre, that is, muhammas. One of the collection’s most popular poets is Mutrib Hanaharab ibn Muhammad Hasan Devan Haji Tabib.

The article analyzes the muhammas of Mutrib Hanaharabi, who are associated with the gazalles of master poets Agahi and Feruz. The artistic features of the Mutrib mukhammasses are studied, which are not in handwritten copies. The weight, significance and novelty of the poetic gazal, as well as the evolutionary nature of the content, are proven by the original sources. Mukhammasses and musaddasses of the poet, which are introduced in the collection, are compared with verses in manuscripts and studied in the fields of textology and source study.

Key words: *manuscript, lithography, collection, masnaviy, gazal, poem, muhammas, source.*

References

- Alisher Navoiy asarlari lugʼati.* 1972. Tuzuvchilar: Porso Shamsiev va boshqalar. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti.
- Feruz. XIX asrning II yarmi. *Gʻazaliyoti Feruz.* Qoʻlyozma: OʻzFASHI, № 5884/11.
-

* Madirimova Sohiba Makhmudovna, doctoral student of PhD of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, History of Uzbek Literature and folklore.

e-pochta: madirimova@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

- Jabborov, Nurboy. 2014. "Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari". *O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari*" mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari, 28. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Jabborov, Nurboy. 2019. "O'zbek matnshunosligi va unda matn tanqidi, ilmiy-tanqidiy matn istilohlarining o'rni". *O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*, 12. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Karimov, G.K. 1966. *O'zbek adabiyoti tarixidan*. Toshkent: O'qituvchi.
- Lixachev, Dimitriy. 2001. *Tekstologiya na materiale russkoy literaturi X – XVII vekov. Pri uchastie A.A. Alekseeva i A.G. Bobrova*, 33. Sankt-Peterburg, Izd-vo "Aleteyya".
- Mutrib. XIX asrning II yarmi. *Majmuayi ash-shuaroyi payravi Feruzshohiy*. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 1152.
- Mutrib. XIX asrning II yarmi. *Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Furuzshohiy*. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 1127.
- Mutrib. XIX asrning II yarmi. *Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy*. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 1134.
- Ogahiy. XIX asr. *Ta'viz ul-oshiqin*. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 1529.
- Valixo'jaev, Botir. 1964. "XV-XIX asrlarda o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan". *O'zbek she'riyati va adabiyotshunosligi tarixidan*, 146. Samarqand.
- Xodim, Bobojon Tarroh. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. 136-140. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Yunusov, M. 1960. *Komil Xorazmiy*. Toshkent: Davlat adabiyot.
- Shodmonov, N. 2009. *Shohidu-l-iqbol – adabiy manba*. Toshkent: Muharrir.

ADABIYOTSHUNOSLIK

LITERATURE

Ahliy Sheroziy qasidasida Alisher Navoiy madhi

Shuhrat Sirojiddinov*

Abstrakt

Sharq mumtoz adabiyoti janrlari orasida qasida janri nisbatan qadimiyroq bo'lib, badiiy tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga madh klassik adabiyotda eng keng tasvirlangan masalalardan biri va u qasida janri bilan baqamti rivojlanib borgan. Qasida janri va madh masalasi adabiyotimiz tarixida shu qadar bog'lanib ketganki, ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ushbu kichik tadqiqotda muallif mazkur ikki masalani birgalikda tahlil etgan.

Maqolada fors-tojik adabiyotining vakili Ahliy Sheroziyning Alisher Navoiyga bag'ishlangan masnu' (san'atlarga boy) qasidasi haqida so'z boradi. Muallif Navoiy yozgan masnu' qasida Sheroziyga ilhom berganligini ta'kidlar ekan, qasida baytlarini tahlil qilish asnosida undagi har bir misrada shoirning fazilatlarini ta'rif etilganligini tarixiy faktlar vositasida dalillagan.

Kalit so'zlar: *qasida, madh, masnu', tarsi', poetik usullar, tazkira.*

Ko'plab shoir va olimlar buyuk saxovatpesha, ilm-fan, adabiyot va san'at homiysi bo'lgan Alisher Navoiyga hayotlik davridayoq minnatdorlik yuzasidan go'zal qasidalar bitganlar. Shunday qasidalardan biri Ahliy Sheroziy qalamiga mansub bo'lib,

* Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich - filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

e-pochta: shsirojiddinov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6928-6292

o'rta asrlar she'riyatida juda kam uchraydigan "masnu' qasida", ya'ni Sharq poetik san'atlari vositasida yoziladigan qasida turida Alisher Navoiy nomiga muvashshah etib tuzilgan [Сирождидинов 1991, 3-10].

Mavlono Ahliy Sheroziy XV asrning ikkinchi yarmi, XVI asrning boshlarida yashab o'tgan bo'lib, o'z davrining yetuk shoirlaridan hisoblangan. Bunga ko'pgina tazkiralarda uchrovchi u haqdagi iliq so'zlar, shoirning bizgacha saqlanib kelgan kulliyotidagi rang-barang g'azallarining yuqori saviyasi dalolat bera oladi. Devondan tashqari uning "Sham va parvona", "Sehri hilol" nomli ikki dostoni ham mavjud.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida shoir to'g'risida shunday yozadi:

"Mavlono Ahliy Sherozliqdur. Hamonoki, tolibi ilmlig'i bor. Nazmlardin har sinf she'rda mahoratlig' kishidir, bataxis qasida uslubida. Necha qatla Sherozdin rangin qasidalar aytib yuborib erdi. Bu yaqinda Xoja Salmon Sovajiy masnu' qasidasig'a javob aytib, bip g'arib ruboiy dag'i izofat qilib yuboribdur" [Навоий 2011, 408].

Ko'rinib turibdiki, Ahliy Navoiyning xos ehtiromiga sazovor bo'lgan ijodkorlardan. Fursat Sheroziyning "Osori ajam" tazkirasida ham sherozlik shoir va ahli ilm haqida keltirilgan ma'lumotlar ichida quyidagilar e'tiborga loyiqdir:

"...Mavlono Ahliy Sheroziy – nomash Muhammad, mavludash Sheroz, az jumlayi urafoyi sohibi joh buda va dar fununi she'r, xossa qasoidi masnuiya kamoli mahoratro doshta, dar muqobili qasidayi masnuiyayi Xoja Salmon Sovajiy se qasida dar madhi Amir Alisher gufta va behtar az on gufta va onho dar nazdi faqir mavjudast va masnavi mavsum ba "Sehri hilol"ki, dar har she'r se san'at az sanoyi'i ilmiy-badiiy ba kor burdaki, aql dar on hayronast va o'ro niz devone hast kabir, davoze dah hazor bayt va risola dar ilmi muammo, risolae dar ilmi aruz va qofiya. Qariyb hashtod sol umr namuda, dar sanayi 942 hijriy vafot yofta, dar tarafi dasti chapi xoja (Hofiz Sheroziy – Sh.S.) madfunast" [Sheroziy 1896, 471].

(...Mavlono Ahliy Sheroziy, ismi Muhammad bo'lib, Sherozda tavallud topgandir. U oliy martabali donishmandlardan bo'lib, she'r fanida, ayniqsa, masnu' qasidalar bobida mahorat kamolotidadir. Xoja Salmon Sovajiy yo'lida Amir Alisherni madh etib uch qasida aytgan va undan ham yaxshiroq aytgandir. Ular (qasidalar – Sh.S.) faqirning yonida mavjuddir. Shuningdek, "Sehri hilol" nomli masnaviysi borkim, har she'rida ilmiy-badiiy san'atlardan uch san'at ishlatilganki, aql unga hayron. Uning 12 ming baytli devoni ham bor,

muammo, aruz va qofiya ilmlariga oid risolalari mavjud. Qariyb 80 yil umr ko'rib, 942-hijriy yilida vafot etdi. Xojaning chap tapafida dafn etilgan" (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Shu kabi fikrlar "Majolis ul-mo'minin" tazkirasida ham uchraydi [Шуштарий XIX, 514]. Yuqoridagi tazkiralardan Ahliy Sheroziy mohir qasidanavis shoir ekanligi anglashilmoqda. Y.E.Bertels "Navoiy" monografiyasida Ahliy Sheroziy haqida so'z yuritar ekan, uning uch qasida yozganligini, ular Navoiy, Sulton Ya'qub Oq-quyunlining birodari Yusufshoh va Shoh Ismoil Safaviyga bag'ishlanganligini aytib o'tadi [Бертельс 1965, 39]. "Osori ajam"dagi qaydni hisobga oladigan bo'lsak, u Alisher Navoiy madhida bir emas, balki uch qasida yozgan bo'lib chiqadi. Qasida ko'chirilgan qo'lyozma tepasidagi "Qasidayi avvali dar madhi Amir Alisher" yozuvi ham bunga dalildir. Bunga Navoiyning "necha qatla (!) Sherodzin rangin qasidalar aytib yuborib erdi" degan fikrini ilova qilsak, bu uch fikr bir-birini tasdiqlagandek tuyuladi. Lutfali Ozarning "Otashkada" tazkirasida ham "Osori ajam" ma'lumotlariga ohangdosh so'zlar mavjud:

"...Mavlono Ahliy saromadi fusahoyi zamon va sardaftari fusahoyi suxandon va dar fununi she'r dar kamoli mahorat va qasoidi masnu' (ko'plik formasida kelayotganligiga e'tibor bering – Sh.S.) dar muqobili Sayid Zulfiqor Shirdoiy va Xoja Salmon Sovajiy dar madhi Amir Alisher Navoiy gufta va beh az har du gufta ..." [Ozar № 793, 253^a].

(... Mavlono Ahliy zamon fasihlari saromadi, suxandon fasihlar boshchisi va she'r fanida mahorat kamolatidadir, Sayid Zulfiqor Shirdoiy va Xoja Salmon Sovajiy uslubida Amir Alisher Navoiyga masnu' qasidalar bag'ishlagan va ularning har ikkovidan ham yaxshiroq aytgan (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Qo'limizda mavjud bo'lgan masnu' qasida Amir Alisher nomiga muvashshah tarzida bitilgan bo'lib, hajmi 150 baytdan iborat. Qasida O'zFASHI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 2206-inventar raqamli "Kulliyoti Ahliy Sheroziy" devonining oxiriga joylashtirilgan bo'lib, chiroyli, nafis nasta'liq xatida ko'chirilgan.

Ahliy qasidani yozib tugatgach, shaxsan o'zi Hirotga kelib, Navoiyga taqdim etgan. Bu haqda Amin Ahmad Roziy o'zining "Haft iqlim" tazkirasida qayd etishni lozim topganligi diqqatga sazovordir: *"... mavlono Ahliy bo safoyi zehni salim va zukkotab'i mustaqim, az jami'i shuaroyi zamonayi xud imtiyozi farovon dosht... pas az onki ba Hirot tavajjuh namud, qasidayi masnu'yi Xoja Salmonro ma' ziyodati tatabbu' namuda ba nomi Amir Alisher muvashshah gardonid va silae*

arjmand yoft” [Roziy, № 617, 83^a].

(... mavlono Ahliy salim zehning pokligi, zukko ta’bligi bilan o’z zamonasining jami shoirlari o’rtasida ancha imtiyozga ega edi. ... Hirotga kelganidan so’ng Xoja Salmonning masnu’ qasidasiga ortig’i bilan tatabbu’ qilib, Amir Alisher nomiga muvashshah etdi va munosib taqdirlandi (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Qasida debocha bilan ziynatlangan. Unda qasidaning Amir Alisherga bag’ishlanganligi haqida so’z yuritilgan:

“... Ba’d az farog’i mutolaa va mushohadayi sanoe’yi badoe’yi qasidayi masnu’ ki raqamzadayi kilki latoyif shiyor, mafxar ush-shuaro Xoja... Salmon Sovajiy ast ... ba tariqi tatabbu’ insho namuda shud muvashshah ba alqobi sharif, badavvuni in sinoat va xuruji in bizoat, amiri kabiri olami adl, amiru-l-umaro, maliho al-fuzalo, muloz al-fuqaro, asad al-maorik, Shibliy al-masoliku-l-umm al-islom va-l-muslimin, nizomu-l-xaq va-d-davla va-d-dunyo va-d-din Alisher.

Bayt:

Onki nash’u namoyi gulshani dahr,

Hama az oftobi himmati o’st.

Surxpo’yi-i fazl imro’z

Chun aqiq, az suxayli davlati o’st.

(Shoirlar faxri Xoja Salmon Sovajiyning latif qo’li bilan yozilgan masnu’ qasidani mutolaa qilib bo’lgandan so’ng, tatabbu’ qabilida odil olamning ulug’ amiri, amirlar amiri, fozillar Malihosi, faqirlar pushtipanohi, sheri maydon, islom va musulmlar ummati maslamlari Shibliysi, din, dunyo, davlat va haqiqat nizomi Amir Alisherning sharif nomiga muvashshah etib yozildi.

Bayt:

Ulkim, dahr gulshanining nash’u namosi, barcha uning himmat oftobi nuridan bahramand. Bugun fazl ahli yuzining aqiq kabi qizilligi (ruhi bardam, baxtiyorligi) uning davlati suhaylidandir (yulduzidandir) (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Qasida bir baytdan to’rt baytgacha bo’lgan 69 banddan yoxud qit’adan iboratdir. Har banddan bir masnu’ bayt istixroj qilinadi, ya’ni chiqariladi. Bunday masnu’ baytlar soni 70 taga yaqin. Biz ushbu ishimizda e’tiborni Navoiy madhiga qaratayotganimiz uchun ham qasidaning yozilish uslubi, poetik mahorati haqida to’xtalmaslikni lozim ko’rdik. Faqat ikki og’iz so’z masnu’ qasida tarixi haqida.

Ma’lumki, Sharq poetik san’atlarini qay darajada ishlatish ijodkorning mahorat darajasiga bog’liq. O’rta asrlar shoirlari o’z

asarlarida nutq badiiy vositalarining turli-tuman shakllarini qo'llab, o'z mahoratlarini namoyish qilganlar. Ayniqsa, XIV asr shoiri Salmon Sovajiy boshlab bergan, o'nlab poetik san'atlarni o'z ichiga olgan masnu' qasida uslubi bu yo'nalishda eng yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Keyingi asrlarda ham ko'pchilik shoirlar badiiyat olamida kuch sinashish vositasi sifatida qasidayi masnu' yozishga qo'l urganlar va Salmon qasidasiga tatabbu' yozganlar. Ma'lumotlarga qaraganda, Sohib Balxiy, Fasih Rumiy, Darvish Mansur Sabzavoriy, Hofizali Jomiy, Ahliy Sheroziy, Qatiliy kabi fors-tojik shoirlari qatorida Navoiy ham tatabbu' qilgan ekan. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: ... yana suxanpardozi ustozli oliyshon Xoja Kalimiddin Salmonki, qasida maydonining chobuksuvoridir va o'z zamonining benazir suxanguzori, mashhurdurki, chun masnu' qasidasi tartibig'a qalam surubdur, o'n sekkizda itmom yetkurubdur. Voqean ishe qilibdurki, nazm ahli aning taammuqida hayron va taammulida sargardondurlar. Tarsi' san'atikim, matla'din o'zga baytda bo'la olmas, ul qasidaning agarchi mustaxraj matlayi rostdur, ammo asli matla'da avvalgi misraning bir lafzida taxalluf qilibdur va matla' budurkim:

Safoyi safvati po'yat birext obi bahor

Havoyi jannati ko'yat bibext mushki totor.

Bu matlaga tatabbu' qilg'on ko'p suxanvarlar va nazm-gustarlar chun muqobalada debdurlar, lat yebdurlar. Bu faqirning matlayi budurkim:

Chunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor,

K-az on pasid ba yopon shamimi vasli nigor

[Навоий 2011, 530].

Ahliy Sheroziy o'z qasidasini shunday boshlaydi:

Nasimi kokuli mushkin k-orost chun tu, nigor

Shamimi sunbuli purchin kujost mushki tator.

Shamim xezad az ohu vale na z-in xushtar,

Nasimi gul vazad, ammo chunin na anbarbor.

(Senga yarashgan mushkli kokiling shabadasi, jingala sochingning xushbo'yligi shunchalikki, totor mushkiga yo'l bo'lsin. Ohudan ham xushbo'y hid taraladi, ammo bunchalik yoqimli emas, guldari shabada ta'sirida yoqimli hid taralsa ham bunchalik xushbo'y emas (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Agar Navoiy va Ahliy masnu' qasidalari matlasini solishtirib

ko'rsak, shu narsa ayon bo'ladiki, Navoiy yozgan masnu' qasida Ahliygah ilhom bergan. Sababi Ahliy ulug' shoirga madh yozayotganligi uchun ham qasida boshidayoq uning baytiga mos so'zlar topa olgan, Navoiyning "bahor faslining nasimi yetib, undan do'stlarga yor vaslining xushbo'y hidi keldi" baytiga hamohang ravishda qasida nasibiga kirishgan. Bizningcha, bu o'ziga xos poetik usul bo'lib, Navoiyda qasidaga nisbatan ijobiy kayfiyat tug'dirgan bo'lsa, ajab emas.

Ahliy qasida yozish qonun-qoidalariga binoan uzundan-uzun kirish qismi – nasibdan so'ng maqsadga ko'chadi:

*Payi chi basta zabon, gashta gum zi xud bulbul,
Magar kushoda zabon sohibi yamin-u yasor.
Nizomuddin Alisher peshayi islom,
Ki yoft lavh-u qalam az shiorash istehzor.
Umur-i hashmat az o'xotami pazirufta
Rumuzi hikmat az o'noshenufta dar asror.*

(Ne sababdan bulbul jimib qoldi va o'zligin yo'qotdi? Nahotki o'ng-u so'l sohibi (borliq) tilga kirgan bo'lsa. Nizomiddin Alisher, u-islom peshvosi, lavh-u qalam uning shioridan madad olgandir. Uning buyuk ishlari tarixda muhrlangandir, uning sirli hikmatlari sirlar olamida eshitilmagan (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Sheroziy ushbu band – gurizgohdan quyidagi san'at-baytni istixroj etadi:

*Bezabon gashta zi xud bulbul, dilso'xta rafta,
Magar az sohibi sayf-u qalam ash'ore shenufta.*

(Bulbul tilidan ayrilib, jigar-bag'ri ezilib ketdi, nahotki, qilich-u qalam sohibining she'rlarini tinglagan bo'lsa? (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Navoiyning she'rlari shunchalik musiqiy, dilkash va navoliki, uni eshitib hayratda qolgan bulbulning tili tutilib, ovozi chiqmay qoldi, demoqchi shoir.

Mazkur istixrojiy baytlar qasidaning asosiy matniga aloqador bo'lmasa-da, ammo undagi g'oyaga xizmat qiladi, ya'ni ular ham o'z mazmuni ila Alisher Navoiy madhini yorqinroq bo'yoqlarda ko'rsatishga hissa qo'shadi.

Alisher Navoiy so'z san'atini oliy cho'qqisiga ko'targanligi va suxan ahliga homiylik qilganligi zamondoshlarining chuqur ehtiromiga sabab bo'lgan:

*Muravvaje, ki chunon toza soxt joni suxan,
Ki basta chashmi xirad az tasavvurash, angor.*

(Homiykim, suxan jonini shunday toza (yangi) qildiki, xirad (aql) ko'zi buni tasavvur qilishga ojiz (tarjima bizniki – Sh.S.))

*Maloyik az talabi hamdamish bar dar-u bom,
Muluk az tamayi mahramish bar darbor.*

(Mirning obro'-e'tibori so'z san'atkori sifatida shunchalik oshdiki, sultonlar uni o'zlariga yaqin qilish uchun saroylarida, maloyiklar unga hamdam bo'lishi uchun hamma joyda muntazirdirlar (tarjima bizniki – Sh.S.))

Navoiyning o'zi ham so'z buyukligi yo'lida barchaga hamdam-u mahramdir:

*Toza joni suxan az hamdamish,
Basta chashmi xirad az mahramish.*

(Hamdamligidan suxan joni kamolotda. Mahramlikda aql bovar etmas yuksaklikda (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Yoki Navoiyga murojaat qilib:

*Malik, Mulkati suxan, ki naxo'st,
Dam ba tavfiq hamdamat buda.
G'ayri kilkat kase zi zulfi suxan,
Girehi nasr-u nazm nakushuda.
Hech kas be nasimi marhamatat
Gardi mehnat zi chehra nazududa.*

(Sen so'z mulkingning sultonidursan, Omad senga hamisha hamdam. Sendan o'zga kishi suxan zulfidin nasr-u nazm tugunini yecha olmagan, Hech kim sening marhamating shabadasisiz yuzidan qiyinchilik changini tozalay olmagan (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Ahliy Navoiyning ochiqqo'lligini, saxiylikda Hotami Toydan o'tishini uning qo'llarini Nil daryosiga qiyos qilish orqali tasvirlaydi:

*Ajab mador z-i dastash ki kardaam monand
Ba bahri Niyl, ki joriy buvad az o' anhor.
Latoyifi karamash komi xalq shahri dod,
Kafi inoyati o' shud chu bahre az isor.*

(Ajablanma, agar men uning qo'lini Nil dengiziga qiyoslasam, undan ko'plab daryolar oqib chiqadi. Uning inoyatli kafi ham sadaqa tarqatishda dengiz misol bo'lib, Nildan daryolar oqib chiqqanidek, uning kafidan ham inoyat oqib turadi (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Navoiy do'stlariga ba'zida achchiq gapirsa ham, uning zamirida ularni to'g'ri yo'lga boshlash, yaxshi niyat yotadi. Ammo u dushmanlariga shirin gapirsa-da, ularga ayovsiz raqobatdadir:

*Payke, ki vay nihadash zahr, fi-l-masal dar dast,
Bigu, bino'sh, ki dar komi o'st nushguvor.
Sharob dar dahani do'stonash nushinta'm,
Shakar ba baxti badi dushmanonash neshxor.*

(Agar u qo'lga, masalan, zahar tutqazib, "ich" desa, u kishining og'zida zahar xushta'm ichimlikka aylanadi. Do'stlariga achchiq sharob bersa, do'stlari og'zida shirin ichimlikdir, dushmanlariga shakar bersa, u sarqit kabi ta'sir etadi (tarjima bizniki – Sh.S.))

Mir Alisher Navoiy, ma'lumki, barchaga maslahatgo'y bo'lgan. Hatto uning ustozi va piri hisoblanmish Abdurahmon Jomiy ham o'z asarlarini yozishda u bilan maslahatlashgan. Amirning maslahatlari Sulton Husayn uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Boyqaro o'g'illari qayerda hokim bo'lishmasin, Navoiy o'git-nasihatlarini asosida ish ko'rishga harakat qilganlar. Shoir va davlat arbobi Navoiyning aralashuvi natijasida davlatning ko'pgina ichki va tashqi nizolariga chek qo'yilgan. Ahliy ulug' amirning bu noyob sifatini shunday ulug'laydi:

*Dami mujodalayi shahon shavrat az fazlat,
Ki tig'i mehri tu bishkast qalbi sad qahhor.
Ba dasti fazli tu naqdi hunar suxanho nest,
Ki hast ganji nihonat k-romat az dodor.*

(Shohlar tortishuvida sening maslahatlaring fozilligindan darak, sening mehring tig'i qahrli yuz kishining qalbini teshadi. Sening izmingda faqat so'z san'ati emas, balki yashirin xazina bordirkim, Parvardigor inoyati tufayli rom etasan (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Fazlda beqiyos bo'lgan bu ulug' insonning turish-turmushi barcha xabardor kishilar uchun poklik mezoni edi. Hatto Husayn Boyqaro uni o'ziga pir deb hisoblagan. Ahliy ham uni tavof qilishga umid bog'lagani quyidagi satrlarda yaqqol seziladi:

*Vujudi nuh falakat xoki rah ba har qadame
Sitoda xayli malak bar daraxt ba istehzor,
Dari tu bo'sa dihad Ka'ba, gar safo jo'yad,
Chunonchi bar qadamat chehra menihad zavvor.*

Bayt:

*Nuh falakat xoki qadam bo'sa dihand,
Xayli malak bar qadamat chehra nihand.*

(To'qqiz falakning vujudi har qadamda (oyog'ing ostida) tuproq bo'lib yotibdi, malaklar eshiging oldida chaqirishingga muntazir. Ka'ba o'zi kabi pok joy qidiradigan bo'lsa, ziyorat qilishga kelayotganlar poyingga yuzlarini bosib tavof qilganligi kabi sening ostonangni o'padi (tarjima bizniki – Sh.S.))

XV asrning ikkinchi yarmi temuriylar saltanatida yashab, ijod etgan ko'pgina adabiyot va ilm-fan peshvolari (Mirxond, Xondamir, Davlatshoh va boshqalar) o'z asarlarida Navoiyning o'ta saxiyligi, qo'li ochiqligi haqida ko'plab ma'lumotlar qoldirganlar. Ahliy qasidasida ulug' amirning yana bir fazilatini, uning hech qachon birortadan mol-mulk tama'ida iltimos qilmaganligini alohida qayd etishni lozim topadi:

*Vujudi kas nabuvad hamchu xalq-u mardumiyat,
K-in naquft ba talxi-yu, on nakard ozor.
Digar chu himmatat andar jahon nadida kasi,
Nokarda dar hama umr iltimose az ag'yor.*

(Bunchalik xalqchil, xalqparvar vujud hech kimda yo'q. Bunday himmat ham hech kimga nasib etmagan. U umrida birovdan biror narsa so'ramagan (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Ma'lumki, saroy ichidagi fitnalar tufayli Navoiy ancha aziyat chekkan. Mirning kundan-kunga ortib borayotgan mavqeyi, obro'-e'tiboridan g'ashlangan g'anamlari orqavorotdan tosh otishga qo'llaridan kelguncha harakat qilganlar. Bundan xabardor Ahliy samimiy hamdardlik izhor etib, kishi avvalo o'zini yenga olishi lozim, ko'ngilning haddan bo'shligi ham insonga, ko'pincha, dard-alam keltirishi haqida misralar keltiradi:

Daruni dushman chohast, barqaror mabod,

*Nayoft hech dil az so'zi hasratash juz bor.
Rafiqi xasmi tu navbad ba juz dili bipyon,
Ba harchi didayi giryon o' kunad timor.
Dushmanatro mabod juz dili biryon,
Hech dil so'z ba har didayi giryon.*

(Dushman ichi chohdirkim, barqaror bo'lmasin. Biror dil hasrat o'tidan boshqa narsaga ega bo'lmadi. Har qancha ko'z yoshi-yu, hamdardlik bildirsa ham, biryon (eziluvchan) ko'ngildan o'zga dushmanning do'sti bo'lmas. Dushmaningda ham shunday eziluvchan ko'ngildan o'zga narsasi bo'lmasligini, senga har bir yig'loqi ko'zga ko'nglingni buzmasligingni tilayman (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Amir Alisherning adab ahliga homiylik qilishi, barcha uchun ilm maskanlari eshigini ochib qo'yganligi natijasi o'laroq, butun Movarounnahr, Xurosondagi ilm shaydolari, talabadan tortib, donishmandgacha uning atrofida jam bo'ldilar. Uzoq-yaqindan to'plangan shoirlar uning majlislarini bezay boshladilar:

*Tu Xizri rahravoni ba donnish-u tahqiq,
Tu Shibliy-u Junayd az daloili atvor.
Shak-u yaqin naburd, roh dar kamolotat,
Ki dar maqomi inoyat namudi istiqror.*

(Sen ilmu-donishda yo'l ko'rsatuvchi Xizrsan, (ya'ni ustozsan). Sen Shibliy va Junayd kavidursan. Kamolotingga hech shubha yo'qdir, chunki inoyat maqomida mahkam o'rnashgandursan (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Barcha ilm-u fan va adabiyot peshvolari Navoiy madadidan sarfarozi va uning xizmatiga hamisha shaydirlar. Ahliy ham ular qatorida Amir Alisherni ulug'lashga va xizmatga hozir edi:

*Rafiq gasht turo fazl-u lutfi yazdoni
Nigohdori tu boshad harosati axyor.
Ba tav' man nakushoyam kamar az in xidmat,
Ba sidq madhi tu koram buvad na az ag'yor.*

(Senga rafiq bo'ldi Yazdon (Xudo) lutfi va fazli, u sening nigohdoring bo'lsin. Men bajonudil sening xizmatigdadurman, sening madhing bilanman, boshqa bilan ishim yo'q (tarjima bizniki – Sh.S.))

Alisher Navoiy kitobat qilishga, husni xatning go'zal va nafis bo'lishiga katta e'tibor bergan. Bunga o'z atrofiga to'plab, ishlariga homiylik qilgan Sulton Ali Mashhadiy, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad Nur, Sulton Muhammad Xandon, Abdul Jamil kabi mashhur xattotlarni misol qilsa bo'ladi [Муродов 1971, 56-57]. Navoiyning o'zi ham insho san'atini mukammal egallagan mohir xattot bo'lgan. Quyidagi baytlar yana bir karra shuning isbotidir:

*Yaqin, rabuda kilki tu surati Monist,
Ki so'zad az hasadash chun xatat kunad izhor.
Az onki kilki tu xol-u xatest mushkinrang,
Bisuxt sad dili sangin-u nasx kard g'ubor.*

Yoki quyidagi satrlarga nazar soling:

*Gar xati tu dida bar sar man nihodam chi ajab,
Zamona bar xati tu sar nihad ba istehzor.
Du didayi ravshan az on bar dari tu soyad charx,
Ki karda sajda zohir turo uluvv al-absor.*

Yoki:

*Gar xati tu dida banda nodiran,
Bar xati tu karda sajda zohiran.*

(Agar xating ko'rib, uni boshga ko'tarsam ne ajab, zamona sening xatingga sajda qiladi-ku. Charx ikki ravshan ko'zini eshigingga surtsa, barcha aqlli, mulohazali kishilar senga bo'yin egadi. Sening xatingni banda kam ko'rsa-da, ko'rgan zahoti xatingga sajda qiladi (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Alisher Navoiy tabiatan muloyim va sabr-qanoatli shaxs sifatida mashhur bo'lgan. Uning bu fazilatlarini, tabiiyki, davlat arbobi uchun benihoya shuhrato-varidir:

*Yaqin ki, kori turo shud z-ilmi shar' asos,
Yaqinki, komi turo shud hilm-u sabr hisor.*

(Shubhasizdirki, shariat hayot yo'lingga asos, muloyimlik va sabr maqsadlarning qal'asidir (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Amir Alisher hech qachon mol-dunyo havasida bo'lmagani ma'lum. "Makorimul-axloq"da keltirilishicha, "906-hijriy yil

boshlarida (1500) Sultoni Sohibqiron (Sulton Husayn Boyqaro) Mozandaron viloyatiga tashrif buyurgan edilar. Hukumat egasi amir Muboriziddin Valibek janoblari nomiga Hirot shahri va uning atrofidagi aholidan zarur xarajat uchun 100.00 dinor kepakiy undirib yetkazish haqida farmon keldi. Ul janob shu mablag'dan 50000 dinorni bulukot dehqonlari va moldorlaridan undirib, qolgan qismini xona boshiga sochish yo'li bilan Hirot ichida istiqomat qiluvchilardan undirishni xayol qildi. Lekin biror ishga davlatli Amirning fikrisiz va maslahatisiz qo'l urilmas edi. Shuning uchun ham ul hazratning noiblaridan birini chaqirtirib, bu fikr ul kishiga – Navoiyga yetkazildi. Ul kishi “Bul fursatda xalq ustiga o'rinsiz soliq solishni oliy darajali sohibqiron davlatiga munosib ko'rmayman” dedilar va shu vaqtning o'zidayoq mazkur mablag'ni xususiy pullaridan berdilar. Xalq esa ul hazratning haqlariga duolar qilib, ul zotga sanolar aytishdi ...” [Хондамир 2015, 117].

Anglashilganidek, uning saxiyligi el tomonidan mamnuniyat bilan qabul etilib, xalqning mehr-muhabbatiga sazovor bo'lgan va Navoiy qayerga bormasin, xalq uchun bayramga, shodiyonaga aylangan:

*Hama muluki jahon banda karda dahrat az on,
Ki hargiz az tu kas nadid istihzor.
Digar z-javdi tu yobad chu olam shodi
ba mardiyu ba karam olame bigir-u bidor.
Buvad ba mardiy digar kase misoli tu kam,
Zamona misli tu kam yobad az hama axyor.*

(Davr sen kabi allomani ko'rmagani sababli, (hayoting tarzi) butun jahon maliklarini o'zigabanda etmishdir. Seningsaxovatingdan olam shodlikka to'ladi. Senga mardlikda teng bo'ladigan odam kam, zamona barcha xayrlilarning ichida sendayini kam ko'radi (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Ahliy bu baytlarni umumlashtirib, ixcham to'rtlik shaklida ifoda eta bilgan:

*Mumkin na, ki hargiz chu tu yobad olam,
Hargiz chu tu kas nadid marde ba karam.
Yobad mardiy digar kase misli tu kam,
Olam ba karam misli tu kam yobad ham.*

(Sendekni topmog'i mushkuldir olam, Hech kim sendek

saxovatli mardni ko'rgani yo'q, Mard topsa (ko'rsa) ham, sen kabisi juda kam, Saxovat olami sen kabini kam ko'radi (tarjima bizniki – Sh.S.)).

Mana shunday qalbi xalq qalbiga payvand, o'rta asrlar zulumatida yorqin yulduz bo'lib porlagan va yetti iqlimga ziyo taratgan ulug' insonning nomi hamisha dillarning to'rida saqlanishi, tillardan tushmasligi Ahliyning qalb tilagi bo'lgan bo'lsa ajab emas:

*Nishoni fazl ba nomi kasest to'g'royash,
Ki solhoyi base der bod-u xohad bud.
Hamisha xotam iqbol-u xutbayi davlat,
Ba nomi Mir Alisher bod-u xohad bud.
Aduyi davlati o' dasti qudratash, yo rab,
Chu dasti dushmani din zer bod-u xohad bud.*

(Fazl nishoni tug'rosi ul nomdadurkim, yana uzoq yillar o'chmasin va hamisha saodat muhri, davlat xutbasi Mir Alisher nomida bo'lsin va shunday bo'lajak. Uning davlati dushmanlarining qudratli dastini din dushmanlarining qo'liday kalta etib, zeriroy etsin va shunday bo'lajak! (tarjima bizniki – Sh.S.))

Quyidagi qit'ada esa Ahliy ko'rgan-eshitganlari va bilganlari asosida xulosa chiqarib, Navoiyning real qiyofasini tasvirlab beradiki, bundan qisqaroq, shu bilan birgalikda, bundan aniqroq va haqqoniyroq qilib kishiga tavsif berish dushvor bir holdir:

*Sarvari mulki karam, hokimi dahr,
Komili korgahi ahli kamol.
Hukmi o' dodi mahomad doda,
Adli o' karda adam gardi malol.
Marhami dardi dili mardumi dahr,
Muslihi holi hama dar hama hol.
Karda masdud dari hirs-u hasad,
Doda dodi havasi ahli kamol.
Avval, o' hamaro hosili umr,
Duvvum, o' adami amri mahol.*

(Karam mulkining sarvari, davr hokimi-yu ahli kamol san'atxonasining piri komili. Uning hukmi tahsinovar odildir, uning odilligi natijasida g'am-anduhlarga chek qo'yildi. U zamona xalqlari dili dardiga hamdarddir. Hamisha barchaga maslahatgo'ydir. U kamol ahli tilagiga yuz ochgandir, U avvalo hammaga umr mazmuni bilan ibratli. So'ng esa barchaning hojatbaroriki, qo'lidan kelmaydigan ish

yo‘q (tarjima bizniki – Sh.S.))

Ko‘rib turibmizki, har misrada Navoiyga xos bo‘lgan fazilatlar o‘z aksini topgan.

Adabiyotlar

- Бертельс, Е.Э. 1965. *Навои и Джами: Избр.труды*. Москва: Наука.
- Муродов, А. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 2011. *Мажолис ул-нафъоис*. ТАТ. 9-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Навоий, Алишер. 2011. *Муҳокамаат ул-луғатайн*. ТАТ. 10-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Roziy, Amin Ahmad. *Haft iqlim*. Qo‘lyozma: O‘zFASHI, № 617.
- Ozar, Lutf Alibek. *Otashkada*. Qo‘lyozma: O‘zFASHI, № 793.
- Хондамир. 2015. *Макорим ул-ахлоқ*. Тошкент.
- Sheroziy, Fursat. 1896. *Osori ajam*. Toshbosma. Hindiston.
- Shushtariy, Nurulloh. XIX asr. *Majolis ul-mo‘minin*. Toshbosma. Tabriz.

The praise (madh) of Alisher Navoi in the qasida by Ahli Shirazi

Shuhrat Sirojiddinov*

Abstract

Among the other genres of classical literature of the East, the genre of the qasida (or qasidah, often translated as ode) is relatively old and played an important role in the development of poetic thinking. Furthermore, the praise (madh) is one of the most widely described issues in classical literature, as well as it developed simultaneously with the genre of qasida (or qasidah, often translated as ode). The issue about the genre of qasida (or qasidah, often translated as ode) and the praise (madh) in the history of our literature is so intertwined that is impossible to imagine them separately. In this research, the author analyzed these two issues together.

This article discusses the qasida (or qasidah, often translated as ode) called masnu' (meaning full of arts) dedicated to Alisher Navoi by Ahli Shirazi, a representative of Persian-Tajik literature. The author emphasizes that the qasida (or qasidah, often translated as ode) written by Alisher Navoi called masnu' (meaning full of arts) inspired Ahli Shirazi, and while analyzing the verses of the qasida (or qasidah, often translated as ode), he proved through historical facts that each verse in the qasida describes the qualities of the poet.

Key words: *qasida (or qasidah, often translated as ode), madh (meaning praise or compliment. The part of the poem that shows approval of or admiration for someone), masnu' (meaning full of arts), tarsi' (literal. The act of decorating with precious stones. But in the poetry, the state of being in tune and rhymed relatively of the words of both verses), poetic methods, tadhkirah (tadhkirah (تذکرة), Arabic for "memorandum" or "admonition").*

References

- Bertels, Y.E. 1965. *Navoi i Djami: Izbr.trudi*. Moskva: Nauka.
Murodov, A. 1971. *O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan*. Toshkent: Fan.
Navoiy, Alisher. 2011. *Majolis ul-nafois*. TAT. 9-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.

* Shuhrat S. Sirojiddinov – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University Of Uzbek Language And Literature Named After Alisher Navoi.

e-pochta: shsirojiddinov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6928-6292

- Navoiy, Alisher. 2011. *Muhokamat ul-lugʻatayn*. TAT. 10-jild. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU.
- Roziy, Amin Ahmad. *Haft iqlim*. Qoʻlyozma: OʻzFASHI, № 617.
- Ozar, Lutf Alibek. *Otashkada*. Qoʻlyozma: OʻzFASHI, № 793.
- Xondamir. 2015. *Makorim ul-axloq*. Toshkent.
- Sheroziy, Fursat. 1896. *Osori ajam*. Toshbosma. Hindiston.
- Shushtariy, Nurulloh. XIX asr. *Majolis ul-moʻminin*. Toshbosma. Tabriz.

Alisher Navoiy oshiqona gʻazallarining badiiy qurilishiga oid oʻziga xosliklar

Husniddin Eshonqulov*

Abstrakt

Maqolada Alisher Navoiyning oshiqona gʻazallarining badiiy qurilishiga oid oʻziga xosliklar tahlillar asosida ochib berilgan. Unda ulugʻ shoirning soʻz takroriga aloqador tasviriy vositalar va qofiya sanʼatlaridan foydalanishdagi mahorati xususida soʻz yuritiladi. Navoiyning Hofiz va Lutfiy singari buyuk salaflari gʻazallaridagi savol-javob uslubidan xabardor boʻlgani holda “Jongʻa chun dermen...” gʻazalida oshiq va maʼshuqa orasidagi anʼnaviy savol-javobni qahramonlararo savol-javob darajasiga koʻtargani, gʻazalda poetik sujetga xos boshlanma, voqealar rivoji, keskinlashuvi, yechim va xulosa singari oʻziga xosliklarni badiiy kashf etgani muayyanlashtirilgan. Ulugʻ shoirning tardi aks sanʼatidan foydalanishdagi badiiy mahorati tahlil etilib, soʻz takroriga asoslangan bu kabi tasviriy vositalar yordamida oshiqona gʻazallarning oʻziga xos semantik-kompozitsion qurilishining hosil qilinishi tahlillar asosida ochib berilgan. Shuningdek, shoirning gʻazal baytlarida ichki qofiyani hosil qilish asosida ijod etilgan musajjaʼ gʻazallarining oʻziga xos xususiyatlari, ulardagi ichki qofiya va ichki radiflarning gʻazalning badiiy qurilishiga taʼsiri hamda Navoiyning musajjaʼ gʻazallari faqat hazaj bahrída emas, rajaz va ramal bahrlarida ham bitilganligi tahlillar asosida ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: *oshiqona gʻazal, badiiy qurilish, soʻz takroriga asoslangan badiiy sanʼatlar, savol-javob, tardi aks, tavzeʼ, musajjaʼ gʻazal, qofiyaga asoslangan badiiy sanʼatlar.*

* *Eshonqulov Husniddin Pirimovich* – filologiya fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat universiteti, Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrası.

e-pochta: husniddin.eshonqulov72@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-4805-3879

Kirish

Alisher Navoiy badiiy ijod, xususan, gʻazalnavislikda shakl va mazmun masalasiga nihoyatda talabchanlik bilan munosabatda boʻlgan. U “Badoye’ ul-bidoya” “Devocha” sida oʻziga qadar ijod etilgan gʻazallarning ayni jihatini tanqidiy ruhda tahlil qilib, gʻoyaviy-badiiy jihatdan yetuk gʻazallar bitish borasida nihoyatda muhim poetik tamoyillarni eʼtirof etadi [Навоий 1987, 19-26]. Ulugʻ shoirning oʻzi taʼkidlaganidek, gʻazal bitishda kompozitsion butunlikka erishish, baytlarni mazmunan bir-biri bilan mantiqan bogʻlash tamoyiliga ilk ijodidayoq qatʼiy amal qilganligi ilmiy tadqiq etilgan. Salaf shoirlar, jumladan, Hofiz gʻazaliyotida kuzatilmagan bu adabiy hodisa qiyosiy-tipologik sathda oʻrganilgan hamda Navoiyning fors-tojik va turkiy adabiyotdan adabiy taʼsirlanshi, anʼanaga munosabati, gʻazalnavislikni shakl va mazmun jihatidan boyitganligi qiyosiy tahlillar asosida koʻrsatib oʻtilgan [Хайитметов 1961, 68-108]. M.Shayxzoda shoir sheʼriyatida kuzatiladigan toʻrt muhim uslubiy yoʻnalish haqida fikr yuritarkan, gʻazallari misolida Navoiy tayangan matladagi fikrni maqtaga qadar tadrijiy rivojlantirish uslubiga alohida eʼtibor qaratadi [Шайхзода 1972, 195-216]. Y.Isʼhoqov Navoiy gʻazallari kompozitsiyasi uning mazmuni va tasvir usullari kabi nihoyatda rang-barangligini taʼkidlab, shoir gʻazallarini asosiy tiplaridan kelib chiqqan holda taʼrif, tavsif, madh va sharhi hol turlarda tasnif etadi. Ularning muhim kompozitsion xususiyatlarini umumlashtiradi [Исхоқов 1983, 54-67]. Navoiy gʻazallari kompozitsiyasi ustida olib borilgan bu ilmiy tadqiqotlardagi muhim umumlashma-xulosalar, tabiiyki, miqdor jihatdan salmoqli oʻringa ega shoir oshiqona gʻazallarining badiiy qurilishiga ham bevosita aloqador sanaladi.

Y.Isʼhoqovning “Navoiy poetikasi” asarida eʼtirof etilgan gʻoyatda muhim ilmiy xulosalari Navoiyning nihoyatda rang-baranglik kasb etgan oshiqona gʻazaliyotining badiiy qurilishiga oid oʻziga xosliklarni ilmiy oʻrganish, ularni tahlillar asosida muayyanlashtirishga yoʻnaltirilgani bilan ahamiyatli. Olim: “... poetikaga doir asarlarda qayd etilgan va ularda uchramaydigan yuzlab poetik vositalarning rang-barang poetik jilosini biz Navoiy gʻazaliyotida kuzata olamiz” [Исхоқов 1983, 64], – deya eʼtirof etadi. Bunday tasviriy vositalar gʻazalning kompozitsion qurilishiga ham, uning semantik strukturasiga ham taʼsir etib, har bir gʻazalning oʻziga xos badiiy qurilishini vujudga keltiradi. Shunday boʻlsa-da, muayyan tasviriy vositalar asosida shakllangan bir necha gʻazallarning poetik qurilishiga oid tipik xususiyatlar, anʼanaga aylangan uslublar

ham mavjudki, Navoiy ularni salaflar ijodidan o'rgangan, ularni yangicha ko'rishlarda rivojlantirgan, ayrimlarida esa o'ziga xos poetik mahoratini namoyon etgan. Masalaning ayni jihatidan kelib chiqib, so'z takroriga aloqador tasviriy vositalar va qofiya san'atlari [Хожиаҳмедов 1999, 218-237] asosida vujudga kelgan ulug' shoir oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid ayrim o'ziga xosliklarni muayyanlashtirishga harakat qilamiz.

Asosiy qism

Atoulloh Husayniyning ma'lumotiga ko'ra, arab fusahosi *"muroja'a"* deya e'tirof etgan savol-u javob badiiy san'atining bir kishi bayoni asosida vujudga keluvchi bir she'rning bir misrasida savol, ikkinchisida javob yoki bir bayt savol-u ikkinchisi javob tarzidagi nav'dan arab-u ajam shoirlari keng foydalanishgan. Ba'zan ajam shuarosi qasidaning boshidan oxirigacha bu san'atning talab-qoidalariga rioya etishgan [Хусайний 1981, 189]. Navoiyning ulug' salaflaridan biri Hofiz devonida ham ayni uslubda bitilgan uch g'azal mavjud. Lirik qahramon – oshiq savoliga ma'shuqa javobi tarzida ijod etilgan bu g'azallardagi savollarda sharhi hol talqini va vasldan umidvorlik g'oyalari badiiy ifoda etilsa, javoblarda ba'zan mutoyiba, aksariyat o'rinlarda esa irfoniy g'oyalarning obrazli in'ikosi badiylashtiriladi. Shoirning *"Guftam: "G'ami tu dorad..."* g'azalidagi *"Guftam", "Gufto"* singari takrorlarning g'azal matlasida 4 bora, qolgan baytlarning misralari boshida aynan takrorlanib, muayyan bir ritmik zarbni vujudga keltirishi g'azalda o'ziga xos badiiy qurilishni hosil qilgan:

Guftam: "G'ami tu doram", Gufto: "G'amat sar oyad",

Guftam, ki: "Mohi man shav!" Gufto: "Agar baroyad".

Guftam: "Zi mehrvarzon rasmi vafo biyomo'z!"

Gufto: "Zi xubro'yoi in kor kamtar oyad".

Guftam, ki: "Bar xayolat rohi nazar bibandam",

Gufto, ki: "Shabrav ast o', az rohi digar oyad".

Guftam, ki: "Bo'i zulfat gumrohi olamam kard".

Gufto: "Agar bidoni, ham o't rahbar oyad"

Guftam: "Xusho havoye, k-az boda subh xezad".

Gufto: "Xunuk nasime, k-az ko'i dilbar oyad".

Guftam, ki: "No'shi la'lat moro ba orzu kusht".

Gufto: "Tu bandagi kun, k-o' bandaparvar oyad".

Guftam: "Dili rahimat kay azmi sulh dorad?"

Gufto: "Mago'y bo kas, to vaqti on dar-oyad".

Guftam: "Zamoni ishrat didi, ki chun sar omad?"

Gufto: "Xamo'sh, Hofiz, k-in g'ussa ham sar oyad"

[Ҳофиз 1983, 289].

Xurshid tarjimasi:

Dedim: "G'aming chekarman". Dedi: "O'tar bu dam ham".

Dedimki: "Menga bo'l oy". Dedi: "Chiqar biror dam".

Dedim: "Vafolilardan o'rgan vafo yo'lini".

Dedi: "Go'zal sanamda mehri vafo bo'lur kam".

Dedim: "Soching isi-la yo'ldan butun adashdim".

Dediki: "Bandalik et bo'lgay nigor Hotam".

Dedimki: "Toza ko'ngling bo'lgay qachon muloyim?"

Dedi: "Jafoga sabr et, shoyad yetar o'shal dam".

Dedim: "Xayoling ila termuldi ko'z yo'lingga".

Dediki: "Tun yurarning so'qmog'i boshqa olam".

Dedim: "Ajab havo bu jannatdan esdi go'yo?"

Dedi: "Bu yor saridan esgan shabada – ko'klam".

Dedim: "Labing mayining orzusi bila o'ldim".

Dediki: "Sabr qilsang, bo'lg'usi dardga marham".

Dedimki: "Aysh-u suhbat ko'rdingki, qanday o'tdi?"

Dedi: "Jim o'lki, Hofiz, kechgay shu qayg'u tamom"

[Ҳофиз 1958, 77].

Asliyat bilan tarjima g'azal solishtirilganida, ulardagi baytlar miqdori teng bo'lsa-da, biroq tartibida sezilarli darajada o'zgarish vujudga kelganligi ko'zga tashlanadi. Tarjimadagi matla', maqta' va ikkinchi bayt asliyatga muvofiq tarzda o'z o'rnini o'zgartirmagan. Asliyatning uchinchi bayti tarjimada to'rtinchi bayt, to'rtinchisi – yettinchi, beshinchisi – uchinchi, oltinchisi – beshinchi va yettinchisi – oltinchi bayt tarzida g'azaldan o'rin olgan. Shunday bo'lsa-da, g'azaldagi umumiy mazmun saqlanib qolgan. Hofiz ijodiga xos g'azalda baytlarning mazmunan o'zaro bog'lanmaganligini tojik adabiyotshunosi A.Mirzoyev g'azalning asosiy ijobiy xususiyati, deb baholaydi Ҳайитметов [1961, 90-91]. Biroq Navoiy yuqorida ta'kidlanganidek, bu holga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Ayonlashadiki, Hofizning she'rlari shoirning o'limidan keyin uning do'sti Muhammad Gulandom tomonidan bir devon tarzida tartib berilgandan so'ng g'azallardagi baytlarning o'zaro mazmunan bog'lanmaganligi bois asrlar davomida ulardagi tartibning o'zgarib ketishiga, ayrim baytlarning yo'qolib qolishiga sabab bo'lgan. Bunga

tarjimonga biz tayangan devonning nashridan boshqa nusxasi mavjud bo'lganligi ham qanoat hosil qildiradi. Ehtimolki, ulug' salaf devoni nusxalaridagi g'azallar matni bilan bog'liq bunday tafovutlar Navoiyga yoshlik chog'laridanoq ma'lum bo'lgani uchun u g'azal baytlarining mantiqan bog'liqligi tamoyiliga amal qilgan holda ijod etishga erta kirishgandir. Negaki, u "Muhokamat ul-lug'atayn"da 15 yoshdan 40 yoshiga qadar o'qimagan devonining oz qolganini so'zlab, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy asarlari qatorida Hofiz devonini ham sevib o'qiganini e'tirof etadi [Навоий 2000, 24].

Hofizning tahlilga tortilgan "Guftam: "G'ami tu dorad..." g'azalidagi lirik qahramonning ma'shuqaga qaratilgan dastlabki jumllarida bir qarashda savol alomati yo'qday tuyuladi. Biroq undagi ohang jumllarning "G'aming chekyapman, axir, – dedim. Endi nima qilaman?" yoki "Vafolilardan vafo yo'lini o'rgansang nima qiladi?" tarzidagi savol mazmunini o'zida mujassamlashtirganini bildiradi. Navoiy salaflar ijodi, jumladan, Mavlono Lutfiy devonidagi: "Dudog'ing ma'dani jondur", – dedim. Aytur: "Sanga ne?!" "Qomating sarvi ravondur" [Лутфий 1987, 184], – dedim. Aytur: "Sanga ne?!" singari savol-javob uslubida ijod etilgan nazmning bu nodir namunalaridan xabardor bo'lgani holda shunday uslubdan mantiqiy izchillikni ta'minlash uchun poetik sujetli "Jong'a chun dermen..." g'azalida foydalanadi. Bu bilan shoir poetik sujet asosida, avvalo, baytlarni mantiqan bir-biriga badiiy bog'lashga erishadi. Ikkinchidan, jonning o'limiga kim yoki nima sabab bo'lganini savol-javob uslubida taftish etish bilan jon va lirik qahramonning tani uzvlarini shaxslantirib, ikki qahramon orasida bo'ladigan an'anaviy savol-javolni obrazlararo savol-javob darajasiga ko'taradi. Lirik qahramon – oshiq asosan o'z o'limiga sababchi bo'lganni aniqlashga qaratilgan savol bilan jon, jism, bag'ir, ko'ngil, ko'zni taftish qiladi. Ishtirokchilarning har biri yuqoridagi sirada nomi o'zidan keyin kelgan qahramonga aybni to'nkab, o'zini oqlaydi. Navbat ko'zga kelganda, lirik qahramon jahlini jilovlay olmasdan uni so'kishgacha borib yetadi. Ko'z esa mahvash tal'atini nogoh ko'rib qolganini yig'lab bayon qiladi. Shunda lirik qahramon jonning shunday o'lim topishi o'zi uchun azalning qismati ekanligiga iqror bo'ladi:

Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?"

Derki: "Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati".

Jismdin so'rsamki: "Bu za'fingga ne erdi sabab?"

Der: "Anga bo'ldi sabab o'tlug' bag'irning hirqati".

Chun bag'irdin so'rdim, aytur: "Andin o't tushti manga

Kim, ko'ngulga shu'la soldi ishq barqi ofati".
Ko'nglima qilsam g'azab, ayturki: "Ko'zdindur gunah,
Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati".
Ko'zga chun dermenki: "Ey tardomani yuzi qora,
Sendin o'lmish telba ko'nglimning baloyu vahshati".
Yig'lab aytur ko'zki: "Yo'q erdi manga ixtiyor
Kim, ko'rundi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati".
Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy
Kim, sanga ishq o'ti – o'q ermish azalning qismati
 [Навоий 1990, 403-404].

Navoiyning muayyan poetik sujet asosida ijod etilgan g'azallari singari ushbu g'azalida ham jonga yo'naltirilgan dastlabki savolda ifodalangan o'ziga xos boshlanma, jism, bag'ir obrazlarining savol-javoblari badiiy talqinida kuzatilgan voqealar rivoji, ko'ngilga nisbatan g'azabda badiylashtirilgan voqelikning keskin tus ola boshlashi, ko'zga nisbatanlangan haqoratomuz istiora va qahrli savol ohangi bilan ifodalangan kulminatsion nuqta, ko'zning yig'lab aytgan javobida o'ziga xos yechim va maqtada voqelikdan chiqarilgan xulosa mavjud.

A.Hayitmetov e'tirofiga ko'ra maqtadan oldingi *"lirik chekinish sifatidagi bayt"* Navoiy g'azallari semantik strukturasi uchun tipik adabiy hodisa sanaladi. Y.Is'hoqov bu baytni shunday nomlashni ma'qul ko'rgani holda uning tavsifiy (ta'rif, madhda ham) g'azallarda *"begona"* yoki *"qistirmali"* ligini [Исхоқов 1983,62] e'tirof etadi. Bizningcha, semantik xususiyatiga ko'ra, majozni haqiqatga aylantiruvchi ko'prik poetik funksiyasidagi bunday baytning tahlilga tortilgan, muayyan sujetga asoslangan yuqoridagi g'azalda mavjudligi kuzatilmaydi. G'azalning maqtadan oldingi baytida lirik qahramon voqeylik davomida o'z o'limiga sababchining *"mahvash tal'ati"* bilan bog'langani bois ayni o'rinda chinakam oshiq sifatida taftishni to'xtatadi, voqeylik sababini qismatdan deb biladi. Bu bilan, o'z-o'zidan majoz haqiqatga ulanadi, shu bois bunday poetik funksiyani bajaruvchi baytga ehtiyoj sezilmaydi. G'azaldagi *"dermen"* va uning ma'nodoshlari sifatida qo'llangan *"so'rsam"*, *"qilsam g'azab"* hamda *"derki"* bilan ma'nodoshlik hosil qilgan *"aytur"* singari so'zlarning takrori savol-javob uslubiga xos poetik funksiyani vujudga keltirib, baytlarning bir-biri bilan mantiqan bog'liqligini ta'minlab turishga ham muayyan darajada xizmat qilgan va aytish mumkinki, Navoiyning *"Jong'a chun dermen"* g'azali o'ziga xos badiiy qurilishga ega bo'lgan g'azal sifatida namoyon bo'lgan.

So'z takroriga asoslanuvchi badiiy-tasviriy vositalar orasida tardi aksning bir g'azalning barcha baytlarida muayyan tartibda qo'llanilishi uning mazmuniga ham, badiiy qurilishiga ham o'ziga xoslik baxsh eta oladi. Bu badiiy san'at xususida Atoullloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" asarida quyidagi fikrlar keltiriladi: *"...Aksni tabdil ham derlar, ba'zilar tardu aks derlar. Ul andin iboratturkim, kalomning bir bo'lagin ikkinchi bir bo'lagin oldig'a qo'yarlar. So'ngra aning aksin qilurlar, birinchi bo'lakning o'rnin ikkinchisiniki bila almashtirurlar. Bu aks bir jumlada bo'lmogi, zarur bo'lsa, aning bir tarafi orasida va mutaallig'ida bo'lmogi mumkin"* [Хусайний 1981, 189]. Ko'chirilgan nazariy ma'lumotlardan anglashiladiki, tardi aks baytda qo'llangan ikki so'zning keyingi o'rinda ularning o'zaro o'rin almashishiga asoslanadi. Atoullloh Husayniyning e'tirof etishicha, tardi aksning ikki jumlada, har ikki misrada so'zlarning o'zaro o'rin almashishiga asoslanuvchi ma'kisi murattab – tartibli aksga xos ko'rinishlari va ma'kisi mushavvash – tartibsiz aks (so'zlar takrori tartibining o'zgargan) shakllari mavjud. Ayni holat teskari qo'llanuvchi so'zlarni ta'kidlash bilan bir qatorda ular vositasida shoir istagan adabiy niyatni kutilmagan tarzda (favqulodda) she'rxonga yetkazilgandek taassurot uyg'otadi. Tabiiyki, bunday nogohoniy holat she'rxon tuyg'ularini junbushga keltiradi. "Badoyi' us-sanoyi'"da tardi aksning lafziy go'zalliklar sirasiga kiritilishining shartli ekanligi uning ana shunday favqulodda ma'no ifodalashidan ham sezilib turadi. Bizningcha, tardi aks vositasida ma'noning mukammallashuvi Navoiy g'azaliyotida tajnis, iyhom, tanosib, ishtiyoq, tazod, ta'did, takrir, kitobot, radd ul-matla', tavzi singari lafziy san'atlarga nisbatan unga ko'proq murojaat etilishiga omil bo'lgan ko'rinadi. Y.Is'hoqov Muhammad binni Umar ar-Rodiyonning "Tarjimon ul-balog'a" (XI asr) asariga tayanib, tardi aksning komil – tugallangan (bayt doirasida qo'llangan) va maxraj – tugallanmagan (misra doirasida qo'llangan) hamda teskari takrorlanuvchi so'z ma'noni kuchaytirishga xizmat qilsa, "tardi ask aksi mutahodiy"; yangi ma'no hosil qilsa, "tardi aks aksi mujriy" deb nomlanishini misollar bilan ko'rsatib o'tadi. Olim tardi aksning ma'noviy xususiyatining bir ko'rinishi bo'lgan tardi aks aksi mujriyini ma'noviy san'atlar guruhiga daxldor deb biladi [Исхоқов 2006, 77-80].

Navoiyning birgina "Navodir ush-shabob" devonidagi olingan to'qqizta g'azalida tardi aks bilan ziynatlangan baytlarning uchrashi bu poetik vosita qayd etilgan xususiyatlariga ko'ra ulug' shoirga nihoyatda qo'l kelganiga amin bo'lamiz. O'n bir g'azalning

(93-, 157-, 174-, 216-, 220-, 229-, 277-, 345-, 366-, 471-, 518-g'azal) matlalarida uchrovchi tardi akslar boshlanma baytlarning ohangdorligini ta'minlashga va shoir adabiy niyatining o'ziga xos tarzda badiiylashtirilishiga xizmat qildirilgan. 485-g'azalning 2-, 451-g'azalning 3-, 502-, 601-g'azallarning 4-, 512-, 514-g'azallarning 7-baytida tardi aksga murojaat etilganligi g'azalning turli baytlarida qo'llanuvchi tardi akslarga misol bo'ladi. Ularning birida oshiqning ruhiy holati tasvirini muayyanlashtirish maqsadida unga yondosh keltirilgan tamsiliy misrada qo'llanilgan tardi aksning maxaraji mujriy – shaklan tugallanmagan, ma'naviy yangi ko'rinishi e'tiborga loyiqdir:

Dog'u qonlig' chok-chok o'lg'on ko'nguldadur g'aming,
Lola tog' ichra bo'lur, kim ko'rdi lola ichra tog'

[Навоий 1989, 298].

Baytda quyidagi mazmun o'z ifodasini topgan: Sening g'aming dog'-u chok-chok bo'lgan bu qonli ko'nglimdadir. Holbuki, lola tog' ichida bo'ladi, lola ichida tog' bo'lganini kim ko'rgan?! Tardi aksli misradan anglashiladiki, ko'ngildagi g'am tog'dek ulkan.

“Navodir ush-shabob”dagi 39-g'azalning 2-, 5-, 46-g'azalning 2-, 3-, 49-g'azalning 2-, 3-, 5-, 229-g'azalning 1-, 4-, 6-, 245-g'azalning 3-, 5- va 8-baytlaridagi tardi akslar g'azalning ikki va undan ortiq baytlarida bu tasviriy vositaning qo'llanganiga misol bo'lib, tardi aks, chindan-da, Navoiyning sevimli badiiy-tasviriy vositasiga aylanganidan darak beradi. Eng muhimi, Navoiy oshiqona g'azallarining ayrim namunalarini boshdan oxir tardi aks badiiy san'atining imkoniyatlari bilan ziynatlab, unga o'ziga xos badiiy qurilish va joziba baxsh etishga erishadi. Bu noyob adabiy hodisa Navoiyga xos yuksak san'atkorlikning bir namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ulug' shoirning “G'aroyib us-sig'ar” devonidan o'rin olgan “*Ko'zung ne balo qaro bo'luptur Kim, jonga qaro balo bo'luptur*” [Навоий 1988, 145] matlali yetti baytdan tarkib topgan g'azali tardi aks badiiy san'ati asosida ijod etilgan oshiqona g'azalning noyob namunalaridan biridir. Ushbu matla' “*Insoniyat va xushaxloqlikda Xuroson va Samarqand mulkida yagona*” [Навоий 1997, 63] bo'lgan shoir yigit Mirzoxonning qalamiga mansub bo'lib, iste'dodli bu yosh qalamkashning foniy dunyoni erta tark etishi Navoiyga juda qattiq ta'sir ko'rsatadi, “*zulqofiyatayn va qofiyalari tardi aks*” [Навоий 1997, 63] tarzida bitilgan bu g'azalga ulug' shoir javob yozib o'z

devoniga kiritadi:

*Ko'zung ne balo qaro bo'luptur
Kim, jong'a qaro balo bo'luptur.
Majmu'i davoni dard qildi
Dardingki, manga davo bo'luptur.
Ishq ichra aning fidosi yuz jon,
Har jonki, sanga fido bo'luptur.
To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sari anga havo bo'luptur.
Boqiy topar ulki, bo'ldi foni,
Rahravg'a fano baqo bo'luptur.
To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo'luptur [Навоий 1988, 145].*

Ilk misradagi "ko'zning ne balo qaro bo'l"ishida qo'llangan "balo" "bunchalar" ma'nosini anglatrsa, keyingi misradagi jonga "qaro"ning "balo bo'l"ishida esa bu so'z o'z ma'nosida qo'llanib, ma'shuqa qora ko'zlarining go'zalligini, ayni choqda jonga ofat solishini ifodalashda nihoyatda qo'l kelgan. Ayni holat Navoiyni ham ilhomlantirgan. Ulug' shoir yosh iste'dod sohibining xotirasi hurmati uchun matlani tazmin sifatida tanlab, g'azalning 2-, 4-, 6-7-baytlarini tardi aksning komili mujriy – shaklan tugallangan, ma'naviy yangi, 3-, 5-baytlarini esa komili mutahodiy – shaklan tugallangan, ma'naviy takror ko'rinishlari bilan bezagan. Undagi ohangning o'ynoqiligi, mubolag'aviy tasvir, zid va ta'kid ma'nolarining teskari takrorlanuvchi so'zlar vositasida ifodalanishi oshiqona g'azalning o'ziga xos ritmi va kompozitsiyasini hosil qilib, she'rxonni zavqlantirishga omil bo'lgan.

Navoiyning tardi aks va so'z takrori asosida o'ziga xos badiiy qurilishi hosil qilingan g'azallaridan yana biri "*Har labing o'lganni tirguzmakda, jono, jon erur*" satri bilan boshlanuvchi oshiqona g'azalidir. Asosan jon va jonon so'zlarining, faqat bir baytda esa jon-u jahon so'zlarining teskari takroridan paydo qilingan tardi akslar g'azalda undosh tovushlar takroridan vujudga keluvchi tavze' badiiy san'atini ham hosil qilgan. Natijada bir xil tovushlar takroridagi uyg'unlig-u shunday tovushlari mavjud bo'lgan so'zlarning teksari takrorlanib ta'kidlanishidan hosil qilingan ko'tarinki ruhdagi o'ziga xos ohang g'azalning badiiy qurilishiga sezilarli ta'sirini ko'rsatgan:

Har labing o'lganni tirguzmakda, jono, jon erur,

Bu jihatdin bir-birisi birla *jonojon* erur.
Jonim andoq to'ldi *jonondinki*, bo'lmas fahmkim
Jon erur *jonon* emas, yo *jon* emas, *jonon* erur.
 Bo'lsa *jonon* bordurur *jon* ham chu *jonon* qildi azm,
Jon ketib *jonon* bila *jondin* manga hijron erur.
Jon manga *jonon* uchundur, yo'qki *jonon jon* uchun,
 Umr *jononsiz* qatiq, *jonsiz* vale oson erur.
 Borsa *jonon jon* yitar, gar borsa *jonon, jon* ketar,
 Kimsaga *jononu jonsiz* umr ne imkon erur.
 Xushturur *jon-u jahon jonon* bila, *jonon* agar
 Bo'lmasa *jon* uylakim, o'lmas *jahon* zindon erur.
Jonim ol, ey hajr-u *jononsiz* manga *jon* istama,
 Chunki *jononsiz* Navoiy *jonidin ranjon* erur
 [Навоий 1988, 149].

G'azalda lirik qahramon – oshiqning vaslga ishtiyoqmandligi, vasf etilayotgan ilohiy mazhar jonon timsolida ruhi mutlaq bilan tavhid hosil qilish oshiqning asosiy maqsadiga aylangani, usiz hijron iztiroblarida qiynalishi-yu, jahonning zindonga aylanishi bilan bog'liq irfoniy g'oyalarning "jon", "jonon", "jahon" singari so'zlarning muayyan takrori asosida badiiy ifodalanishi Navoiy nuqtadonligining muhim bir ko'rinishi sanaladi. Tardi aksga tayanib yangi ma'no ifodalash shoirdan mumtoz ijodkorlarimiz tomonidan nihoyatda qadrlangan so'zning ochiq, ravshan, chiroyli, qoidalarga mos kelishi va nozik, ohorli, teran ma'nolarni mahorat bilan ifodalash talablarini o'zida mujassamlashtirgan fasohat-u balog'atda salohiyat sohibi bo'lishni talab etadi. Ulug' shoir ushbu g'azalda asosan "jon" va "jonon" bir bayt doirasidagina "jahon" so'zini muayyan badiiy san'atlar talablari asosida bir g'azal doirasida takror qo'llab, yangi ma'nolarni ifodalab borish bilan cheklanmay, baytlar ketma-ketligida ta'kidlarni kuchaytirib borish bilan ham yana yangicha ma'nolarni kashf etdi hamda oshiqona g'azalning o'ziga xos kompozitsiyasini hosil qildi. G'azalning 1-, 4-baytlarida tardi aksning komili mujriy nav'i qo'llanganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, matladagi "jonojon" lablarning bir-biriga mahkam qovushib turishini ifodalash bilan bir qatorda, pirning aksariyat holatda sir tutiluvchi ilohiy ma'rifatga kon so'zini, ilohiy sir bilan bog'liq irfoniy ma'noni ham o'zida ifodalagan. To'rtinchi bayt doirasidagi takrorlar komili mujriy bo'lsa, baytning birinchi misrasidagi takrorlar maxrajiy mujriy namunasi sifatida baytdagi "j" va ayniqsa, unda salmoqli o'rin tutuvchi "n" tovushiga xos tavze'ning go'zal namunasi hosil qilgan.

Uchinchi baytda shunday tavze' takrorlanuvchi so'zlar qatoriga "hijron" beshinchi baytda "imkon", oltinchi baytda esa "zindon" ning qo'shilishi bilan boshqa baytlarda qofiyalanuvchi so'zlardagi "j", "n" tovushlari bilan mukammallashgan. Beshinchi baytda "jon" va "jonon" so'zlari vositasida tardi aks hosil qilinmagan bo'lsa-da, ularning baytdagi takroridan tavze' vujudga kelgan. G'azalning 2-, 3-, 6-, 7-baytlarida komili mutahodiy qo'llangan. Shunday esa-da, uning 2-bayti juft misrasidagi takrorlar o'ziga xos ohang bilan tavhid ma'nosini badiiy ifodalagan. Ko'rinadiki, ulug' shoir tardi aksning shakliga ko'ra ham komil, ham maxraj, ma'naviy xususiyatiga ko'ra mujriy va mutahodiy nav'laridan, shuningdek, so'z takrori va tavze' badiiy san'atidan nihoyatda mohirlik bilan foydalanib, oshiqona g'azalning g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammal, o'ziga xos badiiy qurilishga ega bo'lgan namunasini ijod etgan.

Y.Is'hoqov "Navoiy poetikasi" da shoirning qofiyaga g'oyaviy-estetik funksiya tashuvchi vosita sifatida yondashib, g'azalda uning katta imkoniyatlarini namoyish qilganini e'tirof etadi [Исхоқов 1983, 65]. Ayni holat ma'shuqaga xos istioralashgan epitetlarning qofiya funksiyasini bajarishida ham kuzatiladi. Navoiyning oshiqona g'azallari badiiy qurilishiga oid yana bir o'ziga xosligi har bir baytdagi misralari qofiyadosh bo'laklardan tashkil topgan bir qator musajja' g'azallarning ijod etilishida namoyon bo'ladi. Bu adabiy hodisaning shoir davriga qadar nihoyatda oz ko'rinishda amalda bo'lganligini Boburning quyidagi qaydlari dalillaydi:

"Bu vaznda (hazaj bahri nazarda tutilgan – H.E.) musajja' g'azal ham kam aytibturlar. Mir Alisher bir necha g'azal aytibtur, ul jumladan bir lo'li yigitning ta'rifida bir g'azal voqe' bo'lubtur:

*Ne lo'livashdur ul qotilki, qon to'kmakkadur yaksar,
Qiyo boqmoqlari poki, itik mujgonlari nashtar.
Yuzidinkim xijildur gul, parishon har taraf kokul,
Sochib gul barg uza sunbul, to'kub kofur uza anbar.
Chu lab asbobini tuzdi, salomat rishtasin uzdi,
Qamardek hola ko'rguzdi, uzori davrida chanbar..."*

[Боёры 1971, 240].

Musajja' g'azaldagi ichki qofiyalar misralarning muayyan o'rnida – ularning o'rtasidagi ruknda hamda toq misralar oxirida keladi, natijada bayt to'rt qismdan iborat bo'ladi. Buning uchun g'azal to'rt hijodan tarkib topgan ruknlarning musammani solim o'lchovida bitiladi. Bunday vazn baytdagi misralarni asosiy va

ichki qofiya yoki radif bilan teng miqdorda to'rtga bo'lish imkonini hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan g'azaldagi matlada sajli qofiya kuzatilmaydi. Bu Navoiyning aksariyat musajja' g'azallari uchun xos xususiyat sanaladi. Ikkinchi baytda "gul", "kokul", "sunbul" keyingi baytda esa "tuzdi", "uzdi", "ko'rguzdi" so'zlari ichki, juft misralardagi "anbar", "chanbar" so'zlari asosiy qofiyani vujudga keltirgan.

Ulug' shoirning Bobur e'tirof etganidek, hazaji musammani solim vaznida yozilgan "*Masihodin labing afsah, quyoshtin orazing ahsan*" satri bilan boshlanuvchi quyidagi g'azalining matlasi to'liq bo'lmasa-da, ichki qofiya bilan bezatilgani kabi g'azalda matlaga o'xshash va unga yaqin shakldagi musajja' qofiyali baytlarning mavjudligi kuzatiladi. Bunga matndagi ichki va asosiy qofiyalarni ajratib ko'rsatganimizga tayanib, qanoat hosil qilish mumkin:

Masihodin labing *afsa*h, quyoshtin orazing *ahsan*,
 Quyoshingga falak *hayron*, Masihingga quyosh *maskan*.
 Ko'zumda gardi *maydoning*, tanimda naqdi *paykoning*,
 Anga ko'z mardumi *xozin*, munga jon kulbasi maxzan.
 Yasarmen yuz malohat, *vah*, bo'lur ko'rgach ani *nogah*,
 Ko'zum hayron, tanim *larzon*, esim volih, tilim alkan.
 Shikeb-u sabr uyin *buzdiki*, ruxsorinda *ko'rguzdi*
 Xatidin nur uzu zulmat, yuzidin o't aro gulshan.
 To'karsen qon *ko'zung* birla, berursen jon *so'zung* birla,
 Ajoyib zufununisenki, har fan ichra sen yakfan.
 Malomat toshi *dog'idin* yorudi ishratim sham'i
 Ajab ko'kurd *o'tidin* ayladim bu sham'ni ravshan.
 Yasarda sun' me'mori falak g'amxonasin go'yo
 Ki, qildi dard-u g'am kirmakka har kavkabni bir ravzan.
 Sen istab Xizr umri, turfa bukim, gunbadi xazro
 Yuziga tun qorasin surtibon aylar sanga shevan.
 Navoiy asrabon *tamkin*, kishidin istama *tahsin*,
 Chu shah ko'rguzdi istihson, ko'rub nazmingni mustahsan
 [Навоий 1988, 380].

G'azal matlasining ilk misrasidagi "fasih so'zlovchi", "so'zga chechan" ma'nolarini ifodalovchi "afsa" asosiy qofiya sanalgan, shu misra oxiridagi "eng go'zal" ma'nosidagi "ahsan" so'zi bilan garchi qofiyadosh bo'lmasa-da, "afsa" ikkinchi ruknning so'nggi ikki hijosini hosil qilgani va "ahsan" bilan hijolarining miqdori tengligi sabab ichki qofiyaga xos ohangdorlikni vujudga keltira olgan. Shu bois bu so'zlarning bir qarashda qofiyadosh emasligi sezilmaydi. Xuddi shunday holat ikkinchi misradagi "hayron" va "maskan"

so'zlari orasida hosil qilingan. Shu bois ushbu matladagi qofiyadosh so'zlar bilan hosil qilingan ohangni musajjadan tamomila yiroq deb baholash qiyin. To'qqiz baytli g'azalning 7-, 8-baytlarigina musajjaga xos badiiy-estetik talablardan tamomila yiroq holda ijod etilgan. G'azalning 2-bayti, xususan, maqtasida musajja' talabi to'laligicha o'zini namoyon etgan. Uchinchi baytdagi 3-ichki qofiyada saktalik mavjudligi kuzatiladi, biroq "larzon" so'zi bilan ifodalangan bu qofiya vazifasidagi so'z ichki qofiyagamas, baytdagi g'azalning asosiy qofiyadoshi "alkan" bilan to'la bo'lmagan ohangdoshlikni hosil qilgan. 4-, 5-baytlarning birinchi misralarida ichki qofiya bo'lgani holda, 6-baytda bu holat birinchi va uchinchi ichki qofiyadoshlar orasida saqlangan. Ta'kidlash mumkinki, qofiya bilan bog'liq yuqorida sanab o'tilgan jihatlar g'azalda musajja' ohangi ustuvorligini ta'minlagan.

Hazaji musammani solim vaznida bitilgan "*Sevungil, ey ko'ngul...*" nomli 7 baytli madh mazmunli quyidagi g'azalning matlasidan bo'lak barcha baytlari musajja' g'azalga xos sajlangan:

Sevungil, ey ko'ngul, oxirki jisming ichra jon keldi.
Quvon, ey joni mahzunkim, hayoti jovidon keldi.
Safardin ul pariy yetti, meni mahzunni shod etti,
Ko'nguldin eski g'am ketti, tan ichra yangi jon keldi.
Xirad, yig' bu masofingni, tahammul, qo'y g'azofingni,
Vara', tark ayla lofingniki, oshubi jahon keldi.
Damekim andin ayrildim, ko'ngulni mahrami qildim,
Bugun keldi ko'ngul, bildimkim, ul nomehribon keldi.
Keliptur yoshurun ul shah, meni majnun eman ogah,
Pariy ermas esa, bas, vah, nechuk ko'zdin nihon keldi.
Falak boqdi fig'onimg'a, ajal rahm etti jonimg'a,
Xazonlig' bo'stonimg'a guli bog'i jinon keldi.
Mug'anniy bir navoye tuz, Navoiy nag'maye ko'rguz,
Ayoqchi, tomsa tut, to'qquzki, doroyi jahon keldi

[Навоий 1988, 451-452].

Navoiyning oshiqona mazmundagi musajja' g'azallari mustaf'ilun ruknining baytda sakkiz marta to'liq takroridan hosil bo'lgan rajazi musammani solim vaznida ham bitilgan. Shoirning "*Tandin o'qungni cheksalar...*" g'azali shu vaznda yozilgan bo'lib, uning matlasi musajja' g'azalga xos sajlanmagan, qolgan baytlar esa musajja' g'azalning estetik talablariga to'la javob beradi:

Tandin o'qungni cheksalar, og'rirdin ermas shevanim,

Andin qilurmen navhakim, ayru tushar jondin tanim.
 Gulxan kuli ichra *nihon*, jismim junundindur *nishon*,
 To telbalik barqi *ayon* bo'lg'ach kuyuptur xirmanim.
 To ishq aro *afsonamen*, o't ichraki devonamen,
 Ul sham' uchun *parvonamen*, bo'lmish o'rtanmak fanim.
 Ul sho'x sekritt *samand*, ermas nasihat *sudmand*,
 Har do'st bersa emdi *pand*, uldur ulug'roq dushmanim.
 May ichkali ul *no'shlab* zohir qilur har dam *tarab*,
 Bu nav' ochilmoq ne *ajab*, andoq su ichkan gulshanim.
 Chun odamiyda yo'q *vafo*, ko'r ul pariy ishq *aro*
 Javlangahim dashti *fano*, vayronayi g'am maskanim.
 G'am tig'idin qochmoq *havas* qilma Navoiy har *nafas*,
 Ul tiyg'ing daf'iga *bas*, yuz pora xirqa javshanim
 [Навоий 1988, 334-335].

Navoiyning "*Qoshi yosinmu deyin...*" g'azali shu janrda bitilgan badiiy qurilishi jihatidan takrorlanmas o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan oshiqona g'azaldir. Uning baytlarida shoirning ayrim g'azallarida kuzatiladigan sajlanish va o'ziga xos qofiya tizimi mavjud:

Qoshi *yosinmu* deyin, ko'zi *qarosinmu* deyin,
 Ko'nglima har birining dard-u *balosinmu* deyin?
 Ko'zi *qahrinmu* deyin, kiprigi *zahrinmu* deyin,
 Bu kudurat aro ruxsori *safosinmu* deyin?
 Ishq *dardinmu* deyin, hajri *nabardinmu* deyin,
 Bu qatiq dardlar aro vasli *davosinmu* deyin?
 Zulfi *dominmu* deyin, la'li *kalominmu* deyin,
 Birining qaydi, yana birining *adosinmu* deyin?
 Turfa *xolinmu* deyin, qaddi *niholinmu* deyin,
 Moviy ko'nglak uza gulrang *qabosinmu* deyin?
 Charx *ranjinmu* deyin, dahr *shikanjinmu* deyin,
 Jonima har birining javru *jafosinmu* deyin?
 Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfin et,
 Qoshi *yosinmu* deyin, ko'zi *qarosinmu* deyin?

[Навоий 1989, 349-350]

Bu g'azal boshqa musajja' g'azallardan farqli ravishda ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida bitilgan. 15 hijodan tarkib topgan bu g'azalning musajjalik kasb etishi uchun ichki qofiya bilan bir qatorda undagi ichki radiflar ham muhim poetik funksiya bajargan. G'azalning maqtadan tashqari barcha baytlarining ilk misrasi musajja' qofiyani hosil qilgan bo'lib,

uning maqtasi radd ul-matla' badiiy san'ati bilan ziynatlangan. Musajjaga xos baytlarni 4 ga ajratish uchun toq misralarda qo'llangan ichki radif doimo ikkinchi ruknning so'nggi hijosidan oldingi hijoda nihoyalanib, g'azalda o'ziga xos ohangdorlikni vujudga keltirgan. Eng muhimi, g'azalning asosiy qofiyalari ham o'ziga xos bo'lib, bunday qofiyalanish tizimi boshqa g'azalda uchramaydi. *"Qoshi yosinmu deyin..."* g'azalidagi maqtaning ilk misrasidan boshqa barcha misralar o'zaro qofiyalanib (a-a a-a a-a a-a a-a b-a), bu oshiqona g'azalga o'ziga xos badiiy qurilish hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday qilib, bu g'azal ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan, musajja' g'azal sifatida o'ziga xos qofiyalanib, ichki radifga ega bo'lgan, maqtadan oldingi misragina ochiq qoldirilib, qolgan misralar o'zaro qofiyalangan, maqtasi radd ul-matla' san'ati bilan ziynatlangan o'ziga xos badiiy qurilishga ega, tavsifiy mazmunda bitilgan oshiqona g'azaldir.

Xulosa

Kuzatishlardan ayonlashadiki, Navoiy so'z takroriga aloqador tasviriy vositalar va qofiya san'atlariga tayanib, o'ziga xos badiiy qurilishga ega bo'lgan oshiqona g'azallarining benazir namunalarini ijod etdi.

Shoirning *"Jong'a chun dermen..."* g'azalidagi poetik sujetga xos boshlanma, voqealar rivoji, voqeylikni keskin tus ola boshlashi, kulminatsion nuqta, o'ziga xos yechim va maqtada voqeylikdan chiqarilgan xulosa unsurlarini o'zi inkishof etgan qahramonlararo savol-javobga tayanib, tadrijiylikni yuzaga chiqargani yuksak san'atkorlikning bir namunasidir. Bu bilan u oshiqona g'azalni o'ziga xos badiiy qurilish bilan tadrijiy rivojlantirdi.

Navoiyning bunday mahorati tardi aksning shakliy va ma'naviy nav'lari, tavze' va takrirdan mahorat bilan foydalangan *"Ko'zing ne balo qaro bo'luptur"*, *"Har labing o'lganni tirguzmakda, jono, jon erur"* g'azallarining o'ziga xos badiiy qurilishida ham namoyon bo'lgan. Shuningdek, u hazaj, rajaz va ramal bahrlarida bitilgan musajja' g'azallari, ayniqsa, ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan, musajja' g'azal sifatida o'ziga xos qofiyalanib, ichki radifga ega bo'lgan, maqtadan oldingi misrasigina ochiq qoldirilib, qolgan misralar o'zaro qofiyalangan, maqtasi radd ul-matla' san'ati bilan ziynatlangan, tavsifiy mazmunda bitilgan *"Qoshi yosinmu deyin"* g'azali bilan oshiqona g'azalning o'ziga xos badiiy qurilishini kashf etdi.

Adabiyotlar

- Бобур. 1971. *Мухтасар*. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент: Фан.
- Исҳоқов, Ё. 1965. *Навоийнинг илк лирикаси*. Тошкент: Фан.
- Исҳоқов, Ё. 1983. *Навоий поэтикаси*. Тошкент: Фан.
- Исҳоқов, Ё. 2006. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: ZARQALAM.
- Лутфий. 1987. *Сенсан севарим*. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Навоий, А. 1987. *Бадойеъ ул-бидоя*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 1-том. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 1988. *Ғаройиб ус-сиғар*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 1989. *Наводир уш-шабоб*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 4-том. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 1990. *Фавойид ул-кибар*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 6-том. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 1997. *Мажолис ун-нафос*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 13-том. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 2000. *Муҳокамат ул-мутаҳаййирин*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 16-том. Тошкент: Фан.
- Ҳайитметов, А. 1961. *Навоий лирикаси*. Тошкент: Фан.
- Ҳожиаҳмедов, А. 1999. *Мумтоз бадият малоҳати*. Тошкент: “Шарқ” нашриёт матбаа концерни бош таҳририяти.
- Ҳофиз, Шамсуддин Муҳаммад Шерозий. 1958. *Ғазаллар*. Тошкент: Ўзбекистонда нашр.
- Ҳофиз, Шерозий 1983. *Куллиёт*. Мураттиби китоб ва муаллифи сарсухан Жамшед Шамбезода. Душанбе: Ирфон. 1983.
- Ҳусайний, Атоуллоҳ. 1981. *Бадойиъу-с-санойиъ*. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Шайхзода, М. 1972. *Асарлар*. Олти томлик, 4-том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

Peculiarities of the artistic construction of Alisher Navoi's romantic ghazals

Husniddin Eshonqulov*

Abstrakt

The article reveals the peculiarities of the artistic structure of Alisher Navoi's romantic ghazals based on the analysis. It deals with the great poet's skill in the use of visual aids and rhyming techniques related to word repetition. Navoi, aware of the question-and-answer style in the ghazals of his great predecessors such as Hafiz and Lutfi, raised the traditional question-and-answer session between the lover and the lover in the ghazal "Jong'a chun dermen..." It is defined as the artistic discovery of peculiarities, such as the beginning, the course of events, rising actions, climax, and the conclusion. The artistic skills of the great poet in the use of the art of *tardi'aks* are analyzed, and the analysis of the formation of a unique semantic-compositional structure of romantic poems with the help of such pictorial means based on word repetition is revealed. The analysis also reveals the peculiarities of the *musajja* ghazals based on the poet's ghazal verses, the influence of the rhyme and internal *radifs* on the artistic structure of the ghazal, and the fact that Navoi's *musajja* ghazals were written not only in the *hazaj*, but also in the *rajaz* and *ramal*.

Kalit so'zlar: *romantic poem, artistic construction, word-based art, question-answer, tardi aks (alternating repetition of two or more words in a verse), tavze (harmony formed by the repetition of the same sounds), musajja 'ghazal (a type of ghazal in which internal rhymes are formed in ghazal verses), rhetorical arts.*

References

- Bobur. 1971. *Muxtasar*. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. Toshkent: Fan.
Is'hoqov, Y. 1965. *Navoiyning ilk lirikasi*. Toshkent: Fan.
Is'hoqov, Y. 1983. *Navoiy poetikasi*. Toshkent: Fan.
Is'hoqov, Y. 2006. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: ZARQALAM.

* *Husniddin Eshonqulov* – Head of the Department of Uzbek Language and Literature, Doctor of Philology, Associate Professor, Bukhara State University.
e-pochta: husniddin.eshonqulov72@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-4805-3879

- Lutfiy. 1987. *Sensan sevarim*. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Navoiy, A. 1987. *Badoye' ul-bidoya*. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 1-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 1988. *G'aroyib us-sig'ar*. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 3-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 1989. *Navodir ush-shabob*. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 4-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 1990. *Favoyid ul-kibar*. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 6-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 1997. *Majolis un-nafois*. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 13-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 2000. *Mukokamat ul-lug'atayn*. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 16-tom. Toshkent: Fan.
- Hayitmetov, A. 1961. *Navoiy lirikasi*. Toshkent: Fan.
- Hojiahmedov, A. 1999. *Mumtoz badiiyat malohati*. Toshkent: "Sharq" nashriyot manbba konserni bosh tahririyati.
- Hofiz, Shamsuddin Muhammad Sheroziy. 1958. *G'azallar*. Toshkent: O'zdamnashr.
- Hofiz, Sheroziy. 1983. *Kulliyot*. Murattabi kitob va muallifi sarsuxan Jamshed Shambezoda. Dushanbe: Irfon.
- Husayniy, Atoulloh. 1981. *Badoye'u-s-sanoyi'*. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Shayxzoda, M. 1972. *Asarlar*. Olti tomlik, 4-tom. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Haririy maqomalarida Qur'oniyl iqtiboslar

Murtazo Saydumarov*

Abstrakt

Maqolada o'rta asr arab badiiy so'z san'atining asosiy shakllaridan biri bo'lgan saj' – qofiyali nasrda bitilgan Abu Muhammad al-Qosim al-Haririy (1054-1122) ning maqomalarida qo'llanilgan Qur'oniyl iqtiboslar tahlil etiladi. Ma'lumki, Qur'oni Karim barcha o'rta asr arab va musulmon dunyosidagi boshqa xalqlarning adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Nafaqat diniyl mazmundagi adabiyotlar va musulmon qonunchiligiga doir risolalar islom ruhini aks ettirib, Qur'oniyl iqtiboslar bilan boyitildi, balki o'rta asr badiiy so'z san'atining boshqa asarlarida ham bunday ta'sir kuzatiladi. O'rta asr arab adabiyotida so'zga chechanlik, abjirlik, turli sohalar dai bilimdonlik, zohidlik va boshqa mavzulardagi arab novellalarining eng mukammali hisoblanmish Haririy maqomalari misolida mana shu jihatni ko'rib chiqamiz. Maqomalarda asosan ikki muhim personaj – roviyl va bosh qahramon nutqida ishlatilgan qur'oniyl iqtiboslarning turli holat, mavzu va munosabatlarda mohirona qo'llanilgani, bosh qahramonning ushbu Qur'oniyl iqtiboslar orqali o'z qilmishlarini oqlashi tahlil qilib beriladi.

Kalit so'zlar: *o'rta asr arab adabiyoti, klassik arab adabiyoti, maqoma janri, saj', qofiyali nasr, al-Haririy, qur'onshunoslik, matnshunoslik.*

* Saydumarov Murtazo Goziyevich – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiyl nomidagi Toshkent davlar o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Sharq tillari kafedراس.

e-pochta: msaydumarov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-3528-9572

Kirish

Maqomalar janr sifatida shakllangan davridan boshlab to shu kunga qadar arab adabiyotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Ushbu janr asoschisi deb Badi'-uz-Zamon al-Hamadoni (969–1057) tan olinadi. Lekin maqoma janri Haririy ijodida janr rivojlanishining eng cho'qqisiga erishgan [Talimat 1957, 8] deb hisoblanadi.

Maqomalar saj', ya'ni qofiyali nasrda yozilgan. Uning har jumlasini o'nlab metafora, o'xshatish, muvozana (parallelizm), mubolag'a, kinoya, maqollar va Qur'ondan ko'chirmalar bilan boyitilgan. Bu xildagi asarlar mualliflari hikoya qilish jarayonida arab tili lug'at boyligidan keng foydalanib, so'z o'yini va arab yozuvi xususiyatlarini mohirona qo'llaydilar.

Shu jihatdan ham maqomalar qahramoni – yolg'onchi va shungina emas, balki yuksak ma'lumotli shaxs, u fiqh, shariat, sarf va nahv, notiqlik, nazm sohalarida chuqur bilimga ega bo'lgan mohir shoir va notiq hamdir, uning nutqi xoh nazmiy bo'lsin, xoh nasriy, maqomalarining yuqori nuqtasini tashkil etadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Haririy maqomalari uning zamondoshi bo'lgan hamyurtimiz mashhur alloma Mahmud Abulqosim Zamaxshariy (1074–1143) ijodiga ham salmoqli ta'sir ko'rsatgan. U keyinchalik an'anaga aylangan al-Hamadoni va Haririy asarlaridan farqli o'laroq, bu janrga yangi yo'nalish beradi. Zamaxshariy maqomalari ilmiy qadriyatga ham egaki, ular o'rta asr tarixi, islom qonunchiligi va tilshunosligi kabi boshqa sohalarida jiddiy manba' vazifasini o'taydi.

Arab adabiyotida ko'plab mualliflar Hamadoni va Haririyga taqlid qilishga uringan, lekin ular darajasiga ko'tarila olmagan. Bu janr asarlari hatto XX asrda ham yaratildi, maqoma janriga murojaat etgan yetmishdan ortiq adib ma'lum. Hozirgi davrda ham maqoma janriga taqlid qilishga urinishlar uchrab turadi¹.

Muallif, odatda, bir necha o'nlab maqomalardan iborat to'plamni yaratadi. Har bir maqoma mustaqil, tugal voqea mazmuniga ega. Barcha maqomalarni doimiy ishtirok etuvchi ikki qahramon o'zaro bog'lab turadi. Bularning birinchisi – maqomalarda asosiy ishtirok etuvchi shaxs – ma'lumotli, quvnoq, topqir va beg'am daydi. O'zining nutqi bilan u o'z atrofida odamlarni to'plab, gapga chechanligi va so'zamolligi bilan ularni o'ziga maftun etadi, so'ngra aldab ularning pulini, molini oladi.

1 Saudiyalik arab adibi Muhammad al-Xunaynining ba'zi maqomalari 2020-yil may oyi / 1441-hijriy yil ramazon oyida Saudiya Arabistoni Riyoz radiosida o'qib eshittirildi.

Har bir maqomada bosh qahramon yangi shaharda paydo bo'ladi, ko'pincha maqoma o'sha shahar nomi bilan ataladi. Maqomalaridagi voqealar sahnasi – ko'pincha, bozor, masjid, qozixona, chorraha, bir so'z bilan aytganda odam gavjum bo'ladigan joy.

Ikkinchi doimiy qahramon – roviy. Uning nomidan butun maqomalar to'plamidagi voqealarni hikoya etish amalga oshiriladi. Odatan, u savdogar bo'lib, shaharma shahar kezadi va har safar yangi ko'rinishda paydo bo'ladigan bosh qahramonni uchratadi. Ba'zan roviyning o'zi ham bosh qahramonning tuzog'iga tushsa-da, shunga qaramay ko'ngli qahramon tomonida bo'ladi. Hikoyachi ertami, kechmi, bosh qahramonni yo nutqidan, yoki xatti-harakatidan tanib, u bilan yuzma-yuz qolib bahslashadi, aldamchilik qilgani uchun tanbeh beradi. Daydi qahramon esa bunga nisbatan topqir so'zamollik yoki hech qanday tayyorgarliksiz tuzilgan she'r bilan javob berib, roviy bilan yangi maqomada uchrashish uchun uni tark etadi.

Maqomalar bosh qahramoni va uning xatti-harakatlari, asar sujeti asosi – qahramonning tirikchilik maqsadidagi darbadarligi maqoma paydo bo'lgan va shakllangan davrning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirdi.

Abjir aldamchilar haqida xalq orasida keng tarqalgan quvnoq, qiziqarli hikoyalar va latifalarni o'rta asr arab antologiyasida ham, "Ming bir kecha"da ham uchratish mumkin.

Bosh qahramon o'zining g'aroyib sarguzashtlari bilan "Banu Sasan" toifasidan kelib chiqadi¹. Biroq maqomalar xalq adabiyotiga oid emas, balki yuqori uslubdagi adabiyotning barcha talablariga javob beradigan o'ziga xos asl kitobiy janr sifatida paydo bo'ldi.

O'rta asr arab adabiyoti tanqidchilari maqomalarni, eng avvalo, chiroyli va nozik iboralar bilan ifodalangani uchun yuksak baholab, undagi mazmunni ikkinchi darajaga surdilar. Ular maqoma janrining eng mohir ustasi deb, bu janrning asoschisi bo'lgan Badi-uz-Zamon al-Hamadoniyan o'za olgan Abu Muhammad al-Qosim Haririyni hisoblaydilar. Yevropalik tadqiqotchilar esa birinchi

1 Soson al-Akbar – g'arbiy Eron shahzodasi, kambag'al tilamchilar va daydilar homiysi hisoblangan. Ibn al-Muqaffa tomonidan zikr etilgan rivoyatda aytilishicha, Sosonning otasi Bahman o'limi oldidan og'irbo'y qizi Hamayyaga chopar yuborib, butun boyligini o'g'li Sosonga emas, balki bo'lajak nabirasi, agar u o'g'il bo'lsa, unga vasiyat qilishni ma'lum qiladi. Bundan g'azablangan Soson saroyini tark etadi va butun umrini kurdlar orasida podachilik qilib o'tkazadi. Shu bois g'ariblikda va darbadarlikda hayot kechiradiganlar uning ismi bilan ataladi, "Banu Soson" – kambag'al, daydi, tilamchi degan ma'noni anglatadi.

o'ringa Hamadoniyni qo'yib, Haririyni uning tilidagi dabdabalik va jimjimadorlik uchun tanqid qilsalar-da, sharqlik adabiyot munaqqidlarining fikrini qabul qiladilar.

Basradagi ipak bilan savdo qiluvchi boy tojir va yer egasi oilasida tug'ilgan Abu Muhammad al-Qosim ibn Ali al-Haririy al-Basriy (1054–1122) yaxshi ta'lim olib, eng avvalo, fiqh, arab adabiy tilining sarf va nahvi hamda so'z boyligini berilib o'rgandi. Haririy o'z davrining ko'plab taniqli adiblari singari o'sha paytda “eng soʻl” arab tili – islomgacha bo'lgan she'riyat va Qur'on tilining saqllovchilari hisoblangan badaviylar muhitida yashadi.

Asosiy qism

Haririyning ko'plab maqomalarida Qur'ondan iqtiboslar: Qur'on oyatlaridan ko'chirma keltirish, qur'oniy iboralarni boshqacha ifodalash va Qur'ondagi obrazlarga ishora va kinoya qilish ko'plab uchraydi.

Haririyning Ray, Fiqh, Furot, Sur, Marv, Ummon, Rahbiya va Soson maqomalarida Qur'on oyatlaridagi ba'zi iboralar bevosita ko'chirma sifatida keltiriladi va bu iqtiboslarning barchasi bosh qahramon Abu Zayd as-Sarujiy nutqida bayon etiladi.

Ko'p holatlarda Abu Zaydning nutqi, xoh u xutba bo'lsin yoki to'planib turgan odamlar oldidagi ma'ruza bo'lsin, bunday iqtiboslar bilan tugallanadi. Keltirilgan ko'chirmalar mazkur holatlarda uning so'zlari “haqqoniyligi”ning isboti yoki rad etib bo'lmaydigan xulosasi bo'lib, qur'oniy oyatlar undagi ma'noni to'liq yoki qisman tasdiqlash uchun ishlatiladi [Gryunebaum 1981, 142]. Bu iqtiboslar matndagi saj' bilan to'liq monandlashadi. Furot va Soson maqomalaridagi iqtiboslar tashqi jihatdan qofiyalanmagan bo'lib ko'rinsa-da, u mazmunning ajralmas qismiga aylanadi. Soson maqomasida Abu Zayd keksayib, o'g'liga aldamchilikdan ko'ra foydaliroq hunar yo'q deb nasihat qilib, “Allohning rahmatidan noumid bo'lma”, deydi:

وَلَا تَيْئَسْ مِنْ رَوْحِ اللَّهِ

Bu jumla Qur'oni Karimdagi Yusuf surasining 87-oyatidan ko'chirma,

﴿إِنَّهُ لَا يَيْئَسُ مِنْ رَوْحِ اللَّهِ إِلَّا الْقَوْمُ الْكَافِرُونَ﴾

(“Allohning rahmatidan noumid bo'lmangiz, zero, Allohning rahmatidan faqat kofirlar qavmigina noumid bo'lur”) [Qur'oni Karim 2006, 12:87].

Sava maqomasidagi asarning bosh qahramoni Abu Zayd as-Sarujiy qabristonda to'plangan xalq oldida xutba qilib, har bir inson qazoyi qadar, o'zining o'limi, narigi dunyoda ilohiy jazo haqida

unutmasligi zarurligi haqida va'z qilib, o'z nutqini qur'oni ibora bilan yakunlaydi:

ثُمَّ كَلَّا سَوْفَ تَعْلَمُونَ ﴿١١١﴾ [Haririy 1878, 111]

(“Yana bir bor yo'q, sizlar yaqinda bilursizlar”) [Qur'oni Karim 2006, 102:4].

Ray maqomasida Abu Zayd qiyomat kunida Alloh Taolo o'zining itoatkor bandalarini ularning ibodatlariga yarasha taqdirlashi haqida gapiradi va o'z nutqida quyidagi oyatlarni Qur'oni Karimdan iqtibos qiladi:

﴿أَيَحْسَبُ الْإِنْسَانُ أَنْ يُتْرَكَ سُدًى﴾

(“Inson o'zini bekor tashlab qo'yiladi deb o'ylaydimi?”) [Qur'oni Karim 2006, 75:36].

﴿وَنَهَى النَّفْسَ عَنِ الْهَوَىٰ﴾

(“Va nafsini havolanishdan qaytargan bo'lsa”) [Qur'oni Karim 2006, 79:40].

﴿وَأَنْ لَّيْسَ لِلْإِنْسَانِ إِلَّا مَا سَعَى﴾ ﴿٣٩﴾ وَأَنْ سَعْيُهُ سَوْفَ يُرَى ﴿٤٠﴾

(“Inson uchun faqat o'zi qilgan harakatigina bo'lur. Uning qilgan sa'y-harakati yaqinda ko'rinur. So'ngra u (o'sha sa'y-harakati uchun) to'la-to'kis jazo–mukofot olur”) [Qur'oni Karim 2006, 53:39-41].

Abu Zayd so'zini davom ettirib, Qur'oni karimdagi “ar-Rahmon” surasining 7-9-oyatlariga ishora qiladi.

Abu Zayd Furot maqomasida muhosiblik va munshiylik san'atini muqoyasa qilar ekan, o'z nutqini Qur'on oyati bilan yakunlaydi: “...va kotiblar va bizning o'rtamizda ularga to pora berilar ekan, kelishmovchilik bo'ladi, axir ular o'rtasida shundaylar bor ediki, ular iymon keltirdilar va xayrli ishlar qildilar” [Haririy 1878, 243].

﴿إِنَّ الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ﴾

(“Iymon keltirgan va yaxshi amal qilganlar”) [Qur'oni karim 2006, 47:2]

Ummon maqomasida Abu Zaydning nutqi quyidagi iborani keltiradi:

﴿هَلْ أَتَاكُمْ عَلَىٰ تِجَارَةٍ تُنْجِيكُمْ مِنْ عَذَابٍ أَلِيمٍ﴾

(“Sizlarni alamli azobdan qutqaradigan bir tijoratga dalolat qilayinmi?”).

Abu Zaydning nutqi bilan monandlashgan ushbu oyat eshituvchini notiqning keyingi so'zlariga quloq solishga jalb etadi, Abu Zayd nutqini quyidagi so'zlar bilan yakunlaydi.

﴿ارْكَبُوا فِيهَا بِسْمِ اللَّهِ مَجْرَاهَا وَمُرْسَاهَا﴾ [Haririy 1878, 461]

(“Unga (kemaga) mininglar! Uning suzishi ham, to‘xtashi ham Allohning ismi bilandir!”) [Qur’oni karim 2006, 11:41]

Yuqorida keltirilgan misollardagi qur’oniy iqtiboslar muallif tomonidan Abu Zayd nutqida bayon etilib, uning xutbasini, xalq orasidagi ma’ruzasini yakunlab, nutqining kulminatsion nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi va undan so‘ng esa mavzuning davomi bo‘lgan she’riy baytlar keladi.

Qur’on oyatlaridan ko‘chirmalar keltirish roviy nutqi uchun ham xarakterlidir. Masalan, Samarqand maqomasidan kichik parcha keltiramiz:

تخيرت المركز لاستماع الخطبة، ولم يزل الناس يدخلون، في دين الله أفواجا
ويردون أفراداً وأزواجاً [Haririy 1878, 318]

(“Men xutba eshitish uchun masjid o‘rtasidan joy oldim, odamlar ibodat qilishga (harfan: Allohning diniga) guruh-guruh bo‘lib ham, bittadan va ikkitadan bo‘lib ham kirib kelardilar”). Bu yerdagi

أجأوفاً، لئلا يندي يف نول خدي سأل

iborasi “Odamlar to‘p-to‘p bo‘lishib, Allohning dini (Islom) ga kirayotganlari...” Qur’oni Karimdan iqtibos qilingandir [Qur’oni Karim 2006, 110:2].

Shuningdek, Vasit maqomasidagi

أقسم بالطور والكتاب المسطور

“Tur tog‘i va muqaddas kitob nomi bilan qasam ichdi” iborasi ham Qur’ondan keltirilgandir [Haririy 1878, 334].

بالطور وكتاب مسطور

(“Qasamyod etaman Tur (tog‘i) bilan, bitilgan Kitob(Qur’on) bilanki...” [Qur’oni karim 2006, 52:1-3].

Sur maqomasida roviy tasodifan o‘ziga xos tilamchilar va bechora kambag‘al soillar toifasi sifatida nom taratgan “Banu Sasan” oilasida bo‘layotgan to‘y ustidan chiqib qoladi. To‘yda hozir bo‘lganlarga murojaat etayotgan mo‘tabar shayx bu, shubhasizki, Abu Zayd, Alloh Taologa “mol-mulkdan zakot belgilagani, kambag‘al tilamchilarni haydab yuborishni taqiqlagani va o‘z bandalariga ularning mol-mulkida soil va yo‘qsil uchun ma’lum haq borligini” belgilagani uchun hamd-u sanolar aytadi [Haririy 1878, 352]. Bu yerdagi

(وَالَّذِينَ فِي أَمْوَالِهِمْ حَقٌّ مَّعْلُومٌ) (لِلسَّائِلِ وَالْمَحْرُومِ)

oyati Qur’oni karimdan iqtibos qilingan [Qur’oni Karim 2006, 70:74]. Ushbu parchaning boshidagi (فَكُلُوا مِنْهَا وَأَطِيعُوا الْقَانِعَ وَالْمُعْتَرَّ) iboralari ham Qur’oni karimning “Haj” surasi 36-oyatdan iqtibos qilingan bo‘lib, “...ulardan (o‘zlaringiz ham) yeyaveringlar, tilanchiga

va so'rayolmay turgan muhtojga ham yediringiz" degan ma'nodagi so'zlar o'zlashtirib keltirilgan.

Mazkur maqomadagi nutq to'yda so'zlanar ekan, ushbu munosabat bilan ham Abu Zaydda Qur'ondan misol tayyor turadi, axir odamlar uchun "er-xotinlik Alloh tomonidan belgilangan", u aytadi:

﴿يَا أَيُّهَا النَّاسُ إِنَّا خَلَقْنَاكُمْ مِّن ذَكَرٍ وَأُنْثَىٰ وَجَعَلْنَاكُمْ شُعُوبًا وَقَبَائِلَ لِتَعَارَفُوا﴾ [Haririy 1878, 353] ("Ey insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli tuman) xalqlar va qabila(elat)lar qilib qo'ydik") [Qur'oni Karim 2006, 49:13].

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, maqomalar mazmunida uyg'unlashuvchi ko'plab har xil elementlarga xos bo'lgan nutq darajasining turli uslubiy sathlarida bosh qahramonning oliy yoki yuksak darajadagi so'z boyligi Qur'oniyl iqtiboslar bilan mustahkamlanadi.

Maqomalar qahramoni nafaqat mohirona aldamchilikni amalga oshirib, shu yo'l bilan tirikchilik o'tkazadi, balki o'zining oliy darajada ma'lumotlilikini, musulmon qonunchiligi, grammatika, ritorika, she'riyat va boshqa sohalardagi bilimini namoyish etadi.

Qur'oniyl oyatlar maqomalarda aynan iqtibos etilish bilan bir qatorda ular o'zlashtirma ifoda tarzida ham keltiriladi. Roviyl bosh qahramon Abu Zaydning yolg'on ishlatib, aldamchilik qilgani uchun tanqid qilsa, u shunday javob beradiki, uning javobi tanqiddan ko'ra ishonarliroq chiqadi. Oqlov vositasi sifatida ko'pincha ilohiy so'z, ya'ni Qur'on va hadislardan keltirilgan ko'chirmalar xizmat qiladi. Masalan, "Dinor haqida"gi maqomada qahramon oqsoq qariya obrazida eski juldur kiyimda paydo bo'ladi, u o'z taqdiridagi o'zgarishlardan shikoyat qiladi – bir paytlar boy, saxovatli bo'lib, hozir esa bechora qariyaga aylangan. Boshqa maqomalardagi kabi bunda ham u o'zining yorqin fasohati va quvnoq topqirliligini namoyish etadi. U dinor ishlab olish uchun uni (dinorni) ko'klarga ko'tarishni, agar zarur bo'lsa, uni shu ondayoq yomonlashga tayyor ekanini ko'rsatadi. Hikoya nihoyasida al-Horis ibn Hammom qariya obrazidagi Abu Zaydni tanib qoladi, uning "nima uchun o'zingni cho'loqlikka solding?" degan savoliga u quyidagicha javob beradi:

"Men o'zim xohishsiz bo'libman oqsoq,
Niyatim yaxshilik eshigin qoqmoq.
Rizq uchun har ko'yda bo'libman zohir,
Bezanjir, bekishan, men hur musofir.
Ayyorlik, makkorlik yurgan yo'limda,

Qurolim burrolik mening tilimda.
 Ayb deb aysalar bu qilmishimni,
 Men esa oqlayman qilgan ishimni:
 Qur'onda muqaddas so'z-la xudoim
 Cho'loqda gunoh yo'q degan u doim!"

[Cho'loqda gunoh yo'q – Qur'onning 48-sura, 17-oyatiga ishora, bu oyatda aytilishicha, ko'rlar, cho'loqlar va kasallar muqaddas urush – jihodda ishtirok etmasliklari mumkin].

Qiyoslaymiz: لَيْسَ عَلَى الْأَعْرَجِ حَرْجٌ ﴿لَيْسَ عَلَى الْأَعْمَى حَرْجٌ وَلَا عَلَى الْمَرِيضِ حَرْجٌ﴾

"Cho'loqqa xaraj yo'qdir" (ya'ni jihodga chiqmaganligi uchun ayblanmas) [Qur'oni Karim 2006, 48:17].

Boshqa bir misol. Dimyat maqomasida Abu Zayd o'zining fasohatli ustaligi uchun mukofot olib, yolg'on bahona o'ylab, tez qaytishini va'da qilib, jamoani tark etadi. Roviyy esa uning qilmishini oqlash uchun yozib qoldirgan xatini topib oladi: "Ey menga yordam bergan, sening oldingdan ketganim uchun ayblama, bu charchoqdan yoki takabburlikdan emas, balki "qorning to'ydimi – ket!" degan qoidaga amal qilishimdir. Qiyoslaymiz:

[Haririy 1878, 42] ﴿فَإِذَا طَعِمْتُمْ فَانْتَشِرُوا﴾

(".. taom yeb bo'lgach, tarqalinglar...") [Qur'oni Karim 2006, 33:53].

Maqomalarda Qur'oniy so'zlarni iqtibos qilish va o'zlashtirma tarzda ifodalashdan tashqari Haririy o'z asari qahramonlarining u yoki bu sifatini va belgisini xarakterlash uchun Qur'ondagi obrazlarga ishora yoki shama qiladi. Masalan, Kufa maqomasida Abu Zayd o'zining ahvoli haqida hikoya qilib shunday deydi: "... Meni g'ariblik shu tuproqqa uloqtirdi, bechora va och edim, hamyonim Muso onasining qalbidek bo'lib qoldi" [Haririy 1878, 47]. Bu Qur'oni Karimdagi ushbu oyatga ishoradir:

﴿وَأَصْبَحَ فُؤَادُ أُمِّ مُوسَىٰ فَارِعًا ۖ إِن كَادَتْ لَتُبْدَىٰ بِهِ لَوْلَا أَن رَّبَطْنَا عَلَىٰ قَلْبِهَا لِتَكُونَ مِنَ الْمُؤْمِنِينَ﴾

("Muso onasining qalbi bo'm-bo'sh bo'lib qoldi (tashvishdan forig' bo'ldi). Agar bizga ishonuvchilardan bo'lishi uchun uning ko'nglini xotirjam qilmaganimizda, u (o'z o'g'li ekanini) fosh qilib qo'ygan bo'lardi") [Qur'oni Karim 2006, 28:10].

Rahbiya maqomasida Qur'oni karimning Yusuf surasiga (№12) ishora etilgan. "... U ibn Ya'qubning o'limida aybsiz bo'ridek begunoh hisoblanadi". Yusufning akalari uni qul qilib sotib yuborib, otalariga uni go'yoki bo'ri yeb qo'ygan deb yolg'on gapirgan edilar.

﴿قَالُوا يَا أَبَانَا إِنَّا ذَهَبْنَا نَسْتَبِقُ وَتَرَكْنَا يُوسُفَ عِنْدَ مَتْعَانَا فَاكْلَهُ الدِّبْتُ ۚ﴾

("Ey otamiz! Biz Yusufni matohlarimiz oldida qoldirib

quvalashib ketsak, uni bo'ri yeb ketibdi") [Qur'oni Karim 2006, 12-17].

Yana bir misol "Qahqariya" maqomasida keltirilgan. Ushbu maqomaning bunday atalishi sababi shundaki, bu maqomada bir risola mavjud bo'lib, u boshidan oxirigacha va oxiridan boshigacha bir xil o'qiladi. Ushbu maqomada quyidagi jumla bor:

﴿ تَفَرَّقُوا أَيُّدِي سَبَا ﴾

"so'ngra ular sabaliklar singari ajralishib, tarqalishib ketdilar"

[Haririy 1878, 186].

Bu Qur'onning Saba surasida (№34) bayon etilgan Alloh tomonidansuvtoshqini haqida ogohlantirilgan Janubiy Arabistondagi Saba qabilasi haqidagi hikoyatga ishoradir. Maqomalar sharhida Alloh Taoloning kalomi keltirilgan:

﴿ وَمَرْقَنَاهُمْ كُلَّ مُمْرَقٍ ﴾

("...ularni bo'lib-bo'lib tashladik") [Qur'oni Karim 2006, 34:19].

Makka maqomasida quyidagilarni o'qiymiz: "Bizning va'damiz Urqubaning va'dasi kabi bo'ldimi? Ya'qubning qalbida biror ehtiyoji qoldimi?" Roviyy bu yerda "Ya'qubning qalbidagi ehtiyoji" deganda Yusuf surasidagi quyidagi oyatga ishora qiladi:

﴿ إِلَّا حَاجَةً فِي نَفْسِ يَعْقُوبَ قَضَاهَا ﴾

("Bu faqat Yoqubning dilidagi (farzandlariga nisbatan mehridan paydo bo'lgan) bir hojat bo'lib, u o'shani qondirgan edi, xolos") [Qur'oni Karim 2006, 12:67]. Ma'lumki, bu ta'bir "Ya'qubning qalbidagi ehtiyoji" xalq orasida mashhur bo'lgan masalga aylandi. Muallif shuningdek, Atiya Urqubani tilga olib, va'dani bajarish kechiktirilganda xalq masallariga aylangan va "Masallar kitoblari"ga [Al-Maydaniy 1978, 447; Al-Askariy 1988, 433; Zamaxshariy 1978, 176] kiritilgan "Urqubaning va'dasi" ("Urquba aytgan kun") degan iborani qo'llaydi.

Sinjar maqomasida [Haririy 1878, 169] roviyy Shams surasida zikr qilingan voqealarni eslaydi, Abu Zaydga Samud qabilasidagi Qudar kabi bo'lmaslikni ta'kidlaydi. Bu surada zikr qilinishicha, Samud qavmi qabilasi payg'ambar Solih alayhissalomni yolg'onchiga chiqarib, u keltirgan tuyani so'yib yuborganliklari uchun azobga duchor qilingan edilar.

Shuningdek, ushbu maqomada Baqara surasining 102-oyatiga ishora qilinadi:

﴿ يُعَلِّمُونَ النَّاسَ السِّحْرَ وَمَا أُنْزِلَ عَلَى الْمَلَكَيْنِ بِبَابِلَ هَارُوتَ وَمَارُوتَ ... ﴾

Bunda zikr qilinishicha, (... lekin odamlarga sehr (jodu)ni hamda Bobildagi Horut va Morut nomli farishtalarga tushirilgan

narsalarni o'rgatadigan....) iboralari bilan Bobil sehr-jodu bilan mashhur bo'lganligiga ishora bor.

Zabidiya maqomasida Yusuf surasida zikr qilingan qissaga yashirin ishora bor. Qahramon bir o'smirni yetaklab kelib, uni roviyga sotadi. Roviyo o'smirning yashirin ma'no ifodalagan so'zlariga ahamiyat bermaydi va pulidan ayriladi.

Saadiya maqomasida roviy bir shayx qissasini hikoya qiladi. Shayx bir bolani qozining oldiga yetaklab kelib, u gapiga quloq solmayotgani, aytganlarini qilmayotgani haqida shikoyat qiladi. Qozi: "Agar farzand otasining amrini bajarmasa, otasi farzandini yo'qotgan hisoblanadi" deydi. Bola esa jahli chiqib, u otasining barcha aytganlarini qilayotgani, otasidan odob-axloqni o'rgangani haqida so'zlab chiroyli baytlarni o'qiydi va unda Xizr va Musa alayhumassalom ham rad etilganlarini misol keltiradi. Bu yerda Kahf surasining 77-oyatiga ishoradir.

﴿ حَتَّىٰ إِذَا أَتَىٰ أَهْلَ قَرْيَةٍ اسْتَطْعَمَا أَهْلُهَا فَأَبَوْا أَن يُصَيِّفُوهُمَا ﴾

("... bir shahar ahlining oldiga kelib, ulardan taom so'ragan edilar, ularni mehmon qilishdan bosh tortishdi") [Qur'oni Karim 2006, 18:77].

Halab maqomasida shunday satrlar bor: "Alloh senga bu "talo" (ohuning bolasi)ni muborak qilsin, xuddi yo'q va yo'qda muborak qilgani kabi" deb, Nur surasining 35-oyatiga ishora qiladi:

﴿ مِنْ شَجَرَةٍ مُّبَارَكَةٍ زَيْتُونَةٍ لَا شَرْقِيَّةٍ وَلَا غَرْبِيَّةٍ ﴾

("U (chiroq) na sharqiy va na g'arbiy bo'lmagan zaytun daraxtidan...") [Qur'oni Karim 2006, 24:35].

Bu misolning qiziqarli jihati shundaki, qanday qilib "yo'q va yo'q"da muborak qilishi mumkin. Bu iborani tushunish uchun o'quvchida filologik his bo'lishi hamda u ilohiy kalomni yod olgan va uni tafsir qila oladigan bo'lishi kerak. Qur'oni Karimda zaytun daraxtining "na sharqiy va na g'arbiy" ekanligi zikr qilinadi.

Basra maqomasida Abu Zayd nutq so'zlar ekan, u xalifa Umar tomonidan asos solingan bu shaharni "poklik timsoli deb tavsiflaydi va bir qator olim-ulamolarni ularning sifatleri bilan eslaydi, masalan, "barcha zamonlar olimi" deb "Arablar kunlari ("Ayyam al-Arab") ning to'plovchisi Abu Ubaydani, "grammatikaga asos solgan deb Abu Asvad ad-Dualiyini, she'rlar vaznini aniqlagan deb Xalil ibn Ahmadni tavsiflaydi. U o'z nutqida "Ya'qubning yig'isi", "Agar qaror qilsangiz, Allohga tavakkul qiling", "bu sen va mening o'rtamizdagi firoqdir" degan iboralarni ishlatadi.

"Ya'qubning yig'isi" Yusuf surasidagi Yusufning otasi Ya'qub alayhissalom qissasiga ishoradir. "Biror ishga qaror qilsangiz,

Allohga tavakkul qiling" Ol Imron surasining 159-oyatiga ishoradir:

﴿فَإِذَا عَزَمْتَ فَتَوَكَّلْ عَلَى اللَّهِ﴾

Ushbu maqomadagi she'riy parchada keltirilgan "Bu sen va men o'rtamizdagi ayriliqdir" va "Qani endi... butunlay unutilib ketsam" iboralari Kahf va Maryam suralaridan olingan.

Bu o'rinda, bizning fikrimizcha, arab adabiyotida, xususan, Haririy maqomalarida muhim bir jihat – Islom ruhining aks ettirilishini ta'kidlash zarur [Gryunebaum 1981, 176-191]. Zero, Qur'onning katta ta'siri ostida bo'lgan butun o'rta asr arab va musulmon dunyosidagi boshqa xalqlarning adabiyoti qur'oniyl dunyoqarash ruhi bilan sug'orilib, muqaddas kitobdan keltirilgan iqtiboslar va qur'oniyl obrazlarga ishoralar bilan boyitilgan.

Bunday yo'nalish barcha o'rta asr mualliflari asarlarida bo'lgani kabi, nasr va nazmning xususiyatlarini uyg'unlashtiruvchi, jimjimador bezatilgan adabiyot va turli-tuman mavzulardagi jonli nutqni birlashtiruvchi o'ziga xos janr asari bo'lgan Haririy maqomalarida ham kuzatiladi. Haririyning zuhdiyot maqomalarida qahramon Abu Zayd nutqida bu dunyo lazzatlarining o'tkinchiligi, har qanday gunohga ilohiy jazo berilishi va xayrli ishlarni amalga oshirishga da'vat mavzulari bayon etiladi. To'plamdagi Sana, Sav, Ray, Samarqand, Ramliya, Tinnis, shuningdek, Basra maqomalari ana shunday ruhda bitilgandir. Bu maqomalarni tadqiq etishda "bayon etishning notiqlik san'ati uslubiga amal qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan" muallif obrazini yanada yorqinroq ko'rish mumkin [Polyakov 1981, 193].

XI – XVI asr muallifi u yoki bu darajada doimo xatib (yoki voiz) bo'lgan... shuning uchun ham butun o'rta asrlar adabiyotida bayon etishning notiqlik uslublari sezilib turadi" [Lixachyov 1970, 133].

Ta'kidlab o'tish lozimki, Haririy Qur'on oyatlaridan iqtibos keltirish, ularga kinoya va ishora qilish bilan bir qatorda yana bir holat – nodir so'z yasash shakli bilan yangi so'z yasashni o'zlashtirgan. Qur'oni Karimning Humaza (№104) surasidagi (فُعْلَةٌ) shaklida yasalgan so'zlar bor. Bular (حُطْمَةٌ، لُمْرَةٌ، هُمَرَةٌ) bo'lib, arab tilida juda kam uchraydigan so'zlardir. Mazkur shaklda yasalgan kam tarqalgan bunday so'zlar Iskandariya maqomasida ishlatilgan:

فُعْدَةٌ	-	dangasa, tanbal
جُنْمَةٌ	-	lapashang, landovur
ضُجْعَةٌ	-	bemajol, nimjon
خُدْعَةٌ	-	yolg'onchi, aldoqchi
نُؤْمَةٌ	-	uyquchi

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, to'plamni tashkil etuvchi 50 maqomadadan 26tasida 35 holatda qur'oniylar iqtiboslar mavjud, 18 maqomada Qur'ondagi u yoki bu obrazga ishora qilingan, 5ta maqomada Qur'on oyatlari o'zlashtirma iboralar bilan keltiriladi.

Shunday qilib, bevosita iqtiboslar, Qur'on oyatlarini o'zlashtirma iboralar tarzida keltirishlar, Qur'on obrazlariga kinoya va ishoralar va, nihoyat, so'z yasovchi shakllarni ko'rib chiqdik. Ular asosan, Abu Zayd as-Sarujiy nutqiga xos bo'lib, shuningdek, roviy nutqida ham, so'ngra, kamroq darajada, boshqa shaxslar nutqida uchraydi. Haririy maqomalaridagi Qur'ondan keltirilgan iqtiboslar, ular xoh bevosita ko'chirma, yoki Qur'on oyatlarini o'zlashtirma ibora yoxud Qur'on obrazlariga ishora tarzida bo'lsin maqomalar bosh qahramoni Abu Zaydning u yoki bu qilmishini oqlash maqsadida qo'llanilgan, uning xalq oldida xutbasi, ma'ruzasining xulosa-isbotidir, muallifning bosh qahramon yoki roviy tilidan bayon etgan fikrini mustahkamlaydi, shuningdek, asosiy obrazlarning u yoki bu belgisi, sifati va xarakterini hamda mohiyatini yanada to'liqroq ochishga yordam beradi.

Adabiyotlar

- Қуръони Карим (маъноларининг таржима ва тафсири). 2006. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети.
- Haririy, Abu Muhammad al-Qosim. 1878. *Maqāmāt. (Maqomalar)*. Misr: Bulaq. *مقامات الحريري، كتاب المقامات الأدبية لأبي محمد القاسم ابن علي بن عثمان*. الحريري البصري، 8781م، مصر، بولاق.
- Talimat, Abd an-Nafi'. 1957. *Ahlu-l-kudya antal-l-maqamat-fi-l-adabi-l-ara-biy ("Aldamchilar arab adabiyotida maqomalar qahramonlari")*. Suriya, Damashq: "Dar ibn al-Valid" nashriyoti. *أهل الكدية أبطال المقامات في الأدب العربي. عبد النافع طليمات*. دار ابن الوليد، سوريا، دمشق.
- Al-Maydoniy, Abu-l-Fadl Ahmad ibn Muhammad. 1978. *Majma'u-l-amsal ("Masallar to'plami")*. Bayrut: "Dar al-Jayl" nashriyoti. *مجمع الأمثال*. (الميداني، أبو الفضل أحمد بن محمد. دار الجيل، بيروت، 8791
- Al-Askariy, Abu Hilal al-Hasan ibn Abdulloh. 1988. *Jamhartu-l-amsal ("Masallar to'plami")*. 2-nashr, 1-jild. Bayrut: Dar al-Jayl. *جمهرة الأمثال*. (العسكري، أبو هلال الحسن بن عبد الله. بيروت: دار الجيل.
- Zamaxshariy, Jorulloh Abul-Qosim Mahmud. 1978. *Arab maqollarining chuqur tadqiqoti ("al-Mustaqsa fi amsal al-arab")*. 2-nashr, 1-jild. Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya. *المستقصى في أمثال العرب*. الزمخشري، جار الله أبو القاسم محمود، بيروت: دار الكتب العلمية، 1978م، ط2، ج1، ص. 176.

- Грюнебаум, Г.Э. фон. 1981. *Основные черты арабо-мусульманской культуры*. Москва: Наука.
- Поляков, М.М. 1986. *Вопросы поэтики и художественной семантики*. Москва: Советский писатель.
- Лихачев, Д.С. 1970. *Человек в литературе Древней Руси*. Москва: Наука.

Qur'anic quotes in Hariri maqamats

Murtazo Saydumarov*

Abstract

The article examines the Qur'anic quotes used in the verses of Abu Muhammad al-Qasim al-Hariri (1054-1122), which demonstrate one of the main forms of medieval Arabic rhetoric. It is known that the Qur'an had a great influence on the literature of all other nations in the medieval Arab and Muslim world. Not only do religious literature and pamphlets on Muslim law reflect the spirit of Islam and are enriched with Qur'anic quotations but also other works of medieval art of expression also have this effect. In medieval Arabic literature, we consider this aspect in the example of Hariri's maqamats which are considered to be the most perfect Arabic short stories on eloquence, knowledge in various fields, asceticism, and other subjects. The article analyzes the use of Qur'anic quotes in the speech of two important characters, the narrator and the protagonist, in different situations, themes and relationships, and the protagonist's justification of his actions through these Qur'anic quotes.

Key words: *medieval Arabic literature, classical Arabic literature, maqama genre, saj', rhyming prose, al-Hariri, Quranic studies, textology.*

* Saydumarov Murtazo Gozievich – Doctor of Philosophy in Philology, Associate-Professor, Alisher Navai Tashkent State University of Uzbek Languages and Literature, Department of Eastern Languages.

e-mail: msaydumarov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-3528-9572

References

- Қуръони Карим (маъноларининг таржима ва тафсири). 2006. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети.
- Haririy, Abu Muhammad al-Qosim. 1878. *Maqāmāt*. (*Maqomalar*). Misr: Bulaq. مقامات الحريري، كتاب المقامات الأدبية لأبي محمد القاسم ابن علي بن عثمان. الحريري البصري، 8781م، مصر، بولاق.
- Talimat, Abd an-Nafi'. 1957. *Ahlu-l-kudya antal-l-maqamat-fi-l-adabi-l-ara-biy* ("Aldamchilar arab adabiyotida maqomalar qahramonlari"). Suriya, Damashq: "Dar ibn al-Valid" nashriyoti. أهل الكدية أبطال المقامات في الأدب العربي. عبد النافع طليمات. 7591م، دار ابن الوليد، سوريا، دمشق).
- Al-Maydoniy, Abu-l-Fadl Ahmad ibn Muhammad. 1978. *Majma'u-l-amsal* ("Masallar to'plami"). Bayrut: "Dar al-Jayl" nashriyoti. مجمع الأمثال. (الميداني، أبو الفضل أحمد بن محمد. دار الجيل، بيروت، 8791
- Al-Askariy, Abu Hilal al-Hasan ibn Abdulloh. 1988. *Jamhartu-l-amsal* ("Masallar to'plami"). 2-nashr, 1-jild. Bayrut: Dar al-Jayl. (جمهرة الأمثال، (العسكري، أبو هلال الحسن بن عبد الله. بيروت: دار الجيل.
- Zamaxshariy, Jorulloh Abul-Qosim Mahmud. 1978. *Arab maqollarining chuqur tadqiqoti* ("al-Mustaqsa fi amsal al-arab"). 2-nashr, 1-jild. Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya. المستقصى في أمثال العرب، الزمخشري، جار الله أبو القاسم محمود، بيروت: دار الكتب العلمية، 1978م، ط2، ج1، ص 176.
- Грюнебаум, Г.Э. фон. 1981. *Основные черты арабо-мусульманской культуры*. Москва: Наука.
- Поляков, М.М. 1986. *Вопросы поэтики и художественной семантики*. Москва: Советский писатель.
- Лихачев, Д.С. 1970. *Человек в литературе Древней Руси*. Москва: Наука.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni debochasi badiiyati

Ilyos Ismoilov*

Abstarkt

Alisher Navoiy o'zbek adabiyotini juda ko'plab yangiliklar, tajribalar bilan boyitdi. Jumladan, ulug' shoir debochanavislik an'anasini obrazlar sistemasi, kompozitsiya, uslub, badiiyat va mazmun jihatdan yuksak darajaga ko'tardi. Alisher Navoiy o'z masnaviylari debochasida kitobxon nuqtayi nazari, o'z kechinmalari, asar mazmuni va tasavvuf falsafasini mohirona uyg'unlashtiradi. E'tiborlisi, bir masala va mavzuga bag'ishlangan debochani har safar yangi-yangi badiiy manzara va poetik variatsiyalarda tasvirlay oladi.

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” masnaviysi debochasi tadqiq etilgan bo'lib, unda shoirning debochanavislik mahoratiga e'tibor qaratilgan. “Saddi Iskandariy” debochasi badiiyati, debochadagi sarlavhalarning bob hamda asar mazmuni bilan aloqasi, asar mohiyatini ochishdagi o'rni tahlil etilgan. Navoiyning debochanavislik mahoratini ochib berishda qiyosiy-tarixiy metodga tayanilgan va Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma”si debochasi bilan qiyoslangan. Zarur xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy, debocha, Iskandar, poetika, o'zbek adabiyoti, mahorat.*

* *Ismoilov Ilyos Abduqayumovich* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph.D), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrası.

e-pochta: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

Kirish

“Xamsa” Navoiy ijodining xarakterli g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini lirik she’rlariga nisbatan yorqinroq aks ettiradi [Хайитметов 2015, 286], ayniqsa, dostonlarning debochalari bu jihatdan e’tiborli. Navoiy “Xamsa” tarkibidagi barcha dostonlarda debochani asar kompozitsiyasi va mazmuni bilan muvofiqlashtirish tamoyiliga amal qiladi [Рустамов 1979, 146 – 153]. Bu prinsip “Saddi Iskandariy” debochasida ham davom ettirilgan, xususan, Navoiyning birinchi baytdayoq *shohlik* va *gadolik* haqida so’z ochishi yoki asarni boshlashdan oldingi ijodiy kayfiyati ifodasida jangovar ruhning sezilib turishi shundan dalolat. Bu prinsip, ayniqsa, “Saddi Iskandariy” debochasi boblarining tuzilishi, sarlavhalarida aniq ko’rinadi. Kirish asosiy qism va mazmun bilan shu qadar jipski, ularni alohida tekshirish nihoyatda shartli, “o’quvchining muqaddimadagi baytlarining mag’zini chaqmasdan asar voqeasidagi ramz va timsollarga o’rab berilgan ma’nolar xazinasiga yo’l topa olishi mushkul” [Хайитов 2000, 101 – 102].

Mavzuda qo’yilgan ilmiy muammo nuqtayi nazaridan doston debochasini to’la qiyoslash mumkin, chunki qiyosda mohiyat aniqroq namoyon bo’ladi. Biroq badiiy mahorat va ijodiy individuallik hodisalarini aniqroq tasavvur etish uchun qiyoslanayotgan obyektlarda adekvatlik va tipologik jihatlarining bo’lishi ko’proq maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu ma’noda, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” va Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” dostonlarining dastlabki to’rt bobi bu jihatdan to’la talabga javob beradi, shu bois asosiy e’tiborni mazkur boblarga qaratamiz.

Asosiy qism

Nizomiy “Iskandarnoma”si debochasida kirish va asosiy bob yoki tasvir va bosh mavzu o’rtasidagi uyg’unlik Navoiyda bo’lgani kabi kuchli emas. Nizomiy sarlavhalari qisqa va asosiy mazmunni ifodalashga qaratilgan bo’lib, ularda qofiya, ritm va obrazlilik yo’q. Navoiy esa katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o’sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko’zlangan maqsad va mavzuga ham muvofiqlashtirishga intiladi. Aytish mumkinki, Sharq adabiyotshunosligida asarlar debochasini tuzish prinsiplari “qonuniylashtirilgan” edi [Тарозий 1996, 32].

Faqat xamsanavislik an’anasida yaratilgan Iskandarnomalarda emas, bu toyifaga kirmaydigan iskandarnomalarda ham debochalar an’anaviy xarakter kasb etgan [Bünyamin 2013, 136 – 137]. Nizomiy va Navoiy dostonlari an’anaviy hamd bilan boshlanadi.

Epik hamdlar ko'lamdorlik, vazmin ifoda, obrazlar tizimi bilan lirik hamdlardan farqlanadi. Tavhidning badiiy funksiyasi Nizomiy va Navoiyga qadar tayin bo'lib ulgurgan, shu bois bunday boblar bir maqsadning ikki ijodkor tomonidan qanday ifodalanishi, ijodiy individuallikni kuzatish uchun juda qulay vaziyat hisoblanadi.

Navoiy tavhidning dastlabki uch baytida Tangrining vahdoniyati to'g'risida nazariy fikrlarini qayd etsa, to'rtinchi baytdan yuzinchi baytga qadar al-Xoliq sifatini vasf qiladi. Sal kam yuz bayt davom etuvchi xoliqlik sifati epik poeziyaga xos bo'lgan tadrij orqali tasvirlangan. Tasvir yo'nalishi olam mehvariga qarab boradi. Navoiyning tavhidga oid tasvirlari yaxlit tizim xarakteriga ega bo'lib, unda Tangrining vohidligidan tortib inson yaratilgunga qadar bo'lgan jarayon yaxlit sistema sifatida tasvirlanadi.

Navoiy shu tariqa tavhidda, dastlab, Tangrining mutlaq farmonravo ekanini qayd etgach, aflokning yaratilish sababi, yaratish jarayoni, yaratish maqsadi hamda buning mohiyatini lo'nda tasvirlab beradi. Tavhidda ham Navoiy uslubiga xos bo'lgan determinizm qonuniyati namoyon bo'lgan. Bir qarashda, Navoiy bob boshida Allohning vohidlik sifatini tilga olib, qolgan qismda xoliqlik sifati tasviriga e'tibor qaratgandek tuyuladi, biroq Navoiy yakunda butun tafsilotlarni vahdoniyat sifatiga olib kelib tutashtiradi. Dastlabki uch baytda Yaratganning vohidligi to'g'risida nazariy qarashlarini bayon qilgach, islomiy kosmogonik sistemani qat'iy tartibda tasvirlash orqali uni amalda isbotlaydi va oxirda ofarinishning mohiyati Allohning vahdoniyatini tasdiqlovchi asosiy dalil ekanini ko'rsatib beradi. Mazkur qarashlarning tayanch nuqtasi ishq masalasi bo'lib, Navoiy tavhidda haqiqiy ishq, Tangri va inson munosabati kabi muhim masalalarni konkret izohlab beradi. Ya'ni Tangrining bir-u borligi e'tirofidan boshlangan fikr oxir-oqibat "oshiq-u ishq-u ma'shuq ham" o'zi ekani haqidagi xulosaga kelib ulanadi. Navoiyning kosmogonik tafakkuri ilmiy asosga ega, xususan, koinotning tuzilishi haqidagi qarashlari Beruniyning ilmiy kuzatishlariga to'la muvofiq [Беруний 1973, 41 – 43]. "Qutadg'u bilig" esa astronomik ilmlar, istilohlar sistemasi XI asrdayoq turkiy xalqlar adabiyotidagi debochalarda batafsil va to'la ilmiy asosda tasvirlana boshlanganini tasdiqlaydi [Ҳожиб 1972, 80 – 83]. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiyning ofarinish xususidagi qarashlari bir xil, faqat astronomik atamalar nomlanishida farq mavjud [Содиқов 2007].

Nizomiy dostonidagi tavid bobda mazkur kosmogonik sistema va vahdoniyat sifati tasvirida Navoiyda bo'lganidek qat'iy prinsip yo'q. Nizomiy ham, dastlab, Allohning yaratuvchilik sifatini

vasf etadi, koinot va insonni yaratgani, jahonni esa o't, suv, havo va tuproqdan paydo qilganini aytadi. U koinotning geosentrik qurilishga ega ekanini ko'rsatadi:

Tuiy, k-osmonro barafroxtiy,

Zaminro guzargohi o' soxtiy [Ганчавӣ 2012, 6].

Shuningdek, Allohning qudrati, har narsaga qodirligi va har narsadan beniyoz ekani ta'kidlanadi. Nizomiy tavhidda gnoseologik qarashlarga jiddiye'tibor qaratib, Tangrining bir-uborligi, buyukligini ta'kidlashga harakat qiladi. Bu hol shoir olamning yaratilishi kabi g'aybiy hodisalarga ehtiyotkorlik bilan yondashgandek tasavvur uyg'otadi.

Navoiy dostonidagi tavhid va munojot o'rtasida aniq chegara mavjud, Nizomiy tasvirida mana shu chegara buzilib, munojot ohanglari tavhidning katta qismini egallagan. Navoiy asosiy g'oya ifodasini, odatda, sarlavhadan boshlaydi. Nizomiy boblarga sarlavhani ma'lumot berish va bir bobni ikkinchisidan ajratib turish maqsadida qo'yadi, shu bois ularning hajmi qisqa. Navoiy esa sarlavhaga axborot berishdan tashqari, mazmunni yangicha obrazli ifodalash, estetik zavq berish, badiiy mahoratni namoyon etish singari funksiyalarni ham yuklaydi. Sarlavha yaratishdagi eng mushkul vazifa, albatta, adabiy maqsadni yangi ifodalar orqali qayta yaratishdir.

Navoiy "Saddi Iskandariy"dagi aksariyat sarlavhalar, jumladan, "Munojot" sarlavhasida bunga erishgan: *Munojot ul Karimi Xalloq va mukarrami alal-itloqqakim, karamining "kof"i sarkashlik bila yozuq "qof"ini yerga past qilur va "ro"si royi olamoro bila ma'siyat "ayn"in ko'r etar va "mim"i lutfi emim bila xato xattig'a afv raqami chekar va o'z jurmi oloyishin demak va bahri g'ufrondin amon istamak*. Bunda "... o'z jurmi oloyishin demak va bahri g'ufrondin amon istamak" jumlasini sarlavha va bobdagi asosiy tezis, dastlabki to'rt satr mana shu fikrning yangicha poetik tasviri bo'lib, bu takror siyqalikni emas, ta'kidni yuzaga keltirgan. Karam, mukarram, lutf, afv, shafqat, omonlik hamda munojot, yozuq, ma'siyat, xato, jurm so'zlari uyushib bob mazmuni va mavzusini anglatuvchi tanosubni hosil qilgan ["Xamsa"da tanosubning qo'llanishi haqida qarang: (Xaqkulov 1986)].

Ikkinchidan, Navoiy tasvir obyekti qilib **karam** so'zining birinchi harfi kof (ك) ni oladi, chunki so'z shu harf bilan boshlanadi, biroq sarlavhada sinonim sifatida qo'llangan ma'siyat, jurm, xato va yozuq so'zlaridan so'ngisi karamga nisbatan birinchi bo'lib qo'llanadi. Tasvirda **karamning kofini** olish qanchalik tabiiy bo'lsa,

sinonimlar orasidan **yozuq**ni va yozuq **qof**ini olish ham ijodkor badiiy maqsadi taqozosidir. Navoiy bu orqali uch xil maqsadni yuzaga chiqara olgan: a) Tangri o'z karami bilan yozuq – gunohlarimni kechirsin; b) gunohlarim Qof tog'idek ulkan, ammo karamining bir juzi (kofi) uni yo'q qila oladi; e) karamning birinchi harfi (kof)ni yozuqning oxirgi harfi (qof) bilan ohangdosh qilish.

Uchinchidan, "karamining kofi sarkashlik bilan yozuq qofini yerga past qildi" deyilishida jangovar ruh sezilib turibdi. Bunda *sarkashlik* so'zi va *yerga past qilmoq* iborasi ma'nolari asos bo'lib xizmat qilgan. Sarkashlik so'zining *bosh bermas, o'jar, itoatsiz* kabi semalari mavjud bo'lib, Navoiy bu so'zini shu sarlavha ostida keltirish orqali, bir tomondan, gunohlarning kelib chiqishiga ishora qilsa, bir tomondan, mavzu va jangovar ruhni tasvirga singdira olgan.

To'rtinchidan, "karamining ro (ر) si royi olamoro bila ma'siyat aynini ko'r etar" jumlasida ro (ر) milga, ayn (ء) esa ko'zga tashbih qilingan. Karam "ro"sining shaklan qilich yoki milga o'xshashligi sarlavhadagi to'rt sinonim so'zdan **ma'siyat**ni karamga nisbatan olishga asos bo'lgan, chunki to'rt sinonimdan faqat ma'siyat so'zida **ayn** harfi bor. Muallif an'anaviy tarzda aynni ko'zga va ro harfini qilich yoki milga tashbih qilish orqali asosiy muddaosi – gunohlarini kechirishga umidvorlikdan tashqari davrining shoh va shahzodalari o'rtasidagi siyosiy ixtiloflar, dostonning mavzu va tasvir uslubi haqidagi ishorani ham ustalik bilan qistirib o'tgan.

Beshinchidan, "karamining **mim** (م) i zo'r lutf bilan xato sahifasiga afv hukmini yozar" jumlasida **mim** harfining mumtoz adabiyotda og'izga o'xshatilishiga asoslanib, Navoiy Tangri tomonidan marhamat bilan xatolari afv etilishiga umidini aks ettiradi. *Karam, lutf, xato, afv* so'zlari o'zaro mutanosib holda hamdning turi va mohiyatini ham ifodalab kelgan.

Navoiy shu tariqa bobdan ko'zlagan maqsadi uchun grafik, fonetik, leksik-morfologik vositalardan tortib, obraz tanlash, jumla qurish va tasvir uslubigacha – hammasini ijodiy konsepsiyaga bo'ysundiradi. Munojot mazmunini *karam* so'zidagi uch harfga tayanib bunday betakror tasvirlash, avvalo, Navoiyning badiiy mahoratidan dalolat beradi. Afsuski, Nizomiy sarlavhalari bunday fikrlashga imkon bermaydi.

Navoiy munojotni ham Parvardigorning vohidligi e'tirofi bilan boshlaydi, faqat bu yerda vahdoniyat boshqa sifatlari bilan talqin etiladi:

*Lakal-hamd, yo Akramal-Akramin,
Karam ahlin etgan gadoyi kamin.*

Karim o'lsa olamda har nav' shoh,

Anga sen karam qilding ul dastgoh [Навоий 1993, 11].

Navoiy adabiy an'ana, asarning bosh mavzusi, maqsadi, bobning mohiyati kabi jihatlardan kelib chiqib, Tavhidning birinchi baytida Tangrining hukmdorlik sifatiga murojaat etgan bo'lsa, munojotda ham shu tamoyilga amal qilib, Allohga karim (olijanob, marhamatli) sifatini aytib murojaat qiladi, chunki bobning mazmuni yuqoridagi murojaatni taqozo etgan. Navoiy keyingi baytlarda "Akramal-Akramin", ya'ni karamlilarning karamlisi degan nazariy fikrni bir necha poetik dalillar bilan asoslab beradi. Navoiyning bu boradagi birinchi misoli yana shohlarga oid, ya'ni olamda qaysi shoh karim bo'lsa, unga Alloh karam qilgani uchun shunday fazilatga ega bo'lgan, shu bois mohiyatan uni karim deb emas, sabab deb bilish to'g'ridir. Navoiy shu tariqa dastlabki misradagi "Akramal-Akramin" iborasini baytlarda asoslab beradi.

Navoiy dostonidagi munojotda aniq voqeaviylik bo'lmasa-da, biror nazariy fikr yoki asos va uning amaliy isboti kabi qismlar, ular o'rtasida ichki bog'lanish mavjud. Mana shu izchillik, avvalo, ijodkor fikrlarining ta'sirli chiqishiga xizmat qilgan. Nizomiy dostonidagi munojotda esa mazkur xususiyat u qadar sezilmaydi, uning tasvirlari bir xil ton va bir xil mazmunda: ey Tangrim, har narsaga qodirsan, gunohlarimni kechir. Navoiy kabi fikrga turli asoslar keltirmaydi, u birgina "yaxshi yoki yomon bo'lsam ham, sening taqdiring tufayli" degan asosni ta'kidlaydi. Navoiy esa qo'shimcha tarzda banda gunohlarining kechirilishiga akobirlar fikri, Horun haqidagi rivoyat va boshqa mantiqiy asoslar ko'rsatadi. Bunga sabab umidvorlik tuyg'usiga urg'u berish edi, ya'ni Navoiy munojotida Nizomiydan farqli o'laroq umidvorlik ustuvor. Navoiy o'z gunohlarini umumiy qayd etib qolmay, konkret misollar keltiradi, o'zini ko'proq malomat qiladi. U bobdagi butun tasvirni Allohning karim sifati atrofida birlashtiradi, hatto sarlavhani ham shu nuqtaga tutashtiradi. "Akramul-Akramin" iborasining turli ma'nolarini sharhlab, mantiqiy xulosalar chiqaradi. Nizomiy munojotida esa hidoyat so'rash yetakchi. U Tangrining biror sifati, masalan, karim yoki rahim sifatlariga alohida e'tibor qaratgan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri Allohga murojaat qilish, uning qudrati haqida so'zlashga intiladi. Nizomiyda ham oxirgi bayt ikki bobni o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qilgan.

III – IV boblar "Payg'ambar adabiyoti" namunalari bo'lib, uchinchi bobdasayyidul-mursalin – payg'ambarlar ulug'i Muhammad (s.a.v.) vasf qilinadi. Navoiyning bob boshidagi fikrlari "Nuri

Muhammadiy" (Muhammad nuri) ta'limotiga asoslangan, ya'ni "...payg'ambarimiz, sallallohu alayhi va olihi va sallam, garchi shahodat olamida payg'ambarlarning oxirgisi edi, ammo g'ayb olamida ularning avvalidir. Payg'ambar alayhissalom buyurdilar: "Kuntu nabiyyan va Odamu bayna-l-mo'i va-t-tini", ya'ni Odam hali suv ila tuproq orasida ekanida men payg'ambar edim. Bu hadisning ma'nosi shuki, buyuklik va saxovat sohibi avvallarning avvalida (azalda) – u zamonda tanho Alloh bo'lib, boshqa narsalar yaratilmagan edi, hech qanday o'zga vujudsiz o'ziga ilk tajalli qilganida har narsaning asli yolg'iz Allohning o'zida edi. Bunda mavjudotning haqiqati ilohiy zotdan ayro bo'lmaganidek, bir-biridan ham farqli emasdi. Bu martabani "taayyyuni avval" va "haqiqati muhammadiy"¹ deydilar va boshqa barcha mavjudotning haqiqatlari u haqiqatning juzlari va tafsilotidir. Ularning surati bilan voqe' bo'lgan tajalliyot g'ayb olamida u haqiqat suratidagi tajallidan yoyilgandir" [Ҷомӣ 2014, 30 – 31].

Navoiy payg'ambarning ilohiy zoti ofarinish asosida turishini asoslab bergach, muqaddas kitoblarda u haqida xabarlar kelgani va islom ilohiyotining manbasi Kalom u tufayli tartiblanganini ta'kidlaydi. Muhammad (a.s.) tug'ilmaslaridan oldin u zot to'g'risida bashoratlar bo'lgan, masalan, ahli suffalardan bo'lgan sahoba "Irboz ibni Soriya (r.a.) rivoyat qiladiki, Rasul, sallallohu alayhi va olihi va sallam, amr qildilarki: "Xudoyi taolo huzurida Mening nomim "Xotam-un-nabiyyin" (payg'ambarlarning so'nggisi) yozilgan edi va Odam hanuz ruhsiz tuproq holida edi. Sizga o'z holim mabdasidan xabar beraymi?! Ibrohim (a.s.) duo qilgan ediki, "Ey Parvardigor, ularga o'zlaridan payg'ambar yubor, toki ularga Sening oyatlaringni o'qib bersin". Boshqa biri Iso (a.s.)ning bashoratiki, "Ey Bani Isroil, men Allohning sizlarga elchisiman. Mendan oldin nozil bo'lgan "Tavrot"ni tasdiqlayman va mendan keyin keluvchi Ahmad ismli (payg'ambardan) mujda beraman". Mening onam Omina o'zidan nur chiqib, Shom qasrlarini yoritganini tushida ko'rgan" [Ҷомӣ 2014, 35]. Jomiy "Tavrot", "Zabur" va "Injil"dagi Muhammad (a.s.) bilan bog'liq dalolatlarni ham keltirgan [Ҷомӣ 2014, 35 – 38]. Navoiy *Nechakim kutubi osmoniy kelib, Borisinda sendin nishoniy kelib* deganda ana shu kabi dalillarga tayangan.

Navoiyning mazkur bobdagi tasvirlarida ham zimdan izchillikka qat'iy amal qilingani sezilib turadi. U, dastlab,

¹ Haqiqati Muhammadiya – mutasavvuf va oriflar istilohida taayyyuni avval (ilk yaralish) kabi ahadiyat zoti va Allohning barcha ismlari mazhari ma'nolarida qo'llanadi [Sajjodiy 1370 (h), 325].

payg'ambarning zoti xususida, so'ng Odam va butun anbiyo-yu koinotning Muhammad (a.s.) haqiqati bilan munosabati, keyin u haqida ilohiy kitoblarda kelgan bashoratlar, so'ngra payg'ambarning tug'ilishi, payg'ambarlik dalolati, xususan, muhri nubuvvat¹ tavsifi, undan keyin shamoyili Muhammadiy tasviri, oxirda Qur'onning nozil bo'lishi va boshqa dinlarning xalal topishi kabi.

Bobdagi "Va mo arsalnoka illo rahmatan lil-olamin" oyati, "Kuntun-nabiy" hadisi, "shafe'ul-muznnib", "alayhi afzalusalavot va akmalut-tahiyot" kabi birikmalar va boshqa arabiy so'zlar Navoiy debochalari tilining o'ziga xos murakkabligini ham ko'rsatadi. Xadicha To'ranning statistik kuzatishlariga ko'ra, "Saddi Iskandariy"da jami 6327 so'z qo'llangan, shulardan 1249 ta (19.741 %) turkiy, 2379 ta (37.600 %) arabiy, 2270 ta (35 %) forsiy. 163 ta forsha va 54 ta arabcha so'zga turkiy so'z yasovchilar qo'shilib yangi so'zlar yasalgan. 124 ta shaxs nomlari, 74 ta joy nomlari, 11 ta qavm nomi va 2 ta yunoncha so'z uchraydi [Tören 1990, 11]. Biroq yangi tadqiqotlar "Saddi Iskandariy" dostoni hajmi, tili, lug'at tarkibiga oid yuqoridagi ma'lumotlar biroz boshqacha ekanini ko'rsatmoqda. Masalan, "Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni konkordansi"da qayd etilishicha, doston 7303 baytdan iborat bo'lib, unda 16936 so'z-shakl ishlatilgan [Tören 1990, 5]. Navoiy asarlari tilining murakkabligi keyinchalik "Xamsa" dostonlarining xalq qissalari uslubidagi tabdillari yuzaga kelishiga ham sabab bo'ldi [Навоий 2013, 3].

Nizomiyning ifoda uslubi Navoiyniki kabi murakkab emas, unda oyat yoki hadislar nisbatan kam uchraydi. Ifodani asar mavzusi va mazmuniga muvofiqlashtirish ham Nizomiy uslubiga xos emas. Nizomiy asosiy e'tiborni butun borliqning Muhammad (a.s.) tufayli yaratilgani, barcha yaratilqlar undan so'ng vujudga kelgani, ya'ni nuri Muhammadiy g'oyalariga qaratgan. Nizomiy ayni shu oyatga ishora qilib, payg'ambarni ikki o'rinda chiroqqa tashbih qiladi [Ганчавӣ 2012, 12]. Qayd etish kerakki, "Nuri Muhammadiy" tarafdorlari "Nur" surasining 35-oyatini [Қуръони карим 2001, 354] ham shu ta'limot bilan bog'lashadi, Imom G'azzoliy esa "Mishkot ul-anvor"da mazkur oyatni batafsil sharhlagan. Tabariyning qayd etishicha, ba'zi mufassirlar oyatdagi "mishkot"dan maqsad Rasullulloh (a.s.) ekanini ta'kidlashadi [Taberî 147 – 149].

1 At-Termiziyning "Shamoili Muhammadiy" asarida alohida bir bob shu masalaga bag'ishlangan bo'lib, unda nabiyluk muhri payg'ambarning ikki yelkasi orasida joylashgan kabutarning tuxumidek ziyoda go'sht, o'sha o'sib ko'tarilgan go'sht atrofi va ustini qoplagan birmuncha to'plangan mo'y kabi ekani hadislar asosida xabar qilingan.

Qiyoslar payg'ambar haqiqati borasida Nizomiy va Navoiyning dunyoqarashi yaqin ekanini ko'rsatadi:

1-jadval

№	Nizomiy	Navoiy
1.	Fikrlar ko'proq badiiy yo'sinda aks etgan	Fikrlar nisbatan ochiq, hatto, Odam va undan keyingi payg'ambarlarning Muhammad (a.s.)ga nisbatan mavqeyi aniq qayd etiladi
2.	Payg'ambarning islom rivojida ko'rsatgan jasoratlari va ulug' zot ekani, sharafigi ta'kidlashga ko'p e'tibor qaratgan. Fikrlarini asoslash uchun payg'ambar mo'jizalari, xususan, "shaqqal-qamar" voqeasi, payg'ambarning harbiy harakatlari xususida to'xtaladi	Ilohiy mo'jizalar xususida so'zlagan bo'lsa-da, ko'proq payg'ambarning yangi shariat barpo etgani va uning oqibatlari haqida so'z yuritadi
3.	Na'tda Navoiyda kuzatilgan Muhammad (a.s.) zoti tasviridan to'unga Qur'on nozil bo'lgunga qadar vaqtning sabab-oqibat tarzidagi ifodasi yo'q	Tartib orqali tushunarlilik, badiiy tasvirdagi tizimlilikni ta'minlashdan tashqari, koinotning yaratilishi ham muayyan tartibga ega ekani, jumladan, Muhammad (a.s.) ana o'sha jarayonda muhim o'rin tutishini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan

Har ikki ijodkor alohida (IV) bobda koinot jamoliga xol bo'lib tushgan kecha – Me'roj tunida Muhammad (a.s.)ning Arshi a'loga sayohatini tasvirlagan. Islom ta'siri ostidagi mintaqalar adabiyotida keng tasvirlanuvchi me'roj lavhasining ildizlari Qur'onning ikki (17:1 va 53:4-18) surasiga borib taqaladi [Қуръони карим 2001, 282; 526]. Keyinchalik hadislarida ham bu haqda ma'lumotlar uchraydi, tafsirlarda esa bu sarguzasht yangi ma'lumotlar bilan boyib bordi. Mazkur matnlar islomning dastlabki davrlarida me'roj sujetining shakllanishiga xos prinsipial jihatlarni ko'rsatib beradi [Gruber 2005, 16].

K.Gruber ta'kidlaganidek, mistik ijodkorlar XII asr boshlarida Muhammad payg'ambar me'rojini o'zlarining badiiy asarlariga muvofiqlashtirib, mazkur mavzuni ilohiy bog'lanishning asosiy ramzi sifatida qabul qilishdi va o'zlarining ruhiy yuksalishlari ifodasi

uchun me'roj tasvirini vosita qilishdi [Gruber 2005, 54]. Debochada me'roj tasviriga alohida e'tibor qaratilishining o'ziga xos sabablari ham mavjud. Avvalo, mazkur bob mohiyatan payg'ambarning buyukligi, yuksak sharafiga ta'kidlashga qaratilgan. Zero, tasvirning kulminatsiyasi, payg'ambarning Alloh jamoliga yetishish lahzasi bo'lib, bu islom ta'limotiga ko'ra eng ulug' sharafdir. Bunday sharafiga nubuvtat tarixida Muhammad (a.s.)dan boshqa payg'ambarga nasib etmagani esa butun musulmon olamining faxri hisoblanadi. Mana shu faxr tuyg'usi va payg'ambarga muhabbatni izhor etish istagi me'rojnoma'larning islom mintaqasi adabiyoti debochalaridan muqim o'rin olishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Nizomiyshunos Sirojiddin Hoji qayd etadiki, na'tlardan maqsad tavhid g'oyasini o'rgatish, muhofaza etish va yoyish hamdir [Haci 2010, 69]. Keyinchalik bunday boblar Sharq dostonchiligi debochalarining an'anaviy qismiga aylangan va har bir ijodkor uchun mahorat sinovi tusini olgan. Buning mushkulligi shuki, barcha me'rojnoma'lari uchun tasvir obyekti, mohiyati oldindan ma'lum, bu hol tabiiy ravishda muayyan tipologik holatlarni yuzaga keltirar edi, shunga qaramay har bir ijodkor individuallikka intilishi shart bo'lgan. E'tibor berilsa, masnaviylarda keng qo'llanuvchi nazariy fikr va badiiy illyustrasiya usuli dastlabki to'rt bobda ham namoyon bo'lgan. Ya'ni Tavhid hamd nazariy qism, Munajat hamd amaliy qism, Tavsif na't nazariy qism, Me'roj na't amaliy qism kabi.

Nizomiy va Navoiyning me'roj borasidagi qarashlari juda uyg'un, lekin Navoiy bu bobda ham o'z ijodiy prinsipiga muvofiq yangi yo'ldan yurishga intilgan. Uning bu boradagi dastlabki qadami sarlavhadan boshlanadi: *Ul humoyi balandparvoz tayronining sur'ati ta'rifidakim, me'roj shabistonida ko'zi nargisi bila ko'ngli g'unchasi «ma zog'al basaru va ma tag'o» jo'yboridin shodobdurur va taqarrub ayvonida muqavvas qoshlari «qoba qavsayni av adno» e'tiboridin bahrayob*. Sarlavhada ikkita oyat iqtibos qilingan, birinchisining matni to'liq: «Ma zog'al basaru va ma tag'o», ya'ni «(Payg'ambarning) ko'zi (chetga) og'gani ham yo'q, o'z haddidan oshgani ham yo'q». Ikkinchisi qisqartirilgan tarzda, to'liq matni esa quyidagicha: «Fa kana qoba qavsayni av adno», ya'ni «Bas, (Muhammadga) ikki kamon oralig'idek yoki (undan ham) yaqinroq bo'ldi» [Қуръони карим 2001, 526-b.].

Bob sarlavhasida gap nima haqida ketayotgani aniq bo'lsa-da, asosiy qahramon kim ekani oshkor etilmay, yuqoridagi oyatlar orqali ishora qilinadi va bu badiiy usul o'quvchida qiziqishni kuchaytirgan. Har ikki oyat bobda tasvirlanishi ko'zda tutilgan

badiiy maqsadga bevosita aloqador bo'lib, Navoiy dastlabki oyatni o'z ma'nosida, ikkinchi oyatni esa payg'ambarning Tangriga qay darajada yaqin borganini anglatish uchun qo'llaydi. Bu o'z-o'zidan sodir bo'lmagan, tasavvuf adabiyotida bu oyat ko'proq mazkur ma'noda talqin etilgan bo'lib, uning «qoba qavsayn» va «av adno» qismlari alohida istilohlar sifatida ishlatilgan. **Qoba qavsayn** – ikki kamon o'rtasi. Oriflar nazdida ilohiy amrda ismlar orasidan qabul qilinganiga ko'ra ilohiy va asmoiy qurb (yaqinlik) maqomi, bu ismlar ibdo, ioda, nuzul, uruj, foiliyyat, qobiliyyat kabilar bo'lib, ularni vujud doirasi deb ataydilar. Shuningdek, "qob" vujud (vojib bo'lgan) va imkon doirasiga ishora, "qavsayn"ni mana shu ikki doiraga ishora ham deydilar. Agar solik borliq maqomidan tashqariga qadam qo'ysa, foniyy bo'ladi, Haq vujudida singib ketadi va imkon doirasi vujud doirasiga yaqinlashadi hamda vujud va imkon birlik hosil qiladi [Sajjodiy 1370(h), 631]. Ammo bu qurbning zotiy emas, sifatiy ekani ham qayd etilgan. Bundan so'ng "Av adno" (yanada yaqinroq) maqomi bor. "Qoba qavsayn" Haq bilan birlashishdan ittisol – yaqinlik deyilgan ajratishning (yaxshini yomondan) baqosi bilan barobar, **av adno** esa ayni jamdagi zotiy ahadiyyatdan iborat. "Av adno"da ajratishlar va ahamiyati bo'lgan ikkilik sof fano va komil butunlik sababli qul va Haq orasidan ko'tariladi [Uludağ 1995, 58].

Navoiy bobda vahdati sirf – sof vahdat masalalarini tasvirlashni maqsad qilgan, zero, me'roj bunday nozik masalalarga o'ziga xos yechim ko'rsatish, o'z pozitsiyasini ifodalash uchun juda qulay edi [Муллахўжаева 2005, 55]. Shu bois Navoiy yuqoridagi istilohlar orqali mazkur masalalarga keng to'xtaladi, Nizomiyda esa ayni shu holatni ko'rmaymiz, chunki u oldiga Navoiyniki kabi maqsad qo'ygan emas. Nizomiyda ham vahdat haqida gap bor, biroq uni batafsil tasvirlashga, baland pafoslarda ifodalashga intilish yo'q. Navoiy keltirgan yuqoridagi ikki oyat butun bobning mazmuni, to'g'rirog'i uning eng asosiy jihatini o'zida aks ettirishi bilan ahamiyat kasb etgan.

Shabe, k-osmon majlisafr o'z kard,

Shab az ravshaniy da'vii ro'z kard.

Saropardai haft sulton sarir,

Baromuda gavhar ba chiniy harir [Ганчавӣ 2012, 13].

Ya'ni, shunday bir kechaki, osmon uning majlisini yoritdi va kecha ravshanligidan kunduzlik da'vosini qila boshladi. Taxt sohibi bo'lgan yetti sultonning chodiri o'zining chiniy haririga gavhar qadadi (yetti osmon yulduzlar bilan ziynatlandi) (tarjima bizniki – I.I.). Bobdagi tafsilotlar Nizomiy qalami bilan chizilgan yuqoridagi go'zal

lavha bilan boshlanadi. Nizomiy yana bir-ikki bayt fikrni davom ettirib, Muhammad (a.s.)ning to'qqiz qavat osmondan ko'tarilish tasviriga o'tadi. Bu kabi hollar Nizomiy me'roj tasvirida Navoiyga qaraganda siqiqroq, ixchamroq tasvirlar berishga harakat qilgani, unga romantik ruh berishga jiddiy e'tibor qaratmaganini ko'rsatadi. Navoiy tasvirlarida esa boshdan oyoq mavzu va masala mohiyati bilan ijodkor ruhiyati o'rtasida hamohanglik, ijodkorning masala mohiyatini qalb qo'ri bilan ifodalashga, undan hayrat tuyishga urinish yaqqol sezilib turadi. Navoiy ham bobni ulug'vor tashbehlar bilan boshlaydi:

Ne shom ul shabistoni farxundafol,

Bo'lub ofarinish uzorig'a xol.

Demay xolkim, gesuyi mushkrez,

Qilib ofarinish uza mushkbez [Навоий 1993, 17].

Ya'ni, u shom qanday baxtli kechaki, koinot jamoliga xol bo'lib tushdi. U xol emas, butun olamga yoqimli ifor taratuvchi sochdir. Falakni jamol, me'roj kechasini undagi xol sifatida mushohada etish uchun insonning tasavvuroti qanday ko'lamdor bo'lishi yoki butun olamni jamol va me'roj kechasini unga tutash qora soch qiyofasida idrok etish uchun insonning xayoloti naqadar ulug'vor bo'lishi zarur?! Nizomiy tasvirni kechaning ravshanligiga e'tibor qaratishdan boshlagan bo'lsa, Navoiy dastlab kechaning qorong'uligiga diqqatni tortadi, so'ngra yorishish tasviriga o'tadi. U dastlabki baytda mana shunday go'zal manzara yaratadi, lekin bu uning asosiy maqsadi bo'lmay, Nizomiydan farqli ravishda qora rangga urg'u berayotgani ham, me'roj shabistonini xol va sochga o'xshatishi ham tasodifiy emas.

Navoiy bob davomida sarlavhadagi "**Fa kana qoba qavsayni av adno**" oyati mazmuniga oid qarashlarini davom ettirib, bu baytlar orqali ruhning Alloh huzuriga yuksalishiga doir haqiqatlarni mumkin darajada ifodalashga harakat qiladi. Sharqda me'roj voqeasiga ma'naviy kamolot dasturi sifatida ham qarashgan, ayni mana shunday qarash dastlabki ikki baytda me'roj tunini xol va sochga tashbeh qilinishiga olib kelgan. **Xol** – soliklar nazdida yo'l, zavq ahli nazdida esa haqiqiy vahdat nuqtasi. So'fiylar istilohida kasratning boshlanishi va intihosi bo'lgan vahdat nuqtasiga ishoradir. G'aybiy huviyatga (butun haqiqatlarni qamragan mutlaq haqiqat) o'xshaydi, chunki idrok va shuurdan maxfiydir [Sajjodiy 1370(h), 344]. **Gisu** deb huviyat olamiga bo'lgan talab yo'lini aytganlar va hablal matn (mahkam ip, arqon; Qur'on, ilohiy amrlar) undan iboratdir [Sajjodiy 1370(h), 676]. Ya'ni Navoiy me'roj tunini xolga o'xshatish orqali

bobda Haqqa yetishish yo'li, vahdat to'g'risidagi haqiqatlarni yoki gisuga tashbeh qilganda qurbat hosil qilishga ko'mak beruvchi ilohiy amrlar, me'roj mo'jizasi hikmatini tasvirlamoqchi ekaniga ishora qiladi. Navoiy ustuvorlik bergan ayni mana shu jihat uning me'roj bobi Nizomiynikidan farqlanib turishiga xizmat qilgan.

Navoiyning me'roj peyzajiga o'ta ohistalik xos, u ilohiy mo'jiza tasviriga o'tishdan oldin uning munosib shart-sharoit, muhitda yuz berganini ko'rsatishga e'tibor qaratadi. Nizomiyda ham tun tasviri mavjud, ammo u qisqa bo'lib, mo'jizaning qanday muhitda yuz berganini tushuntirishga kamlik qilgan. Nizomiy nima uchundir Buroq tasviri, payg'ambarning unga minib barqdek yetti osmonga ko'tarilishiga katta e'tibor qaratgan. Navoiy esa munosib sharoitni tasvirlagach, payg'ambarning manzilini eslatadi, so'ngra nogoh barq chaqilib, ofoq nurga to'lgani va barqdek uchuvchi Jabroil barqandom ot – Buroqni yetaklab payg'ambar ostonasiga olib kelgani qayd etiladi, ya'ni Navoiy lavhalarni o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda bog'lab boradi. Nizomiyda esa Buroqning payg'ambarimiz huzuriga qanday keltirilgani, jarayon qay tarzda sodir bo'lgani, Jabroilning kelgani yoxud kelmagani kabi jihatlar ochiq qoladi.

Navoiy esa ayni mana shu bog'lanishlarga e'tibor qaratadi, masalan, tasvirga mo'jizalarga xos "nogohoniy chaqnash" detalini olib kiradi, ana shundan so'ng me'roj mo'jizasining asosiy voqealari tasviriga o'tadi. Manbalarda ham me'roj kechasi Jabroil alayhissalom bir nechta farishtalar bilan tushib, o'zlari bilan "xachirdan kichikroq, eshakdan cho'ngroq Buroq otini jannatdan keltirgan"i qayd etilgan [Соғуний 2013, 93]. Bu kabi jihatlar Nizomiy tasvirlarida yo'q. Bundan tashqari, Navoiy Jabroil Haqdan Muhammadga durud keltirganini maxsus qayd etadi:

Yuzin mehrdek aylagach xoksud,

Habibig'a yetkurdi Haqdin durud.

Ki, hijron bisotin tay etmak kerak,

Qo'pub Haq visolig'a yetmak kerak [Навоий 1993, 19].

Nizomiy Muhammad va Jabroil o'rtasidagi dialogni tasvirlamaydi, Navoiyga esa suhbatni kiritish kerak bo'lgan, chunki ushbu suhbat bahonasida bobdan ko'zlangan asosiy maqsad – *hijron masofalaridan o'tib, Haq visoliga yetish* haqidagi fikrni ta'kidlash imkoni paydo bo'lardi.

Nizomiy Muhammad (a.s.)ning yetti sayyoradan o'tishi tasvirida ajoyib manzara yaratgan. U payg'ambarning Arshga qadar qay tariqa poklanib borganini tasvirlash uchun yetti sayyorani dengizga tashbeh qiladi, go'yo payg'ambar ularda poklangan va

borlig'idagi sof javhardan boshqa barcha xususiyatlarni har bir yulduzga, samoviy jismlarga bag'ishlashi natijasida Arshga munosib holdayetibboradivaborlig'idanyolg'izdilqoladi. Nizomiy payg'ambar borlig'ining insoniy xususiyatlardan xalos bo'lishini ko'rsatish uchun har bir sayyoraga o'zidan bir xislat (Oyga uyqu beshigi, Utoridga qalam, Nohidga jismoniy shahvat, Xurshidga qurs, Mirrixga g'azab, Mushtariyga kibr va Kayvonga qarolik kabi) berganini aytadi, aslida, bular Sharq kosmogoniyasida o'sha sayyoralarga xos deb qaralgan xususiyatlar edi. Nizomiy bu orqali payg'ambarning yovuqlashish jarayonini obrazli ifodalashga erishish bilan birga yetti sayyoraga xos xususiyatlarni ifodalashga ham muvaffaq bo'lgan.

Navoiy ham payg'ambarning yetti falakdan o'tib borishi tasvirida o'ziga xoslik namoyon qilgan. Oy, Atorid, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhra va o'n ikki burj payg'ambardan fayz topib, uning kelganidan sururlanadi, o'z navbatida, uning qarshisida xijolatda qoladi. Navoiyning bu tasvirlardagi asosiy maqsadi payg'ambarning sayyid ul-mursalin ekanini ta'kidlash, shu bois ijodkor tazod va tashxis san'atlariga tayanib, butun koinotni shaxslantiradi va ularning so'zi-yu harakatlarini asosiy maqsadga yo'naltiradi [Муллахўжаева 2005, 55]. Tavhidda bo'lganidek me'rojda ham Muhammadning sayri munosabati bilan sakkiz qavat osmon tasvirlanadi, ammo hamdning aksi o'laroq na'tda koinot va burjlar tasviri vertikal yo'nalishga ega. Navoiy har bir sayyora tasviriga ikki bayt ajratadi va ularga xos xususiyatlar, o'z maqsadi ifodasi uchun anchagina batafsillikni ta'minlaydi, Nizomiy tasviriga esa siqqlik xos. Nizomiy sakkizinchi qavat – turg'un yulduzlar joylashgan falak va burjlarga e'tibor qaratmaydi, Navoiy esa 12 burjni batafsil tasvirlaydi, buni Arsh tasviriga o'tishdan oldingi zaruriy shart deb biladi.

Payg'ambarning falaklardagi sayri tasviridan so'ng, har ikki ijodkor Arsh va Lomakon tasviriga o'tadi. Navoiy payg'ambar Rafrafdan o'tganidan so'ng Jabroil va Buroq hamrohlikdan to'xtaganini aytsa, Nizomiyda payg'ambarning hamrohlari Rafrafdan o'tmay turib, harakatdan to'xtagani qayd etiladi. Qolgan masalalar bayonida ikki ijodkor deyarli yakdil. Lomakon va Muhammad (a.s.)ning u yerdagi holati tasvirida ham tabiiy yaqinlik bor, lekin Nizomiyning payg'ambar holati va vahdat masalasidagi tasvirlari ko'proq xulosaviy xarakterga ega bo'lib, "jo'n" va "hissiz". Nizomiyning o'zlik masalasidagi asosiy xulosasi mana shundan iborat, u bu borada batafsillikka intilmaydi, vahdatga oid adabiy istilohlar qo'llamaydi. Navoiy esa bu fursatdan o'zlik va vahdatga

doir qarashlarini ifodalash uchun poetik variatsiya [Тўхлиев 2013, 67–96] imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi [Навоий 1993, 24 – 34]. Eng muhimi, Navoiy tasvirda o'zlik va tavhid masalalarini ishq bilan omuxta qilish orqali originallik namoyon etgan.

Har ikki ijodkor payg'ambarning Tangri huzuridan qaytishi tasvirida ham o'ziga xoslik ko'rsatgan. Navoiy Muhammad (a.s.)ning bir damlik safardan buyuk himmati bilan ummati murodini hosil qilib qaytganiga diqqatni qaratga, Nizomiy me'roj voqeasidan so'ng choriyorlarga sano aytadi. Nizomiyning bu tasvirlari debochanavislik an'anasiga muvofiq, chunki Sharq debochalarida manoqib doimiy tarkibiy qism sanalgan [Тарозий 1996, 32].

Xullas, Tavhidda bo'lganidek me'rojda ham Muhammad (a.s.)ning sayri munosabati bilan sakkiz qavat osmon tasvirlanadi, sakkiz falak va 12 burjni bosib o'tish tasvirida jangovor ruh ustuvor, go'yo Muhammad (a.s.) sakkiz falak, 12 burj va Arshni fath etadi. Debochadagi bunday o'zgaruvchan xususiyatlar, tasvir maromi asar mavzusi va undan ko'zda tutilgan adabiy maqsad bilan mutanosib. Sakkiz falak va 12 burj tasvirida muntazam mantiqiy tazod qo'llanishi ham payg'ambarning ulug'ligini ta'kidlashga xizmat qilgan.

Xulosa

1. Navoiy "Saddi Iskandariy"da ham debochani asar mazmuniga muvofiqlashtirish prinsipiga amal qiladi. Har ikki dostonidagi **tavhid**, **munojot**, **tavsif na't**, **me'roj na't** kabi boblar an'anaviy bo'lgani uchun umumiyliklarga ega. Qolgan boblar maqsadi, mazmuniga ko'ra farqlanadi, tafovutlarning yuzaga kelishi davrlar o'tishi bilan ham izohlanadi.

2. Navoiyning debochadagi tasvir uslubi sistem xarakterga ega. Uning kosmogonik tafakkuri to'liq ilmiy asosga tayanadi. Nizomiy tavhid bobida mazkur kosmogonik sistema va vahdoniyat tasviriga erkin yondashadi. U tavhidda gnoseologik qarashlarga, Tangrining bir-u borligini ta'kidlashga jiddiy e'tibor qaratadi.

3. Debochalarda me'roj tasviriga alohida e'tibor qaratishning ma'lum asoslari bor. Birinchidan, mazkur bob mohiyatan payg'ambarning buyukligini ta'kidlashga qaratilgan, chunki tasvirning kulminatsiyasi payg'ambarning Alloh jamoliga yetishishidir. Ikkinchidan, mazkur g'aybiy haqiqat ifodasi ijodkorning romantik olamiga muvofiq.

4. Nizomiy debochasi boblarini bog'lab turuvchi "ketma-ketlik", Navoiy debochasida "uzviylik" darajasiga ko'tarilgan va X kirish bob o'ziga xos kompozitsiyaga aylangan. Navoiyning tafakkur tarzi va

tasvir uslubiga xos sistemali yondashuv debochadagi boblar tartibi va tasvirida aniq namoyon bo'лади.

Adabiyotlar

- Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони конкорданси. 2016. Тузувчилар: А.Қуронбеков ва бошқалар. Тошкент.
- Беруний, Абу Райҳон. 1973. *Қонуни Масъудий*. Т.5. 1к. Тошкент: Фан.
- Bünyamin, A. 2013. “Ahmedî ile Behişti'nin İskendername'lerinin Karşılaştırılması.” *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 10: 129–204.
- Ганҷавӣ, Н. 2012. *Хамса: Искандарнома*. Душанбе: Адиб.
- Gruber, Ch. J. 2005. *The Prophet Muhammad's Ascension (mi'rāj) in Islamic Art and Literature, ca. 1300-1600*. Ph.D. dissertation. Pennsylvania.
- Ҳайитметов, А. 2015. *Навоий лирикаси (иккинчи нашр)*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Ҳайитов, А. 2000. Алишер Навоий «Хамса»сини насрийлаштириш: анъана, табдил ва талқин. Ph.D. dissertatsiya. Тошкент.
- Ҳаққулов, И. 1986. “Хамса” бадийятига доир.” Алишер Навоий “Хамса”си (тадқиқотлар), 112–127. Тошкент: Фан.
- Hacı, S. 2010. *Həzrət Nizami Gəncəvinin mərcnamələrinin şərh*. Bakı: Nafta-press.
- Ҳожиб, Юсуф Хос. 1972. *Қутадғу билиг*. Тошкент: Фан.
- Ҷомӣ, А. 2014. *Шавоҳид-ун-нубувват*. Хуҷанд: Ношир.
- Муллахўжаева, К. 2005. Алишер Навоий ғазалиётда тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоя” асосида). Ph.D. dissertatsiya. Тошкент.
- Навоий, А. 1993. *Садди Искандарий*. МАТ. 20 томлик. Т.11. Тошкент: Фан.
- Навоий, А. 2013. *Искандарнома*. Мир Махдум ибн Шоҳюнуснинг «Насри Хамсаи беназир»и асосида нашрга тайёрловчи О.Тожибоева. Тошкент: MUMTOZ SO'Z.
- Қуръони карим (маъноларининг таржимаси). 2001. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети.
- Рустамов, А. 1979. *Навоийнинг бадий маҳорати*. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Sajjodiy, Saidja'far. 1370 (h). *Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy*. Tehron: Tahuriy.
- Содиқов, Қ. 2007. “Кун буржи собит туруп.” *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, январ 49.
- Соғуний, А. 2013. *Тарихи Муҳаммадий*. Тошкент: Шарқ.
- Taberî, Muhammed İbn Cerîr. *Câmi'ül-Beyân an-Te'vîl'il-Kur'an*. Hisar Yayinevi. <http://tefasir.blogspot.com/p/tefsir-kitaplar.html>

(03.08.2017)

Тарозий, Шайх Аҳмад ибн Худайдод. 1996. *Фунун ул-балоға*. Тошкент: Хази́на.

Tören, H. 1990. *Alî Şîr Nevâyî Sedd-i İskenderî (İnceleme-Metin-Dizin)*. DSc dissertatsiya. – İstanbul.

Тўхлиев, Б. 2013. *Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори*. Тошкент: BAYOZ.

Uludağ, S. 1995. *Tasavvuf terimleri sözlüğü*. Istanbul.

The poetry of the preface (debacha) of Alisher Navoi's epic "Sadd-i-Iskandari" (Alexander's Wall)

Ilyos Ismoilov*

Abstract

Alisher Navoi enriched Uzbek literature with many novelties and experiences. In particular, the great poet raised the tradition of writing introduction to a high level in terms of image system, composition, style, poetry and content. In the preface of his masnawi (poetic form), Alisher Navoi skillfully combines the reader's point of view, his own experiences, the content of the work and the philosophy of tasawwuf (mysticism). It is noteworthy that he is able to depict a preface on a subject and a theme in a new literary landscape and poetic variations each time.

This article discusses the preface of masnawi of Alisher Navoi's work "Sadd-i-Iskandari" (Alexander's Wall), which focuses on the poet's writing skills of preface. The poetry of the preface of "Sadd-i-Iskandari" (Alexander's Wall), the connection of the chapters in the preface with the content of the work, as well as the role of revealing the essence of the work are analyzed. In order to enlighten the writing skill of preface of Alisher Navoi, it is based on a comparative-historical method and is compared with the preface to Nizami Ganjavi's *Eskandar-Nâmeh* ("The Book of Alexander"). And it is provided necessary conclusions.

Key words: *Alisher Navoi, Sadd-i-Iskandari (Alexander's Wall), preface (debacha), Iskandar, poetics, Uzbek literature, skill.*

* *Ismoilov Ilyos Abdukayumovich* – Doctor of Philosophy in Philological Sciences (Ph.D), Tashkent State University Of Uzbek Language And Literature Named after Alisher Navoi, Department of History of Uzbek Literature and Folklore.

e-pochta: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

References

- Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni konkordansi. 2016. Tuzuvchilar: A.Quronbekov va boshqalar. Toshkent.
- Beruniy, Abu Rayhon. 1973. Qonuni Mas'udiy. T.5. 1k. Toshkent: Fan.
- Bünyamin, A. 2013. "Ahmedî ile Behîştî'nin İskendernâme'lerinin Karşılaştırılması." *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 10: 129–204.
- Ganjaviy, N. 2012. Xamsa: Iskandarnoma. Dushanbe: Adib.
- Gruber, Ch. J. 2005. The Prophet Muhammad's Ascension (mi'rāj) in Islamic Art and Literature, ca. 1300-1600. Ph.D. dissertation. Pennsylvania.
- Hayitmetov, A. 2015. Navoiy lirikasi (ikkinchi nashr). Toshkent: O'zbekiston.
- Hayitov, A. 2000. Alisher Navoiy "Xamsa" sini nasriylashtirish: an'ana, tabdil va talqin. Ph.D. dissertatsiya. Toshkent.
- Haqqulov, I. 1986. "Xamsa" badiiyatiga doir." Alisher Navoiy "Xamsa" si (tadqiqotlar), 112–127. Toshkent: Fan.
- Haci, S. 2010. Həzrət Nizami Gəncəvinin meracnamələrinin şərhı. Baki: Nafta-press.
- Hojib, Yusuf Xos. 1972. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan.
- Jomiy, A. 2014. Shavohid-un-nubuvvat. Xujand: Noshir.
- Mullaxo'jaeva, K. 2005. Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi ("Badoe' ul-bidoya" asosida). Ph.D. dissertatsiya. Toshkent.
- Navoiy, A. 1993. Saddi Iskandariy. MAT. 20 tomlik. T.11. Toshkent: Fan.
- Navoiy, A. 2013. Iskandarnoma. Mir Maxdum ibn Shohyunusning "Nasri Xamsayi benazir" i asosida nashrga tayyorlovchi O.Tojiboeva. Toshkent: MUMTOZ SO'Z.
- Qur'oni karim (ma'nolarining tarjiması). 2001. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
- Rustamov, A. 1979. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Sajjodiy, Saidja'far. 1370 (h). Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy. Tehron: Tahuriy.
- Sodiqov, Q. 2007. "Kun burji sobit turur." O'zbekiston adabiyoti va san'ati, yanvar 49.
- Sog'unıy, A. 2013. Tarixi Muhammadiy. Toshkent: Sharq.
- Taberî, Muhammed İbn Cerîr. Câmi'ül-Beyân an-Te'vîl'il-Kur'an. Hisar Yayınevi. <http://tefasir.blogspot.com/p/tefsir-kitaplar.html> (03.08.2017)
- Taroziy, Shayx Ahmad ibn Xudaydod. 1996. Funun ul-balog'a. Toshkent: Xazina.
- Tören, H. 1990. Alî Şîr Nevâyî Sedd-i İskenderî (İnceleme-Metin-Dizin). DSc dissertatsiya. – İstanbul.
- To'xliev, B. 2013. Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. Toshkent: BAYOZ.
- Uludağ, S. 1995. Tasavvuf terimleri sözlüğü. İstanbul.

TILSHUNOSLIK

LINGUISTICS

Areal lingvistikada takson tushunchasi talqini

Samixon Ashirboyev*

Abstarkit

O'zbek tilshunosligining areal lingvistika yo'nalishi o'zining rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Bu sohada A.Jo'rayevning tadqiqoti metodologik vazifa bajarayotganligini ta'kidlash lozim bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda areal lingvistika terminini tilga olmasdan shu muammoning ayrim xususiyatlari haqida fikr yuritilgan ishlar ham mavjud. Ushbu ishda areal lingvistikaning juz'iy masalasi, ya'ni lingvistik takson tushunchasi va uning o'zbek areal lingvistikasida rivojlantirilishi masalasi yoritilgan. Maqolada taksonomik lingvistika, bu sohadagi ilmiy manbalar, uning lingvistik geografiyaga aloqadorligi, takson hodisasining mohiyati – uning geografik o'rni, atrof til va shevalarning ta'siri, tarixiy rivojlanish xususiyati ochib berilgan. Shuningdek, takson tushunchasining mazmuni, unda taksonlarning ishtiroki, o'zbek tili massivining taksonomik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Maqolada takson tushunchasining izoglossalar bilan bog'liqligi va ularning tartibini belgilashi, har bir taksonni belgilashda uning geografik o'rni, atrof tillar yoki atrof til (sheva) hodisalari bilan bog'liqligi, shuningdek, har bir taksonning o'z tarixiy rivojlanish xususiyati borligi asoslangan. Takson turlari to'g'risidagi ma'lumotlar turkiy tillar, o'zbek tili, uning shevalari misollari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *areal, hudud, areal lingvistika, zona, lingvistik geografiya, takson, taksonomiya, taksonomik lingvistika, sistematika, takson turlari.*

* Samixon Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrası.

e-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

Kirish

Areal lingvistika bo'yicha tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida endigina boshlanmoqda. Bu soha A.B.Jo'rayevning "O'zbek tili massivini areal tadqiq qilishning nazariy asoslari" (1991) asaridan keyin N.Murodova, N. Raxmonovlarning "O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini" (2017), I.Darveshovning "Areal tilshunoslik: janubi-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari" (2019) tadqiqotlarida nazariy va amaliy jihatdan o'rganish obyekti bo'ldi. Areal lingvistika O'zbekiston Respublikasida lingvistik geografiya shaklida nisbatan keng tadqiq qilindi. Bu borada V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, T.Aydarov, Y.Ibrohimov, Q.Muhammadjonov, Z.Ibrohimovalar faoliyat ko'rsatdilar. Ma'lumki, bu ishlar O'zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning keyingi rivojlanishida ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etdi, lekin areal lingvistika va uning asosiy tushunchalarini ilmiy tadqiqotlarda qo'llash masalasida hamon bo'shliq mavjud. U nazariy jihatdan ilmiy izlanishlarga muhtojlik sezadi. O'zbek dialektologlari va areal tilshunoslik bilan shug'ullanuvchilar bu fandagi asosiy tushunchalar va uning tatbiqiy xususiyatlarini o'zlashtirishlari va uni rivojlantirishlari davr talabi bo'lib turibdi. Ushbu maqolada shu ehtiyojning kichik bir masalasi, ya'ni taksonlar ustida munozara yuritildi, takson va lingvistik hudud munosabatiga aniqlik kiritildi, biologik taksonlar va lingvistik taksonlar sistematikasi to'g'risida ma'lumot berildi hamda o'zbek tili massivining keyingi areal tadqiqotlari zarurligi asoslandi.

Tahlil usullari. Maqolaga rus va o'zbek tilidagi nazariy adabiyotlar materiallari asos qilib olindi. Shuningdek, unda axborot tizimlariga ko'proq urg'u berildi, chunki axborot manbalari mobil xarakterga ega bo'lib, undagi eng yangi ma'lumotlar maqola uchun tanlandi. Bu ishlar analiz, sintez qilindi, areal lingvistik qarashlar o'zbek tiliga tatbiqan qayta ishlandi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada N.Z.Gadjievaning "Turkiy areal lingvistika muammolari" (1975), A.B.Jo'rayevning "O'zbek tili massivini areal tadqiq qilishning nazariy asoslari" (1991) asarlari har tomonlama tahlil qilindi. Bu asarlar areal lingvistikaning asosi deb baholandi.

Asosiy qism

O'zbek tilshunosligida areal lingvistika kam rivojlangan soha. Bu sohada sanoqli ilmiy xodimlarga tadqiqot ishi olib bordilar va bu minimal holat hozir ham saqlanib turibdi. O'zbekiston

Respublikasida areal lingvistikaning lingvistik geografiya yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar nisbatan ko'proq olib borilgan. Bu borada V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, T.Aydarov, Y.Ibrohimov, Q.Muhammadjonov, N.Murodova, Z.Ibrohimovalar faoliyat ko'rsatdilar. Bu borada T.Aydarovning tadqiqotlarini ham e'tiborga olish lozim. U o'zbek tili massivida qozoq tili arealining xususiyatlarini tadqiq etdi [Айдаров 1977, 115-144; Айдаров 1991, 7-29] Shu bilan birga, dialektologiyaga oid ishlarda mualliflar areal terminini qo'llamasdan ham bunday tadqiqot unsurlarini amalga oshirishgan ham. Bunday tadqiqotchilarlar sirasiga Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkovlar kiradi [Гаджиева 1975, 19-23]. Keyingi yillarda lingvistik geografiya ustunlik qilsa-da, areal tadqiqotlar ham amalga oshirila boshlandi [Муродова va Рахмонов 2017; Дарвешов 2019]. Muhimi, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yili A.B.Jo'rayevning "O'zbek tili massivini areal tadqiq qilishning nazariy asoslari" (rus tilida) [Джурпаев 1991] monografiyasi paydo bo'ldiki, bu tadqiqot areal lingvistika sohasidagi bilimlarni aks ettirishi va o'zbek areal lingvistikasiga haqiqiy poydevorni qo'yishi bilan ahamiyatlidir.

Areal lingvistikada tayanch bo'ladigan bir necha tushunchalar bor. Bular *areal*, *izoglossa*, *takson*, *innovatsiya*, *zona*, *kontinuum* va boshqalardir. Shulardan bu maqolada areal lingvistikaga oid adabiyotlar va axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar asosida takson hodisasining mohiyati va uning o'zbek areal lingvistikasiga tatbiqi masalasiga to'xtalamiz.

Shuni aytish lozimki, takson lingvistik hudud tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Lingvistik hudud (kenglik) umumiy va rang-barangdir [Джурпаев 1991, 11]. Lingvistik hududning yagonaligi va bir butunligi boshqa umumiylikka nisbatan farqlanadi. U turli kattalikdagi va ahamiyatli bo'lgan lingvistik taksonlardan tashkil topadi. Bu taksonlarning rang-barangligi, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy, lingvo-etno-geografik sharoitlar bilan, ikkinchi tomondan, o'z taraqqiyot sharoitlari bilan bog'langan [Джурпаев 1991, 12].

A.Jo'rayev areal lingvistikani mazmunan ikki guruhga – umumiy va taksonomik qismlarga ajratadi [Джурпаев 1991, 12].

1. Umumiy areal lingvistika. Uning vazifasi til va dialektlarning hududiy umumiy qonun va nazariyalarini o'rganadi va ularni tizimga soladi.

Umumiy areal lingvistika lingvistik ta'limot haqidagi fanning bir qismi bo'lib, u areal jarayonlarning deduktiv qurilmasi (umumiylikdan xususiylikka) bilan bog'langan, ya'ni areal

lingvistikaning nazariy komponentlari amaliy bilimlar, induktiv (xususiylikdan umumiylikka) modeli qurilmalarning faktik materiallari va ularga ishlov berishdir. Boshqacha aytganda, umumiy areal lingvistikada til va dialektlardan yig'ilgan materiallar fanning xususiyatidan kelib chiqib ilmiy tahlil qilinadi. Albatta, bu fikr areal lingvistikaning dialektologiya negizida paydo bo'lganligi bilan hamohangdir. Umumiy areal lingvistika lingvistik qonun va nazariyalarning umumiy modellarini ishlab chiqadi va takomillashtiradi. Ko'rinadiki, areal lingvistikaning vazifasi til va dialektlarning muayyan hududga oid umumiy qonunlari, nazariyalarini o'rganadi va ularni tizimga soladi.

2. Taksonomik areal lingvistika. U konkret *lingvisik takson*larning shakllanish tendensiyalarini, taraqqiy qilishi jarayonlarini va o'ziga xosligini tadqiq qiladi.

Takson lotincha *tartib, tuzilma, tashkilot* degan tushunchani anglatadi va takson aslida *biror xususiyati, belgilari jihatidan birlashishi* mumkin bo'lgan obyekt yoki predmetlardir [<https://ru.wiktionary.org/wiki/takson>]. Bu tavsifda takson tushunchasining lug'aviy ma'nosi – definitsiyasi aks etgan bo'lib, unda butun-qism munosabati e'tiborga olingan, boshqacha aytganda, taksonning yirik butunlikni tashkil etuvchi bo'lak ma'nosi yoki har qanday paradigmaning tarkibiy qismi degan tushuncha anglashiladi.

Takson terminidan bir qancha fanlar foydalanadi. Aslida, bu termin biologiyaga tegishli (u quyiroqda oydinlashtiriladi). Bu termin til sistematikasida ba'zan qo'llanmagan holda ham uning ishtiroki fahmlanib kelingan. Bu ayniqsa grammatik kategoriyalar sistematikasi uchun xarakterlidir. A.Jo'rayev lingvistik taksonga o'ziga xos ta'rif ham bergan: "Lingvistik takson *dialekt-til* kompleksi bo'lib, muayyan sharoitlarda (*geografik joylashishi, atrof ta'siri va tarixiy rivojlanishi* – A.S.) shakllanib, individual strukturada ifodalangan va o'zaro bog'langan areal tizimdir" [Джыраев 1991, 14]. Bu ta'rif maxsus izoh talab qiladi. Bunda *dialekt-til kompleksi* tushunchasi mavhum tuyulishi mumkin. Buni shunday tushunish lozim bo'ladi, ya'ni til lahjalaridan, dialektlardan va shevalardan tashkil topadi hamda ular birgalikda bir kompleksni hosil qiladi. Til uchun har bir lahja takson vazifasini o'taydi. Demak, ular bir butun holda kompleks (majmua)ni hosil qiladi. Konkret bir til qarindosh tillarning bir taksonidir. Yana ham bu fikrni rivojlantiradigan bo'lsak, dialekt-til kompleksi tushunchasi bir idiomni hosil qiladi. *Muayyan sharoit* tushunchasi yuqoridagi qavs ichida aks ettirilgan jarayonlarni umumlashtiruvchi vazifani bajaradi, ya'ni u

taksonlarning shakllanishi shartlarini anglatadi:

1. Takson muayyan *geografik o'ringa* egalik qiladi. Bu tushuncha tilga, shevalarga tatbiq etiladigan bo'lsa, bunday talqinlar yuzaga keladi: o'zbek tili turkiy tilning bir taksoni sifatida, asosan, Markaziy Osiyoda joylashgan, qarluq lahjasi o'zbek tilining bir taksoni sifatida ko'proq u Toshkent va Farg'ona vodiysida joylashgan [Решетов va Шоабдурахмонов 1962, 80]. Taksonni fonetik tizimga tatbiq etish ham mumkin, jumladan, ä fonemasining artikulyatsiya o'rni, boshqacha aytganda, uning old qatorligi, quyi-kengligi, lablanmaganligi uning geografiasidir.

2. *Atrof ta'sir* tushunchasini ham areal nuqtayi nazardan tavsif qilish mumkin. Bu fonetikada shunday talqin qilinadi: ä fonemasi nutq oqimida so'z tarkibidagi boshqa tovushlar bilan fonetik jarayonlarda qatnashadi, jumladan, o'zbek tilida *qanday, qanaqa* so'zlarida **q** undoshidan keyingi ä unlisi orqa qator unlisi sifatida artikulyatsiya qilinadi va atrof ta'sir maqomiga ega bo'ladi. Morfemikadagi morfonologiya atrof ta'sir tushunchasining o'zginasidir, ya'ni *oyil - oylim, qijin - qijna - qijnāq* kabi o'zgarishlar atrof tovushlar va so'z urg'usi ta'sirida yuz beradi. So'z oxiridagi **k-g** (*jüräk - jürägi*), **q-g'** (*ortāq - ortāyi*) o'zgarishlari ham fonetikadagi atrof ta'sir tushunchasi bilan bog'liqdir. Bularni taksonlarning fonetikadagi atrof ta'siri qonuniyatlari deb qarash lozim bo'ladi. Murodova va N.Raxmonovlar kelishik qo'shimchalaridagi qattqlik va yumshoqlik yonma-yon kelgan tovushlar ta'sirida yuz berishini qayd qiladi [Муродова va Рахмонов 2017, 65]. Bu atrof ta'sir tushunchasining amaliyotdagi ko'rinishidir. N.Z.Gadjiyeva markaziy o'zbek shevalaridagi singarmonizmning yo'qolishini kontaktdagi til ta'sirida yuz berganligini ta'kidlaydi [Гаджиева 1976, 38], Shuningdek, u o'zbek shevalarida ä unlisining paydo bo'lishini ham kontaktdagi til ta'siri deb qaraydi [Гаджиева 1975, 34]

3. Har bir *takson o'z rivojlanish xususiyatiga ega* va uning yana bir belgisini anglatadi. Uni fonetik hodisalarga tatbiq etadigan bo'lsak, shunday talqinlar kelib chiqishi mumkin, jumladan, Xorazm shevalarida adabiy tildagi **q** undoshi **k** va **q** undoshlari oralig'ida artikulyatsiyada bo'ladi, lekin uni F.Abdullayev **k** undoshinining orqa qator unlisi bilan birga kelishi tufayli orqa qator undoshi tarzida talaffuz qilingan deb qaraydi [Abdullayev 1961, 134]. Buning o'ziga yarasha tarixi bor. Ma'lumki, **q** undoshining bunday talaffuzi shevaning o'g'uz lahjasi va tarixan turkiy tillarning o'g'uz guruhi tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liqligi bor. Afsuski, **q~k** oralig'idagi tovush **q** undoshining **k** undoshiga o'tishi deb ham qaralgan

[Серебренников va Гаджиева 1986, 30]. Har bir til hodisasining (izoglossaning) taksonlik mohiyatini tilning (shevaning) barcha yaruslari (xususan, grammatika, leksika) materiallarida asoslash imkoniyati keng va har bir izoglossaning taksonlik xususiyatini tavsif qila olish lozim ham.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, takson tushunchasining ushbu tavsifini berishga harakat qilamiz: ***Takson lingvistik tushuncha sifatida izoglossalarning joylashish tartibini anglatadi hamda har bir til va sheva hodisalarining geografik o'rne, atrof tillarning ta'siri, tilning tarixiy rivojlanish xususiyatlaridir. Biz bu nazariy qoidani yanada ravshanlashtirishga harakat qilamiz.***

Shimoliy Farg'ona dialektal zonasini tahlil qilganda (fokus nuqtasi Namangan shahri) [Джурпаев 1991, 66; Ashirboyev 2016, 101], bu hudud yagona dialektal zona bo'lsa-da, uning taksonlariga xos bir necha xususiyatlarini qayd qilish mumkin. Bu hududda o'zbek, tojik, qirg'iz tillari, Namangan viloyatidagi qarluq va qipchoq shevalari joylashgan bo'lib, ularning har biri alohida taksonlardir va bu taksonlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'z talqinlarga ega. Jumladan, o'zbek tili turkiy til vakili bo'lgan qirg'iz tili bilan azaldan munosabatda bo'lib kelmoqda (taksonomik lingvistika tili bilan aytganda, kontaktdagi til). Uning Namangan qipchoq shevalarining hamon saqlanib qolishida ham muayyan darajada o'rni bor. Bu viloyatdagi qipchoq shevasi egalarining uzoq tarixiy davrlarda o'zbeklar bilan bir makon tutganligi bu yerdagi o'zbek shevalarini qirg'iz shevalaridan ayirib, tadqiq qilish imkonini bermaydi, balki u Shimoliy Farg'ona zonasining bir taksoni sifatida areal o'rganishgina uning xususiyatini to'la ochish mumkin bo'ladi. Aksincha, bu yerdagi o'zbek shevalarini qirg'izlar bilan aloqada bo'lganligi uchun ham ularni ajratib tadqiq qilish sun'iy natija beradi. Bu tahlil qolipini o'zbek-tojik tili (uning shevalari) munosabatiga nisbatan ham qo'llash mumkin. Garchi ular turli til oilalalariga mansub bo'lsa-da, ular bir hududda joylashganligi tufayli tillarida o'zaro ta'sirning yuz berganligi ma'lum. Bu ilmiy tadqiqotlar orqali rasmiylashtirish [Дарвешов 2019, 25]. Demak, Namangan viloyatidagi va uning atrofidagi til va shevalarni yagona hududda shu hududning taksonlari sifatida o'rganish taksonomik areal lingvistikaning asosiy vazifasidir.

Taksonlar taksonomiyaning tarkibiy qismlaridir. Taksonomiya axborot tizimida ierarxik (pog'onaviy) qurilishga va murakkab tarkibga ega bo'lgan muayyan sohani tizimlashtirish va

tasniflash nazariyasi tarzida baholanadi [<http://kartslov.ru>].

Taksonomiyaga axborot tizimida yana shunday izoh beriladi: taksonomiya til faktlarini tasnif qilish (sistemalashtirish) asosida tadqiq qilishdir. Taksonomiya tushunchasi asosida lingvistik birliklarni ajratish, ularning xususiyatlarini ular tartibi va taqsimlanishi orqali o'rganish yotadi. Taksonomiya bo'laklar toifalarini kategoriyalarga birlashtiradi va shu asosda bo'laklar (unsurlar) va kategoriyalar (sinflar) orasidagi munosabatlar tipini ifoda qiladi. Aslida an'anaviy lingvistika taksonomik xarkatga ega bo'lgan. Ko'pincha taksonomiya konkret grammatik kategoriyalar guruhining bir umumiy kategoriyaga birlashishi deb tushuniladi, masalan, nisbat kategoriyasi, ot kategoriyasi va boshqalar [Great Encyclonary (Ru-Ru)].

Taksonomik areal lingvistika iyerarxik tillar, dialektlar kompleksi (takson), uning chegaralari, geografik va tarixiy madaniy faktorlar tahlilidir. Taksonlarni o'rganish jihatidan taksonomik areal lingvistikaning turlari (gemogen, geterogen) farqlanadi.

Taksonomik areal lingvistika *geterogen* taksonlarni tasviriy kontaktologiyaning yanada chuqurroq darajasi orqali lingvo-geografik jihatdan o'rganadi. Areal lingvistikada kontaktologiya degan tushuncha mavjud bo'lib, u muayyan tilning boshqa til bilan, uning shevalari bilan aloqada bo'lganligini anglatadi. Jumladan, Buxoro dialektal zonasi xususiyatlarini chuqurroq o'rganish uning ichki xususiyatlaridan tashqari, tashqi omillar ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, bu zona murakkab lingvistik tarkibga ega. Buxoro shahri, atrof tumanlaridan bir qatorlari: Kogon, G'ijduvon, Vobkent va boshqalar tojikzabon, Olot, Qorako'l va ba'zi qishloqlar shevalari o'g'uz lahjasiga tegishli, bir qator shevalar esa qarluq shevalaridir. Bu hududga turkman tilining kuchli ta'siri ham bor, lekin u hozirgi kunda kuchsizlangan. Bu o'rinda geterogen takson vazifasini tojik va turkman tillari bajaradi.

Taksonomik areal lingvistika *gemogen* taksonlarni areal o'rganadi. Taksonomik areal lingvistikaning bu turida har bir til (sheva) zonasidagi ichki munosabatlar o'rganiladi, ya'ni bir zonani tashkil etuvchi taksonlar – bir necha shevalar, qarindosh tillar bunday takson sifatida qatnashadi. Masalan, Toshkent dialektal zonasida qarluq va qipchoq lahjasiga oid shevalar o'zaro ta'siri mavjud. Ma'lumki, Toshkent viloyatining janubiy-g'arbiy chegaralarida qurama shevasi vakillari istiqomat qiladi [Перетов 1966, 7]. Ularning ham o'z tarixi, o'ziga xos madaniyati, turmush tarzi bor. Bu quramalarning shevasida ham o'z aksini topgan.

Ohangaron vohasida qadimgi qoraxitoy urug'larining keyingi avlodi yashashadi. Ular shevasi ham takson sifatida dialektal zonada o'z o'rnini bor. Garchand, ular qadimda migratsiya tufayli bu vodiya kelib qolgan bo'lsalar-da, ular ham o'z tarixi, turmush tarziga ega. Demak, bu kabi taksonlar ham hududning yagonaligini tashkil etadi.

Takson lingvistik tushuncha sifatida izoglossalarning joylashish tartibini anglatadi. Har bir izoglossa, takson sifatida muayyan tizimning tashkil topishida qatnashadi, jumladan, fonetikada orqa qator unlilar degan tushuncha bor. Bu qatorda adabiy tilda uchta unli (*o, u, o'*) qatnashishi ma'lum [Жамолхонов 2009, 109; HO'AT 1980, 48], lekin singarmonizmli shevalarda bu qatorda eng kamida to'rtta unli (*o, u, a, i*) ishtirok etadi. Bu tizimda har bir tovush bir izoglossa (uni kartada ifodalash imkonini bor) o'z maqomiga ega, ya'ni u taksonga qo'yiladigan *geografik o'rnini, atrof til hodisalarining ta'siri, har bir tovushning (fonemaning) tarixiy rivojlanish xususiyati bor. Bu talablar esa taksonlarning til orqa tovushlar tizimidagi tartibini belgilaydi.*

Yuqorida gemogen va geterogen taksonlar to'g'risida fikr yuritgan edik. Ular bilan birga taksonlarning yana quyidagi turlari ham o'rganiladi [Джуроев 1991, 16]:

экстенционал (узунлик, кенглик, ёйилиш) таксон [Джуроев, 1991, 17]. Bunda u yoki bu til va dialektlarga oid taksonlarning keng hududlarga yoyilishi o'rganiladi, masalan, turkiy tillar va ularning shevalari. Ma'lumki, turkiy tillar hozirgi Sibir, Oltoy, Volga bo'yi, Markaziy Osiyo, Osiyo, Kavkaz, Yevropaning sharqiy tomonlariga tarqalgan. Bunda har bir turkiy til bir takson sifatida qatnashadi. Turkiy tillar kartasida bu taksonlarning areali yorqin ko'rinadi. Bu o'rinda biz bir turkiy tilni takson sifatida asoslashga harakat qilamiz.

O'zbek tili. Markaziy Osiyoda katta hududni egallaydi. Bu til o'sha hududda aloqa va aralashuv quroli bo'lgan 100ga yaqin millatlar tilini ham hududiy jihatdan birlashtiradi. Bu tillar ichida qarindosh bo'lmagan rus, tojik tillarining, qarindosh uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman tillarining o'z hududi mavjud. Boshqa tillar tarqoq faoliyat ko'rsatadi, lekin ular ham shu hududda takson sifatida qatnashadi, ya'ni umumxalq o'zbek tili fokus nuqtasi sifatida ularga ta'sir o'tkazadi. Shuni ta'kidlash joizki, ta'sir o'tkazish termini shu tillarni singdirib oladi, degan tushunchani anglatmaydi, balki so'z o'zlashtirish, ba'zi fonetik va grammatik hodisalarda ta'siri bo'lishi mumkin (to'g'ri, ba'zilar uchun ikkinchi til bo'lishi ham mumkin, lekin bu masala taksonlikni asoslashga aloqasi yo'q). Demak, keng hududda bu til o'rin egallar ekan, o'zida ham kichik taksonlar

bo'lishi tabiiy bo'ladi, lekin har bir turkiy til hududi, aholi miqdori, kontaktdagi tillar birgalikda turkiy tillar hududini tashkil etadi. Turkiy tillar hududi tushunchasi turkiy tillar oilasi tushunchasiga mos kelmaydi. Turkiy tillar oilasi faqat turkiy tillarning o'zinigina ko'zda tutadi, ya'ni o'zbek, qozoq, qirg'iz tillari kabi. Turkiy tillar hududi esa shu hududdagi barcha tillar va ularning shevalarini qamrab oladi. Avval aytilganidek, unga qarindosh bo'lmagan tillar va chegaradosh tillar ham kiradi.

Qoraqalpoq tili. Nisbatan keng hududni egallagan. Turkiy tillarning bir taksoni sifatida unga birlashadi, lekin uning ham ta'sir doirasi bor. Ular ham taksonlarni hosil qiladi. Qoraqalpoq tiliga o'zbek (uning mahalliy shevalari), qozoq va qisman turkman tilining ta'siri bor va bu zonada ular ham takson vazifasini bajaradi.

Intensional takson. Bunda konkret bir til yoki dialekt fenomenining (asliyati) tarqalish xususiyatlari o'rganiladi, masalan, o'zbek tili dunyoning aksariyat hududlarida amalda (rasmiy emas) qo'llanib kelmoqda. Bu til O'zbekistondan tashqari Markaziy Osiyo respublikalari, Xitoy Uyg'uristoni, Rossiya, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni va boshqa hududlarga tarqalgan. Shundan O'zbekiston, Markaziy Osiyo va Afg'onistondagi o'zbek tili etnik o'zbeklar tilidir. O'zbeklarning jips (kompakt) bo'lib yashashi boshqa mamlakatlarda ham avj olmoqda. Bu holat hozir AQSh, Germaniya, Rossiya va Yevropaning ba'zi davlatlarida ham (migratsiya tufayli) ko'rinib qolmoqda. Saudiya Arabistonidagi o'zbeklar [<https://kun.uz/ru/01163087>] ona tillarini yo'qotish darajasida. Bu hududlardagi tillarning taqdiri turli xildir. O'zbekistonda u davlat tili, Afg'onistonda uchinchi davlat tili deb e'lon qilingan. Boshqa sobiq Ittifoqqa kirgan respublikalarda ular adabiy til sifatida ta'lim va matbuotda qo'llanmoqda, xolos. Yer sharining qayerida bo'lmasin, o'zbek tili O'zbekistondagi o'zbek tili namunasida rivojlanmoqda. Bunday sharoitda ish ko'rayotgan o'zbek tili yagona hudud tushunchasiga amal qilmaydi va bir zonani tashkil etmaydi, lekin intensionallik jihatidan ular ham takson vazifasini bajaradi.

Muayyan til intensional takson sifatidagi tarqalishining bir namunasi ingliz tilida namoyon bo'lmoqda. Bu til Angliya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya mamlakatlari milliy va alohida davlat tili sifatida qatnashadi, ya'ni bir tilning turli varianti maqomiga ega. Bu davlatlardagi ingliz tili umumingliz tilining taksonlaridir. Bu tillar takson sifatida unga qo'yiladigan talablarga javob beradi: o'z geografik hududiga, madaniyati va tarixi, qolaversa, ular tilining o'ziga xos xususiyati paydo bo'lgan. Intensional takson tushunchasini bir

tilning dialektal tizimiga nisbatan ham qo'llash mumkin. Jumladan, o'zbek tilining uch lahjasi uning intentsional taksonlaridir, chunki ular ham takson me'yorlari bilan o'lchanishi mumkin va o'ziga xos xususiyatlari mavjud. U ham areologik talablarga bo'ysunadi.

Adabiyotlarda lingvistik kenglik (hudud) umumiy va rang-barangligi ta'kidlanadi [Джурпаев 1991, 23]. Lingvistik hududning yagonaligi va bir butunligi boshqa umumiylikka nisbatan farqlanadi. U turli kattalikdagi va ahamiyatli bo'lgan lingvistik taksonlardan tashkil topadi. Bu taksonlarning rang-barangligi, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy, lingvo-etno-geografik sharoitlar bilan, ikkinchi tomondan, o'z taraqqiyot sharoitlari bilan bog'langan.

Taksonomiyada taksonlar sistematikasi degan tushuncha ham bor. Har bir fanning taksonlari sistematikasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, ya'ni bu sistematika muayyan ierarxiyaga (pog'onaga) asoslanadi. Aslida taksonlar sistematikasini biologiyaga oidligini ta'kidlash joiz. Axborot tizimida biologik sistematika *hukmron* (*царство*) ← *sinflar* ← *otryad* ← *toifa* (*род*) ← *tur* ← *turlanish* (*разновидность*) pog'onalardan iborat ekanligi ko'rsatiladi [<https://wp.wiki-wiki.ru>]. Shu maqolada lingvistik taksonomiya sistematikasida *makrooila* ← *oila* ← *guruh* ← *nimguruh* ← *til* (lahja, dialekt, sheva) pog'onalari beriladi. Bunda makrooila deganda tillarning genealogik tasnifidagi Hind – Yevropa, oltoy tillari; til oilalariga esa Hind-yevropa tilining hind, eron, slavyan, Boltiq bo'yi, german, roman, kelt, grek, alban, arman tillari kabi tillar, oltoy tilining turkiy, mongol, tungus-manchjur [Реформатский 1996, 216, 224] til oilalarining taalluqliligi tushuniladi. Buni boshqa til oilalari misolida ham ko'rish mumkin.

Biologiyadagi sistematika xususiyatlari shu fanda o'z izohini topadi, lekin sistematika tamoyillariga yondashuv aynan ekanligini ta'kidlaymiz. Areal lingvistikada taksonlar sistematikasiga o'zgacha yondashuv ham mavjud. A.B.Jo'rayev ekstensional *taksonlar to'g'risida fikr yuritib*, bu sistematikani lingvistik hudud tushunchasi bilan bog'laydi va uning *dunyo tillari* (butun dunyoga tarqalgan tillar) ← *til oilalari* (lingvistik hududlar) ← *til guruhlar* (til massivi) ← *til* (dialektal zona) pog'onalarini belgilaydi. Bu tasnifdan ko'rinib turibdiki, dunyo tillari yagona til hududi deb talqin qilinmoqda va uning tarkibiy qismlari sifatida til oilalari qatnashmoqda. Til massivi tushunchasi esa til oilalarining tarkibiy qismini anglatadi. Bu sistematikani dialektal zona yakunlab beradi. Shu munosabat bilan til massivi, landshaft, til guruhi, dialektal zonalar belgilanadi [Джурпаев 1991, 17].

Endi A.B.Jo'rayev sistematikasidagi ekstensional taksonni tahlil qilishga o'tamiz. Ekstensional takson va tarkiblarga ajraladigan yagona areal (komponent¹) tushunchasi shu o'rinda mos keladi. Terminning ma'nosidan anglashilib turibdiki, bu yirik tushuncha bo'lib, quyidagi taksonlarni umumlashtiradi:

- ekstensional takson komponentlaridan eng yirigi tillarning **yer sharida tarqalishidir**. U dunyo tillari degan tushunchaga korrelatsiya bo'ladi. Bu dunyo tillari kartasida yorqin namoyon bo'ladi. Dunyo tillari aksariyat hollarda muayyan hududda qaysi xalq yoki millat tarixan makon topgan bo'lsa, o'sha hududda tillar amal qilgan. Shuning uchun hudud nomi va tillarning nomlanishi shu o'rinlarda mos keladi. Turk, o'zbek, qozoq, rus, ukrain, moldovan, gruzin, arman, fransuz, ingliz, meksika kabi tillar shunday nomlanadigan hudud yoki davlat nomiga mosdir. Bunday muvofiqlik nisbatan ko'p uchraydi, lekin til va hudud nomi mos kelmasligi ham keng tarqalgan. AQSh, Germaniya, Belgiya, Efiopiya, Iordaniya, Pokiston kabi davlatlarda hudud nomi va tili muvofiqligi yo'q. Ayni bir tildan foydalanadigan bir necha hududlar ham bor, bir necha tillardan foydalanadigan hududlar ham bor. Avvalgisiga inglizabon davlatlar hududlarini ko'rsatish mumkin. Keyingisini esa katta va kichik hududlarga ajratish mumkin. **Super katta hudud** sifatida yer sharini oladigan bo'lsak, undagi har bir til takson, yer shari tillari esa ekstensional takson sifatida qaraladi. Nisbatan katta hudud sifatida qit'alarni ko'rsatish mumkin. **Kichik hududga** bir necha tillardan davlat tili sifatida foydalanadigan davlatlarni (hududlarni) ko'rsatish mumkin, masalan, Belgiyada davlat ingliz, italyan, fransuz, nemis tillarida ish ko'radi.

- ekstensional taksonning **lingvistik hudud** komponenti. U til oilasi tushunchasiga korrelatsiya bo'ladi. Yuqorida fikrlardan yer shari yagona til makoni, geografiyasi sifatida tushuniladi. Lingvistik hudud esa ayni bir tilning yaxlit bir hududda faoliyatda bo'lishi tushuniladi. Bunga arab tilli davlatlar hududi, nemis tilli davlatlar hududi misol bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasidagi o'zbek tilining tarqalishi ham yaxlit hudud tushunchasiga muvofiq keladi.

- ekstensional takson komponentlaridan yana biri **til massivi, landshaft**dir. U konkret bir til tushunchasi bilan korrelant bo'ladi. Til massivi lingvistik zona va azona(a+zona)larning joylashishini umumlashtiradigan maxsus yaxlit hudud bo'lib, u ko'pincha bir til doirasi bilan belgilanadi. Masalan, o'zbeklar turg'un va uyg'un yashaydigan yaxlit hudud o'zbek tili massivi, shu kabi qozoqlar

1 Komponent tushunchasi maqola muallifi tomonidan kiritildi – A. C.

turg'un va uyg'un yashaydigan hudud qozoq tili massivi deyiladi. Shuningdek, O'zbekistondan tashqarida turg'un yashayotgan (Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iston, Tojikiston) o'zbeklar tili ham til massivini tashkil etadi. Til massivlari ular landshaftini hosil qiladi, ya'ni qarindosh va noqarindosh tillar va muayyan tilning dialektal tarkibi landshaftni yuzaga keltiradi.

- ekstensional takson komponentlaridan eng quyisi **dialektal zonadir**. U dialektlar guruhi tushunchasi bilan korrelatsiyaga kirishadi. Ma'lumki, dialektal zona til massividagi shevalar guruhidagi tayanch sheva ta'sirida bo'lgan hududni ifoda qiladi, shu o'rinda tayanch dialekt (sheva) tushunchasi adabiy tilning tayanch shevasi degan ma'noni bildirmasligini ta'kidlashni lozim topamiz, balki u fokus nuqtasi tushunchasi bilan korrelyatsiyada bo'ladi. Bu sheva, odatda, yirik shahar shevasi bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi va unga chegaradosh bo'lgan o'zbek tili massivining dialektal zonasi A.B.Jo'rayevning tadqiqoti uchun asos bo'lganligi fanda ma'lum. Ta'kidlash joizki, o'zbek tili dialektal zonalarining belgilanishi ilk tajriba bo'lib, u nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, unda munozarali va tadqiqotlarga muhtoj o'rinlar mavjud. Ulardan biri bo'lgan A.Jo'rayev tasnifida Namangan fokus nuqtasiga ega bo'lgan janubiy-g'arbiy zonaning fonetik xususiyatlari I.Darvishov tadqiqotida reallashtirildi [Дарвишов 2019, 7] va zonaning o'ziga xos xususiyatlari boyitildi. Shuningdek, A.Jo'rayev azona (zonadan tashqari) deb yuritgan zonalarining lingvistik tabiati keyingi o'ttiz yil ichida sezilarli o'zgarishlarga uchraganligini ham ta'kidlash mumkin. Bu jarayonlar yangi tadqiqotlarni kutib turibdi.

Xulosa

Lingvistik adabiyotlarda ekstensional taksonning piramida hosil qilishi to'g'risida fikr yuritiladi [Джыраев 1991, 17], ya'ni eng quyidan dialektal zonalar joy oladi. Ular ko'p sonli bo'ladi. Uning ustiga til massivi joylashadi. Ular dialektal zonaga nisbatan kam sonli hisoblanadi. Uning yuqorisidan lingvistik hudud (amaldagi tillar) o'rin oladi. Uning miqdori til massiviga nisbatan oz bo'ladi va eng cho'qqisini yer sharidagi tillar tushunchasi egallaydi.

Lingvistik takson masalasi o'zbek areal lingvistikasida endigina e'tibor berilayotgan masala bo'lib, uning umumiy-nazariy muammolari hal qilingan bo'lsa ham, o'zbek tili massividagi xususiyatlari hali tadqiqot ob'ekti bo'lishi kutilmoqda. Demak, shevalar aralashishi va o'zaro ta'sir kuchayayotgan ushbu davrda

lingvistik hudud, til massivi, dialektal zonalar ham o'zgarib va rivojlanib boradiki, ularga yangicha yondashuv lozim bo'ladi hamda davr o'tishi bilan ular qayta tadqiq qilinishi lozim bo'ladi, chunki shevalar aralashuvi, migratsiya jarayonlarining tobora avj olishi tillarning ham aralashuvini tezlashtiradi. Shu munasabat bilan areal tadqiqotlarga muhtojlik oshib boradi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, А. 1991. *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*. Тошкент: Фан.
- Айдаров, Т. 1977. *Лингвистикалық география*. Алматы: Мектеп.
- Айдаров, Т. 1991. *Проблемы диалектной лексикологии и лингвистической географии*. Алма-Ата: Рауан.
- Ashirboyev, S. 2016. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navro'z.
- Гаджиева, Н.З. 1975. *Проблемы тюркской ареальной лингвистики*. Москва: Наука.
- Гаджиева, Н.З. 1976. "Значение ареальной лингвистики для истории тюркских языков." *Turkologica* 2: 37- 47.
- Дарвишев, И. 2019. *Ареал тилишунослик: жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари*. Тошкент: Наврўз.
- Джураев, А.Б. 1991. *Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива*. Ташкент: Фан.
- Жамолхонов, Ҳ.А. 2009. *Ўзбек тилининг назарий фонетикаси*. Тошкент: Фан.
- Муродова, Н., Рахманов, Н. 2017. *Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Муродова, Н. 2019. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент: Barkamol fayz media.
- Решетов, В.В. 1966. "Ўзбек шеваларининг классификацияси." *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 5 - 11.
- Решетов, В.В., Шоабдурахмонов, Ш.Ш. 1962. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Реформатский, А.А. 1996. *Введение в языковедение*. Москва: Аспект Пресс.
- Серебренников, Б.А., Гаджиева, Н.З. 1986. *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков*. Москва: Наука.
- Шерматов, А. 1981. *Лингвистик география нима?* Тошкент: Фан.
- Ҳозирги ўзбек адабий тили*. 1980. Тошкент: Ўқитувчи.
- <https://ru.wiktionary.org/wiki/takson>. (10.02.2021)
- <http://kartslov.ru>. (10.02.2021)
- Great Encyclonary (Ru-Ru). (10.02.2021)
- <https://wp.wiki-wiki.ru> (10.02.2021)
- [https:// dic.academic.ru](https://dic.academic.ru) (10.02.2021)

The interpretation of the concept of taxon in areal linguistics

Samikhon Ashirboyev*

Abstarkt

In Uzbek linguistics, areal linguistics has entered into the stage of development. It should be noted that in this issue A. Dzhuraeva's research plays a methodological role. Nevertheless, in the scientific literature there are studies in which some questions of this problem have been considered without using the term "areal linguistics". The article covers in detail one of the problems of areal linguistics, that is, the problem of taxon and its development in Uzbek areal linguistics. The article also highlights the following issues: taxonomic linguistics, its scientific sources, its relation to linguistic geography, the essence of the taxon phenomenon - its geography, the influence of surrounding languages and dialects, features of historical development. The article also deals with the content of the concept of a taxon, the taxonomic features of the Uzbek-speaking errey, the role of geographical location, the influence of the contact language and dialects, the historical development of each taxon in determining the characteristics of taxa, and draws attention to the fact that each taxon has its own historical development. The variety of taxa based on the examples of the Turkic languages, the Uzbek language and its dialects.

Kalitso'zlar: *area, space, linguistics, area, zone, linguistic geography, taxon, taxonomy, taxonomic linguistics, systematics, types of taxa.*

References

- Abdullaev, A. 1991. *O'zbek tilining Xorazm shevalari*. Toshkent: Fan.
Aydarov, T. 1977. *Lingvistikaliq geografiya*. Almati: Mektep.
Aydarov, T. 1991. *Problemi dialektnoy leksikologii i lingvisticheskoy geografii*. Alma-Ata: Rauan.
Ashirboyev, S. 2016. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navro'z.
Gadjieva, N.Z. 1975. *Problemi tyurkskoy arealnoy lingvistiki*. Moskva: Nauka.
-

* Samikhon Ashirboyev – Doctor of Sciences in Phlology, Professor, Tashkent State University Of Uzbek Language And Literature Named After Alisher Navoi, Department of Uzbek Linguistics.

e-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

- Gadjieva, N.Z. 1976. "Znachenie arealnoy lingvistiki dlya istorii tyurkskix yazikov." *Turkologica* 2: 37- 47.
- Darvishev, I. 2019. *Areal tilshunoslik: janubiy-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari*. Toshkent: Navro'z.
- Djuraev, A.B. 1991. *Teoreticheskie osnovi arealnogo issledovaniya uzbekoyazichnogo massiva*. Tashkent: Fan.
- Jamolxonov, H.A. 2009. *O'zbek tilining nazariy fonetikasi*. Toshkent: Fan.
- Murodova, N., Raxmanov, N. 2017. *O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Murodova, N. 2019. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Barkamol fayz media.
- Reshetov, V.V. 1966. "O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi." *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 5 - 11.
- Reshetov, V.V., Shoabdurahmonov, Sh.Sh. 1962. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Reformatskiy, A.A. 1996. *Vvedenie v yazikovedenie*. Moskva: Aspekt Press.
- Serebrennikov, B.A., Gadjieva, N.Z. 1986. *Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov*. Moskva: Nauka.
- Shermatov, A. 1981. *Lingvistik geografiya nima?* Toshkent: Fan.
- Hozirgi o'zbek adabiy tili*. 1980. Toshkent: O'qituvchi.
- <https://ru.wiktionary.org/wiki/takson>. (10.02.2021)
- <http://kartslov.ru>. (10.02.2021)
- Great Encyclonary (Ru-Ru). (10.02.2021)
- <https://wp.wiki-wiki.ru> (10.02.2021)
- [https:// dic. academic.ru](https://dic.academic.ru) (10.02.2021)

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta-siga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasini qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiya berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz
adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiya barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiya berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*,
Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi
raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher
Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 –
133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiya foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: goldenscripts@gmail.com
Tel.: +99891 166-31-38
Bosishga 30. 03 2021-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8
Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77, +99894
659 94 62